В качестве новейшей добавки в мировой практике все больше внимания уделяется сочетанию дешевой серы с нефтяным битумом, что открывает перспективы для разработки серосодержащих битуминозных дорожных вяжущих и снижения расхода битума. Химический состав битума очень сложный. Таким образом, они могут содержать смеси углеводородов метанового и нафтенного ряда и их производных по кислороду, сере и азоту. Элементный состав битума варьируется в пределах: углерод -70...80%, водород – 10...15%, серы – 2...9%, кислорода – 1...5%, азота -0...2%. Эти элементы содержатся в битуме в виде углеводородов и их соединений с серой, кислородом и азотом.

Твердая часть битума – это высокомолекулярные углеводороды и их производные с молекулярной массой 1000...5000, плотностью более 1 г/см³, объединенные общим названием “асфальтены”. Асфальтены содержат карбены, растворимые только в CCl₄, и

карбиды, нерастворимые в маслах и летучих растворителях. Асфальтены представляют собой твердые, хрупкие и неплавящиеся частицы

черного цвета с характерным блеском, обладающие выраженной красящей способностью. Они являются продуктом полимеризации, конденсации и дегидрирования ароматических нафтеновых углеводородов, в частности, тех, которые входят в состав смол. Асфальтены являются наиболее уплотненной частью битумов и придают им твердость и хрупкость.

Смолы – это аморфные вещества темно-коричневого цвета с молекулярной массой 500...1000, плотностью около 1 г/см³. Плотность смол зависит от содержания в них водорода, углерода, кислорода и серы. Чем больше в битуме углерода по отношению к водороду, тем выше плотность смол. Обычно она колеблется от 1,00 до 1,08 г/см³, содержание серы и кислорода достигает 10%. Содержание смолы в битуме повышает его вязкость, твердость и эластичность.

Масла – жидкая часть битума при нормальной температуре, состоящая из различных углеводородов с молекулярной массой 100...500 и плотностью менее 1 г/см³. В различных битумах содержится различное количество ароматических, нафтеновых и метановых углеводородов [1].

Для выбора наиболее оптимального комплекса процессов переработки нефти, их моделирования, обоснования мощности нефтеперерабатывающих заводов, разработки представлений о генезисе нефти и решения задач нефтяной геологии необходимо знать химический и фракционный состав нефтей [2]. Производство сернистого битума, используемого в дорожном строительстве. Способ включает смешивание расплавленного битума, серы и активирующей добавки при нагревании. Для активации реакционной смеси используют амины в количестве 0,3-3,0 мас.% по отношению к сере [3].

Список использованной литературы

1. V. P. Yartsev, A.V. Erofeev, Operational properties and durability of bitumen-polymer composites Tambov Publishing House FGBOU VPO "TSTU" 2014.
2. G. K. Bismukhametova and others. Modern methods of physico –chemical analysis in the study of properties of bitumen systems, Bulletin of the Technological University. 2017. Vol.20, No.3.
3. Patent V.B.Ivanov, T.S.Valiev, V.S.Kozlov Method of obtaining serobitum, 06/10/2012 Issue No. 16.

ГАЗНИ ҚАЙТА ИШЛАШ ЗАВОДЛАРИ ЧИҚИНДИЛАРИ ВА КЎМИР АСОСИДА ОЛИНГАН БИТУМНИНГ ФИЗИК ВА КИМЙОВИЙ ТАДҚИҚИ

Саидмуродов Рашид Арслон ўғли

Таянч докторант, ЎзР ФА Умумий ва ноорганик кимё институти

Сайдахмедов Ш.М.

Техника фанлар доктори, доцент, ЎзР ФА Умумий ва ноорганик кимё институти

Кўчаров Азизбек Алишер ўғли

ЎзРФА Умумий ва ноорганик кимё институти докторанти (DSc), Тошкент,

Ўзбекистон. Юсупов Фарход Маҳкамovich.

*Техника фанлар доктори, профессор, ЎзР ФА Умумий ва ноорганик кимё
институти*

Хозирги вақтда сифати яхшиланган битумни чиқаришда муайян муаммоларни ҳал қилиш бўйича тадқиқотларга еҳтиёж кўп ҳисобланади, чунки битум ишлаб чиқаришда қўлланиладиган хом ашёларнинг кўп қисмида сифат паст ҳисобланади. Ушбу муаммоларни ҳал қилиш учун олимлар кўплаб илмий изланишлар олиб бормоқда. Сифатли биюм олиш учун биринчи навбатда, юқори парафинли нефт хом ашёсининг таркибини ўрганиш; оғир нефт фракцияларининг оксидланиш жараёнини оптималлаштириш; муқобил сифат кўрсаткичларига ега бўлган боғловчи битум ишлаб чиқариш учун универсал технологик қурилмани ишлаб чиқиш; юқори даражада мумланган нефт чиқиндиларини қайта ишлаш каби илмий муаммоларни ҳал қилиш керак бўлади.

Нефт углеводородларнинг мураккаб аралашмаси ҳисобланади. У жуда кўп сонли индивидуал компонентларни ўз ичига олади. Углеродли бирикмалар тахминан 80-85% ни ташкил қилади, водород, олтингугурт, азот ва кислород, шунингдек минерал бирикмаларнинг оз миқдори мавжуд. Олтингугурт, кислород ва азотнинг улуши одатда 1-5% ни ташкил қилади. Олтингугурт кўпинча нефт таркибида учрайди, унинг миқдори баъзи нефт шламларида 5-6% га йетади, азот ва кислород миқдори фоизнинг ўндан бир қисмидан ошмайди, лекин баъзан 1,5-2% гача йетадиган нефт наъмуналари ҳам мавжуд. В.Д. Рябов нефт таркибий қисмларининг қисқача тавсифини тақдим етган. Буларга алканлар (парафинлар), циклоалканлар (нафтенлар, сикланлар), ароматик углеводородлар (аренлар), кислородли бирикмалар, азот бирикмалари, олтингугурт бирикмалари, смолали асфалтен моддалари, минерал моддалар, оптик фаол моддалар киради.

Битум намуналари ишлаб чиқилган боғловчилар асосида ишлов берилгандан сўнг экстрация усулида тайёрлаб олинган. Бунда юқорида келтирилган компонентлар қушилгандан сўнг, расмда келтирилган центрифуга мосламаси ёрдамида аралаштирилиб тоза ҳолатдаги битум намуналари олинган.




1-Расм. Битум тайёрлаш мосламаси

Битумнинг қовушқоқлиги пенетрометр игнасининг ботиш чуқурлиги билан аниқланади. Асбобдаги ҳар бир градус игнанинг битумга 0,1 мм га ботганлигини кўрсатади. Қовушқоқ битумнинг чўзилувчанлиги дуктилометр асбобида аниқланади. Бунда битум ипининг маълум ҳароратларда ва маълум тезликларда чўзиш натижасида узилгандаги узунлиги см.ларда қабул қилинади. Йўлбоп битумлар 25 °С ва 0 °С ҳароратларда аниқланиб, чўзиш тезликлари мутаносиб равишда 5 см/мин. ва 0,5 см/мин. қабул қилинади.


Битумнинг шар бўйича юмшаш ҳарорати. Битумли халкалар асбобнинг махсус штативига ўрнатилади, халқадаги битум ўртасига пўлат шарлар ўрнатилади. Термометр

асбобнинг махсус жойига халқалардаги битумнинг таг юзаси билан баробар тарзда ўрнатилади.


Сўнгра стаканни иситиш манбаига қўйиб ҳарорат минутага +5 °С дан ошириб борилади. Бунинг натижасида битум юмшаб бораверади ва шарлар ўз оғирлигининг босими остида битумдан ўтиб асбобнинг назорат дискига бориб тушади. Ушбу вақтдаги ҳарорат битумнинг юмшаш ҳарорати деб қабул қилинади.



А



Б



С

2-расм. сканерловчи электрон микроскоп тасвирлари

Қўшимчалар ва микро тузилмаларнинг тарқалиши сифатини ўрганиш учун СЕМ ўтказилди. 2 а, б, с-расмларда полимер ва нано модификацияланган битум билан бирга асосий битумнинг типик морфологияси кўрсатилган. 2(а)-расмда асосий битумнинг морфологияси $\times 3314$ катталаштириш ва штрих шкаласи 3,0 мкм билан кўрсатилган. Нисбатан силлиқ ва тартибсиз сиртларни а, б, с-расмлардаги қўшимчалар билан битум модификациясидан кейин кузатиш мумкин. Бироқ, заррачалар битум билан бирга тўпланиши кузатилади.

Нефт шламини қайта ишлашнинг асосий қисми уни қаттиқ лой зарралари, сув, минерал тузлар ва турли кислоталар бўлган аралашмалардан тозалаш ҳисобланади.

Нефтдаги механик аралашмалар қум, гил минераллар, темирнинг майда зарралари ва минерал тузлардан иборат. Тайёр қайта ишланган нефт маҳсулотларида механик аралашмалар адсорбент минералларнинг зарралари (лой), темир, минерал тузлар ва бошқа моддалар бўлиши мумкин. Йенгил, паст қовушқоқли нефт маҳсулотлари тез чўкиши туфайли механик аралашмалар деярли йўқ ҳисобланади.



1

2

3

4

5

3-расм. DYE 1000 прессида қолиплашдан кейин олинган асфалт-бетон намуналари.

Механик аралашмаларнинг табиати қатламдан қатламга ўтишда уларнинг хусусиятларида сезиларли даражада фарқланади. Ёғ шламнинг емулсия қатламларида механик аралашмалар асосан микрон зарралари шаклида топилади, суспензия қатламида заррача ўлчамлари 5-10 мм бўлган қум аралашмалари кўпроқ учрайди.

Олинган асфалт-бетон аралашмаларининг 5 та намунасида шағал миқдори 35% дан ортиқ. Шунинг учун, мустаҳкамликни текшириш учун 20 МПа босим остида босиш орқали амалга оширилган.

Бунда комбинацияланган усул ёрдамида мустаҳкамликни аниқлаш учун босим остида намуналарни тебранишли мослама ёрдамида амалга оширилади, кейин еса сиқилади. Намуналар битта шаклда чиқарилади, чунки бир хил қолипдан фойдаланилган. Тебраниш тахминан 3 дақиқа давом этади, кейин намуна 20 МПа босим остида қўшимча сиқилиш учун юборилади.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Использование серы в дорожном строительстве стран Европы и Северной Америки [Электронный ресурс]. URL: <http://www.nestor.minsk.by/sn/1998/42/sn84218.htm> (дата обращения: 16.03.2015).
2. Каганович, Е.В. К вопросу использования серы при строительстве и ремонте автомобильных дорог в Республике Казахстан / Е.В. Каганович, В.С. Курчавов // Вестник КаздорНИИ. – Алматы, – 2004. – №1. – С. 53-55.
3. Горбик, Г.О. Структура и свойства модифицированного серобитумного вяжущего для дорожного строительства: дис. ... канд. техн. наук: 05.23.05 / Горбик Григорий Олегович. – Пенза, 2006. – 177.

DIMETILSULFOKSID KARBAMID ASOSIDA SHOLI POYASIDAN MONOSAXARIDLAR OLISH TEXNOLOGIYASI

Aliqulova Diloram Abduraxmonovna

Termiz muhandislik-texnologiya instituti assistenti

Abdullayeva Mahliyo Jo'ra qizi

Termiz muhandislik-texnologiya instituti doktoranti

Kirish. Sholi poyasidan turli miqdordagi birikmalarni ajratib olish hisobiga sanoatda uning o'rnini oshirish mumkin. Ion suyuqligi yordamida qamish, payraha va kanaf hamda boshqa o'simliklar poyasidan birikmalarni ajratib olish imkoniyati mavjudligi aniqlangan. Sholi poyasi tarkibidagi sellulyozaning erish jarayoni molekular vodород bog'larini buzilishi bilan boradi. Lignin selluyulozali xom ashyosiga IS (ion suyuqligi) sharoitida ishlov berish ilmiy jihatdan asoslangan bo'lib, sanoat miqyosida qo'llash istiqbolli ahamiyatga ega. Buni amalga oshirish uchun IS sifatida dimetilsulfoksid karbamid qo'llanildi. Dimetil sulfoksid karbamid muhim bioparchalovchi erituvchi bo'lib boshqa vakillariga qaraganda zararli tomoni kamroq. Kuchli erituvchi sifatida sellullozani fraksiyalarga ajratishda yuqori samara berishi isbotlangan.

Sholi poyasi Surxondaryo viloyatining sholi etishtiradigan dalalaridan olindi. Ion suyuqligi sifatida dimetilsulfoksid karbamid ishlatildi. Ultratovush bilan ishlov berish haroratlar intervali 80-140°C bo'lganida va 5 dan 20 daqiqagacha ish chastotasi 45 kGs va quvvati 10, 30 va 50 Vt bo'lgan ultratovushli dispergator UZDN-2T yordamida amalga oshirilgan.

Sholi poyasi ion suyuqligida 5, 10, 15 daqiqa davomida 80, 110, 140°C haroratda 10, 30, 50 Vt ultratovushli nurlanishida uch xil sharoitda ishlov berildi. Hosil qilingan tabiiy polimerlar trifloroksis kislota yordamida gidroliz qilindi.

Olingan natijalarga qaraganda, ultratovushdan foydalanish mahsulot unumining ortishiga yordam beradi, hamda ishlov berish muddatini qisqartiradi. Sholi poyasini 100 °C da 15 daqiqa davomida 10 Vt quvvatda ultratovush bilan ishlov berilganida mahsulot chiqishi 52,6% ga erishildi, oddiy sharoitda 60 daqiqa davomida ishlov berilganida 43,1% ni tashkil qildi.

Ultratovush quvvatning 50 Vt ga oshirilsa bilan mahsulot unumi 63,1% gacha ko'tariladi. Ultratovush quvvatini 50 vt ga ortishi 15 daqiqa ichida gemitsellyuloza 6 % ga, lignin 10 % ga oshishi isbotlandi. Ultratovush bilan ishlov berishda lignin va gemitsellyuloza o'rtasidagi o'zaro bog'larlarining samarali uzilishiga bog'liq bo'ladi. Oddiy sharoitda ya'ni ultratovushsiz sholi poyasiga ishlov berish 7 soat ko'proq vaqt talab qilinadi. Demak ion suyuqligida sholi poyasini eritish uchun ultratovushdan foydalanish vaqtini 5-6 soatgacha tejash imkoniyatini beradi. Sholi poyasiga oddiy sharoitda 100°C da 1 soat davomida ishlov berishsa, 5,9 % atrofida lignin fraksiyaga ajraladi, agarda 10 Vt quvvatga ega ultratovushdan foydalanilsa 15 daqiqada 10% gacha oshadi. Trifloroksis kislota eritmasi bilan gidrolizlanishi mumkin bo'lgan tabiiy polimerlarning ulushi texnik selluloza (TS) fraksiyasi tarkibidagi massaning taxminan 64% ni tashkil qiladi. Gidrolizning monosaxaridlari tarkibida glyukoza, ksiloza va arabinozaning nisbatan yuqori miqdori qayd etilgan, fraksiyada gemitsellyuloza (GS)lar mavjudligidan dalolat beradi. Ksiloza va arabinoza GS fraksiyasida ikkinchisi asosiy monosaxaridlardir, chunki gidrolizat fraksiyasidagi glyukoza miqdori 5% dan oshmaydi. GS fraksiyasi tarkibida massaning 80% dan ko'prog'ini trifloroksis kislota eritmasi bilan gidrolizlanib arabinoza, ksiloza, glyukoza, mannoza va galaktoza hosil qiladigan tabiiy polimerlar tashkil qiladi.

1-jadval - 100°C (15 min, 50 Vt) ultratovushli issiqlik bilan ishlov berishdan so'ng ajratilgan polisaxarid fraksiyalarining gidrolizatlarini monosaxaridlarining tarkibi.

Fraksiya	Fraksiya rentabelligi %.	Monosaxaridlar, % og'irlik.				
		Arabinoza	Ksiloza	Mannoza	Galaktoza	Glyukoza
Fraksiya TS	63.6	5,90	27,30	0,44	2,09	24,10
Fraksiya GS	20.7	7,10	67,80	0,19	1,65	4,80

Jadvalda berilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki sholi poyasidan olingan polisaxaridlardan TS fraksiyasi 63,6% ni, GS fraksiyasi esa 20,7% ni tashkil qilgan. Polisaxaridlarning monosaxaridlarga parchalanish foizidan ko'rish mumkinki monosaxaridlarning yetakchi komponentlaridan biri ksiloza hisoblanib (27,30 va 67,80 %), bu gemitsellyuloza fraksiyalari tarkibidagi ksilanning ko'p miqdorda ekanligini taxmin qilishga imkon beradi.

Arabinozaning miqdori harorat va ishlov berish davomiyligiga bog'liq emas va 5,9 dan 7,2 % gacha oraliqda bo'ladi. Shunga o'xshash miqdor glyukozada uchraydi. Juda ham kam miqdorda galaktoza va mannoza ham aniqlangan.

Xulosa. Tadqiqot natijasida ultratovush quvvati 50 Vt da 15 daqiqa davomida 100°C da ishlov berilganda texnik selluloza, gemitsellyuloza va lignindan 71,2% gacha tozalangandi. Shu bilan birga fraksiyaning unumdorligi 47,5% ni tashkil etdi. Bunda shu narsa ma'lum bo'ldiki, dastlabki sholi poyasi tarkibidagi selluloza miqdori ham 47,5% atrofida tashkil qilgan bo'lsa

sholi poyasi tarkibidagi birikmalar ion suyuqligi yordamida ultratovush bilan ishlov berilganda 90% dan yuqori darajada mahsulot ajratib olingan.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Smuga-Kogut M, Walendzik B, Lewicka-Rataj K, Kogut T, Bychto L, Jachimowicz P, Cydzik-Kwiatkowska A. Application of Proton Ionic Liquid in the Process of Obtaining Bioethanol from Hemp Stalks. *Energies*. 2024; 17(4):972. <https://doi.org/10.3390/en17040972>
2. Джахангирова Г.З., Акбарова Н.А., Агзамова Н.А. Исследование растительных отходов в качестве источников энергии // *Universum: технические науки: электрон. научн. журн.* 2018. № 8 (53). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/6243> (дата обращения: 01.03.2024).
4. Aliqulova D.A., Urozov M.K., Durmanova S.S. [BMIM][Cl] muhitida sholi somoniga ultratovushli issiqlik bilan ishlov berish. *Journal of universal “Science research”*. Series Volume 2 Issue. 1.02.2023. 270-279 p.
5. Hakimov M., Siddiqov G‘., Rahmonberdieva R., Siddiqova A. Scutellaria cordifrons o‘simligi yer ustki qismining polisaxaridlari. *NamDU ilmiy axborotnomasi - Научный вестник НамГУ* 2018 yil 2-son 1-qism.

KIMYOVIY BIRIKMA BO‘LGAN ION SUYUQLIGI ISHTIROKIDA TABIIY POLIMERLARNING OLINISHI

*Aliqulova Diloram Abduraxmonovna, Durmanova Sayyora Soatovna
Termiz muhandislik-texnologiya instituti assistentlari*

Hozirgi vaqtda jahon miqyosida kimyo va biokimyo sanoatni rivojlantirishda mahalliy xom-ashyolardan zamonaviy texnologiyalar yordamida ekologik jihatdan toza holda tabiiy polimerlarni ajratib olish dolzarb vazifalardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi hududlarida har yili o‘rtacha 516,9 ming tonna sholi hosili olinadi. Bu ko‘rsatkich guruch hisobida 310 ming tonnani tashkil etadi.

Olingan guruch donining poyasiga massa nisbati 0,45:0,55 bo‘lsa, sholi ekilgan dalalarda sholi poyasidan qoladigan chiqindilar miqdori katta bo‘ladi. Ba‘zan dalalarni sholi poyalaridan tozalash uchun, sholi poyasini yoqib yuborishga ham to‘g‘ri kelgan, bu esa ekologiyaga jiddiy zarar etkazadi. Shuning uchun, bu sholi poyasi chiqindilaridan tabiiy polimerlarni ajratib olish orqali to‘liq foydalanish havo ifloslanishi muammolarini kamaytirishga ham yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda “2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436 sonli qarorida ekologik zararsiz, kam energiya sarflanadigan ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan.

Ishda foydalanilgan sholining mumsizlashtirilgan somonining namunalarida quyidagi komponentli tarkibga ega bo‘lgan: sellyuloza - 42,7; gemitsellyuloza - 30,4; lignin - 25,7%. Namunalarning kul miqdori 1,5 % ni tashkil qilgan [3]. Sholi poyasini parchalash uchun erituvchi sifatida ion suyuqligi dimetilsulfoksid karbamiddan, vaqt va haroratni tejash uchun ultratovushdan foydalanildi. Yuqori erituvchi sifatida dimetil sulfoksid karbamid ham sellyullozani fraksiyalarga ajratishda yuqori samara berishi isbotlangan. Yuqori quvvatli ultratovush sellyulozadagi vodorod bog‘larini parchalash va fraksiyalash uchun qo‘l keladi.

Tajribalarda o'rtacha o'lchami 0,5 mm dan kam bo'lmagan sholi poyasidan foydalanildi. Sholi poyasini 8 soat davomida etanol yordamida ekstraksiya qilinadi. Dimetilsulfoksid karbamid yordamida o'rtacha 80-110°C haroratda 4 soat vaqt davomida uzluksiz aralashtirilgan holda sholi poyasiga ishlov berildi. Sholi biomassasining hajmi ion suyuqligi massasiga 1:25 nisbatda olindi. Olib borilgan tajribada eritma tarkibidagi kerakli moddalarni cho'kmaga tushirish uchun eritma tarkibiga natriy gidroksiddan foydalanildi. Sellyuloza va erimay qolgan qattiq jismlarni alohida ajratib olish uchun qo'shimcha sifatida sentrifugadan ham foydalanildi. Cho'kmaga tushgan selluloza, gemisellyulozalar va lignin aralashmalarini biri biridan ajratish uchun 50 daqiqa davomida 50°C haroratda 1:50 nisbatda NaOH ning 3 % li eritmasi bilan ishlov berildi. Hosil bo'lgan eritmani fraksiyalash maqsadida yana sentriugalash jarayonidan o'tkazildi. Vakuumli distellyatsiya bilan pH 2 gacha HCl eritmasi yordamida tushirilgan va 75°C da 35 daqiqa davomida lignin cho'ktiriladi. Cho'ktirilgan lignin filtdan o'tkazilib, sentrifugalash yordamida suvsizlantirilib ajratiladi va xona haroratida 3 sutka davomida ushlab turiladi.

Ilmiy izlanishlar natijasida sholi poyasidan ion suyuqligida eritish va ultratovush bilan termik ishlov berish orqali texnik selluloza, lignin, gemisellyuloza ajratib olingan. Ultratovushsiz oddiy sharoitda 140° C va 2 soatda xom-ashyo tarkibidan texnik sellulozaning ajralishi 53,3% ni tashkil qildi. Ultratovush va ion suyuqligi sifatida dimetilsulfoksid karbamiddan foydalangan holatda 80-140 °C harorat oralig'ida, 30 Vt quvvatga ega ultratovush bilan ishlov berish bilan, 15 daqiqa davomida texnik sellulozaning ajralishi 74,2 % ga oshdi. 50 Vt quvvatdan foydalanganda bir xil vaqt davrida u 14,5% ga oshishi aniqlandi.

Lignin ajralishining past samaradorligi adabiyotlarda keltirilgan, bu esa lignin va polisaxaridlarning tarkibiy qismlari o'rtasida kovalent bog'lanishlar mavjudligi bilan izohlangan. Ultratovushsiz 100°C da 1 soat davomida lignin fraksiyasining chiqish unumi 25,9% bo'lsa, 10 Vt quvvatga ega ultratovushdan foydalanilganda, ligninning ajralishi 15 daqiqada 46,7% gacha oshadi va quvvat 50 Vt gacha ko'tarilganda - 57,8 % gacha oshadi.

Sholi poyasi mahsulotlaridan biri bo'lgan lignin fraksiyasidan sanoatning turli tarmoqlarida foydalanish imkoniyati mavjudligi aniqlandi. Neft sanoatida burg'ulash jarayonida juda katta ajralib chiqadigan issiqlikni eritma tarkibidagi stabilizator hamda burg'ulash eritmalarini chuqur qatlamlargacha yetib borishini ta'minlash maqsadida og'irlashtirgich sifatida burg'ulash qorishmalari uchun takomillashgan xususiyatlarga ega barit og'irlatgichlarini modifikatsiyalashda stabillovchi reagentlar hamda lignin asosli ishqor quyqasini ingibitor sifatida qayta ishlash texnologiyasida qo'llanildi. Burg'ulash qorishmalari uchun eng xarakterli ko'rsatkich - mutloq quruq KMS loy eritmasining suv yo'qotishi uning massa ulushi 0,75 sm³ daqiqa, ya'ni olingan lignin fraksiyasini neft va gaz qazib olishda burg'ulash qorishmalarini stabillovchi reagent - NaKMS tarkibida ingibitor sifatida tadqiq etish jarayonlar amalga oshirildi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436 sonli qarori.

2. Sholi poyasidan olingan selluloza asosidagi gidrogel kompozitsiyasining amaliy ahamiyati. Aliqulova D.A., Normamatov.N.D., Raximov M.S., Bobomurotov N.N. International Scientific Journal Science and Innovation Series A Volume 1 Issue 7.Fan va innovatsiyalar xalqaro ilmiy jurnali A seriyasi 2022 yil 7-soni.ISSN: 2181-3337 Impact Factor: 8.2. "Times New Roman." 15.10.2022 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7239751>

AZOT ATOMI SAQLAGAN ORGANIK REAGENT YORDAMIDA TEMIR (III) IONINI SPEKTROFOTOMETRIK ANIQLASH

Asrorova Zuxra Sarvar qizi, Yaxshieva Zuxra Ziyatovna

kimyo fanlari doktori, professor,

Madusmanova Nazira Kuchkarbayevna

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

Maqolada gossipolning azotli hosilasidan temir (+3) ionlari uchun reagent sifatida universal bufer eritmasidan foydalanildi. Metall ionlari bilan reaktivni kompleks hosil qilish uchun optimal sharoitlar tanlangan. Tashqi muhitdan kirishi mumkin bo'lgan ionlarning ta'siri o'rganildi. Suv namunalari tarkibidagi temir ionlarini tahlil qilishda ushbu reagent yordamida spektrofotometrik usuldan foydalanishning qator qulayliklari haqida aytib o'tilgan.


Kimyoviy tuzilishi va fiziologik ta'sirida o'ziga xos bo'lgan gossipol polifenol birikma bo'lib, o'simlik organlari tarkibida uchraydi. Shunday o'simliklardan biri g'o'za o'simligidir. Uning ko'pchilik qismlarida, xususan chigiti tarkibida gossipol va uning hosilalari ko'p miqdorda uchraydi va tanlangan reagentning tan narxi boshqa reagentlarga qaraganda arzonroq bo'lgani uchun tabiiy suv namunalari tahlil qilishda gossipolning azotli hosilasidan foydalanish iqtisodiy jihatdan ancha unumlidir. Shuningdek gossipol kuchli fiziologik ta'sirga ega pegmentsimon modda bo'lib, tibbiyotda va farmasevtikada antivirus va immunitetni rag'batlantiruvchi vositalar tayyorlashda keng qo'llaniladi [1].

Bugungi kunda tabiiy manbalar, ishlab chiqarish chiqindilari va oqava suvlardagi og'ir va nodir metallarni aniqlash va ajratish uchun tabiiy fiziologik faol moddalar asosida ekologik toza analitik reagentlar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kompleks hosil bo'lishning selektivligiga turli omillarning ta'sir qilish qonuniyatlarini fizik-kimyoviy tahlil qilish asosida selektiv (xususan, platina guruhi metallari uchun) ligandlarni tanlash dolzarb masalalardan biridir [2].

Ushbu ishning maqsadi gossipolning azotli hosilalari yordamida temir (III) ni aniqlashning tezkor, selektiv va yuqori sezgir spektrofotometrik usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot usullari. pH-metriya, spektrofotometriya, spektrofotometrik o'lchovlar yordamida to'g'ridan-to'g'ri miqdoriy aniqlash usullari.

Bu ishda temir (+3) kationi uchun sezgir reagent sifatida gossipolning azot saqlagan hosilasi ishlatilgan.




1-rasm. (4,4'-((1E,1'E)-(8,8'-diformal-1,1',6,6',7,7'-geksogidroksi-5,5'-diizopropil) tuzilishi 3,3'-dimetil-[2,2'-binaftalen]-4,4'-diyl) bis(diazen-2,1-diyl)) bis(4,1-fenilosulfonil)) natriy bis(asetilamid) (APG). Molekular formulasi: $C_{46}H_{42}N_6O_{14}S_2$, nisbiy molekulyar massasi 966 g/mol ga teng [3].

Eritmalarni tayyorlash: 0,010 M li temir (III)- xlorid eritmaları tuz namunalarini distillangan suvda eritib tayyorlandi. APG analitik reagentining dastlabki eritmasi reaktivning aniq tortilgan qismini asetonida eritib, oldindan suvli-aseton eritmasidan ikki marta kristallanish orqali tozalangan holda tayyorlangan va tekshirilgan [4].

Kimyoviy toza organik erituvchilar ishlatilgan. yoki ilgari distillash orqali tozalangan; tozaligi qaynash nuqtasi bilan nazorat qilingan.

Metall-Reagent kompleksi eritmalarining yutilish spektrlari UV/Vis spektrofotometri Optizen-III spektrofotometrda qayd etilgan. Eritmalarning kislotaligi pH metr yordamida nazorat qilindi.



2-rasm. Kompleks birikmaning optik zichligining (eritma muhitining pH ga) bog'liqligi grafigi. Kompleksning maksimal optik zichligi eritmaning tor pH diapazonida ($pH = 3,02$) kuzatiladi.

Molyar yutilish koeffitsienti hisoblab chiqilgan va Sendel sezuvchanligi aniqlangan [5-6]. Optimal sharoitda kalibrlash grafigi tuzildi, u 5-68 mkg/25 ml konsentratsiya oralig'ida chizildi (2-rasm).

O'tkazilgan sinovlar natijasida quyidagicha xulosalarga kelindi:

- APG yordamida temirni aniqlashning spektrofotometrik usuli o'rganildi va bu esa ushbu usulni takomillashtirish va yangi yanada zararsiz va kamchiqim usullarni yaratishda ijobiy omil bo'la oladi.

- reaktivni temir (+3) bilan komplekslash uchun optimal sharoitlar tanlangan.

Temir (+3) ionlarini ushbu spektrofotometrik aniqlash usulini bemalol tavsiya qilish mumkin, u ichimlik suvini tahlil qilishda qo'llanildi. APG yordamida temirni aniqlashning ishlab chiqilgan usuli sr 0,009 dan oshmaydigan yuqori selektivlik va takrorlanuvchanlik bilan tavsiflanadi va suv namunalarining tarkibini tahlil qilishni izohlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Вичканов С.А., Петерс В.В., Мартынова Р.Г. Изучение противовирусных свойств госсипола в эксперименте и клинике / Новые лекарственные препараты. 1983. №1. С. 2-5.
2. Синтез и строение азометиновых производных госсипола// Ҳақбердиев Ш. Молодой ученый// 2015.
3. Przybylski P., Bejcar G., Schroeder G., Brzezinski B. Complexes of Schiff base of gossypol with 5-hydroxy-3-oxapentylamine and some monovalent cations studied by ESI MS as well as PM5 semiempirical methods // Journal of Molecular Structure. -2003. -654 (1). –P.245–252.
4. Przybylski P., Schroeder G., Pankiewicz R., Brzezinski B., Bartl F. // Complexes of Schiff Base of Gossypol with nButylamine and Some Monovalent or Bivalent Cations Studied by ESI MS, NMR, FT-IR as Well as PM5 Semiempirical Methods, Ibid.. – 2003. Vol.658. – P.193–205.
5. Dechary J.M., Brown L.E. Substituted arylimine derivatives of gossypol // J.Amer. Oil Chem. Soc. -1956. –Vol. 33. –P.76-78.
6. Булатов М.И., Калинин И.П. Практическое руководство по фотокolorиметрическим и спектрофотометрическим методам анализа./ Л.: Химия, -1986. -317 стр.

OQOVA SUVLARNI TOZALASHNING MEXANIK USULLARI

Kuchkarova Noila Xusnitdinovna PhD, dotsent

Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali

Darxanova Sevinch Abduvoxidovna

Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali talabasi

Hozirgi kunda jahonning deyarli barcha mamlakatlarida aholi soni o'sib bormoqda. Aholi sonining o'sishi bilan ularning atrof-muxitga salbiy ta'siri, suvga bo'lgan talab ayniqsa, sanoat va qishloq xo'jaligining suvga bo'lgan ehtiyoji tobora ortib bormoqda. Suv hozirgi davridayoq jahon muammosiga aylandi. Agar kelajakda oziq-ovqat maxsulotlari, ayrim tugaydigan tabiiy resurslar va boshqa narsalar etishmasa, ular o'rnini boshqa usullar bilan yaratilgan maxsulotlar bosishi mumkin. Lekin suvning o'rnini boshqa biror bir narsa bosa olmaydi.[1]

Quyosh radiatsiyasi va iflos suvga toza suv kelib quyilishi natijasida suv qaytadan tozalanadi. Turli bakteriya, zamburug' va suv o'tlari suvni qayta tozalashda faol agentlardan hisoblanadi. Suv turli iflos moddalarga haddan tashqari to'yingan bo'lsa, u holda uni tozalash uchun turli mustaqil yoki kompleks usullardan foydalaniladi. Suv ta'minotining yopiq tizimini hosil qilish uchun sanoat oqova suvlari mexanik, kimyoviy, fizik-kimyoviy, biologik va termik tozalash usullari orqali korxona turiga qarab suvning zarur sifatiga qadar tozalanadi. Bundan tashqari, qayd qilingan usullar rekuperatsion va destruktiv usullarga bo'linadi. Rekuperatsion usullar oqova suv tarkibidagi barcha qimmatbaho moddalarni ajratib olib, so'ngra qayta ishlatishga qaratilgan. Destruktiv usulda suvni ifloslantiruvchi moddalardan oksidlash yoki qaytarish usullari yordamida parchalantiriladi. Parchalash mahsulotlari suvdan gaz yoki cho'kma ko'rinishida ajratib olinadi.

Tozalash usullarini tanlash quyidagi omillarni hisobga olgan holda olib boriladi:

1) qayta ishlatishni hisobga olgan holda tozalangan suvga qo'yiladigan sanitar va texnologik talablar;

2) oqova suv miqdori;

3) korxonada zararsizlantirish jarayoni uchun zarur bo'lgan energetik va moddiy resurslar miqdori (bug', yoqilg'i, siqilgan havo, elektr energiya, reagent, sorbentlar), shuningdek, tozalash qurilmasi va inshootlari uchun zarur maydon.

Sanoat va maishiy oqova suvlar tarkibida suvda eriydigan va erimaydigan moddalarning muallaq zarrachalari bo'ladi. Muallaq iflosliklar qattiq yoki suyuq bo'lib, dispers sistemani hosil qiladi.

Zarracha o'lchamlariga ko'ra dispers sistemalar 3 guruhga bo'linadi:

1) zarracha o'lchamlari 0,1 mkm dan yuqori bo'lgan dag'al dispers (suspensiya va emulsiyalar) sistemalar;

2) zarracha o'lchamlari 0,1 mkm dan 1 nm gacha bo'lgan kolloid sistemalar;

3) alohida molekula yoki ion o'lchamlariga mos keluvchi zarrachalari bo'lgan chin eritmalar.

Oqova suv tarkibidan muallaq zarrachalarni ajratib olish uchun gidromexanik jarayonlar, kolloid dispers sistemalar uchun fizik-kimyoviy, organik va anorganik eritmalarini ajratish uchun kimyoviy jarayonlardan foydalaniladi. Bu jarayonlarni tanlash zarracha o'lchamiga, fizik-kimyoviy xossasiga, ularning suvdagi konsentratsiyasiga, oqova suv sarfiga bog'liq.

Shuning uchun oqova suvlarni tozalashda quyidagi usullar qo'llaniladi:

1. Mexanik (suzish, tindirish, cho'ktirish, filtrlash, sentrifugalash va h.k.).

2. Fizik-kimyoviy (adsorblash, koagullash, flokullash, flotasiya, ion-almashinish, ekstraklash va h.k.).

3. Kimyoviy (neytrallash, oksidlanish, qaytarilish).

4. Biokimyoviy (aerob, anaerob sharoitlarda).

5. Termik (yuqori harorat ishtirokida).

Bu usullar ham o'z navbatida turli xildagi tozalash jarayonlariga bo'linadi. Oqova suvlarni tozalashda, birinchi navbatda, mexanik usuldan foydalaniladi.

Oqova suvlarni tozalashning mexanik usulida oqova suv tarkibidagi erimagan mineral va organik aralashmalar ajratib olinadi. Sanoat oqova suvlarini mexanik tozalashda fizik-kimyoviy, kimyoviy, biologik va termik usullardan birini qo'llab, suvni yuqori darajada tozalashga erishishga harakat qilinadi. Mexanik usullar bilan tozalash oqova suvlar tarkibidagi muallaq moddalarni 90-95% gacha ajratib olishda va organik ifloslanish ko'rsatkichi bo'yicha 20-25% gacha kamaytirishni ta'minlaydi.[2]

Mexanik tozalash usuliga suzish, tindirish, bir holatga keltirish, qattiq suzib yuruvchi zarrachalarni gidrosiklon yoki sentrifugal orqali tozalash kiradi. Ingichka dispersli qattiq zarrachalarni ushlab qolish uchun filtrlar qo'llaniladi. Mexanik tozalash inshootlarining u yoki bu jarayonini qo'llash oqova suvlar tarkibidagi aralashmalarining xususiyatiga, sifatiga, kerakli darajada chiqarib olish va ularni qayta ishlatilishiga qarab tanlanadi. Mexanik tozalash usulining inshootlariga quyidagilar: panjara, elak, qumushlagich, bir holatga keltirgich, tindirgichlar, yog', neft va saqich ushlagichlar, filtrlar, gidrosiklon va sentrifugal kiradi.[3]

Oqova suvni tozalashda diametri turlicha kattalikdagi panjaralar yordamida suzib olish, tindirish, tiniqlashtirish, filtrlash va sentrifugalash kabi jarayonlardan foydalaniladi. Suv tozalash inshootlarining hajmiy kattaligi, ularning turi asosan oqova suvning miqdori, tarkibi va xossalriga, shuningdek, suvga keyingi ishlov berish jarayonlariga bog'liq bo'ladi. Oqova suvni to'liq tindirish uchun to'rsimon barabanli filtrlar yoki mikrofiltrlar hamda yuqori bosimli filtrlar,

penopoliuretanli yoki penoplastli suzib yuruvchi filtrlar ishlatiladi. Bunda oqova suvlarni kimyoviy moddalarni qo‘llamasdan tozalanadi.

Oqova suvlarni muallaq zarrachalardan tozalash usulini tanlash jarayon kinetikasini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Sanoat oqova suvlaridagi muallaq zarrachalarning o‘lchami juda katta chegaralarda (zarrachalarning diametri $5 \cdot 10^{-9}$ dan $5 \cdot 10^{-4}$ m gacha) bo‘lishi mumkin. O‘lchami 10 mkm gacha bo‘lgan zarrachalar uchun oxirgi cho‘kish tezligi 10^{-2} sm/s dan kichik bo‘ladi.

Agar zarrachalar yirik bo‘lsa (diametri 30-50 mkm va undan katta), u holda Stoks qonuniga muvofiq ular tindiriladi (ixtiyoriy cho‘kish — gravitatsion kuchlar ta’sirida) yoki suzib olinadi. Shuni qayd etish lozimki, suv tarkibidagi aralashmalarning konsentratsiyasi ko‘p bo‘lsa tindiriladi, konsentratsiyasi kichik bo‘lsa, suzib olinadi.[2]

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Qodirova, D., A. Abdullayev, and M. Mirzabuvayev. "STUDY OF METHODS OF PURIFICATION AND PROCESSING OF WASTEWATER GENERATED AT INDUSTRIAL ENTERPRISES." *Science and Innovation* 1.4 (2022): 240-247.
2. S.M. Turobjonov, T.T. Tursunov, X.L. Pulatov, „Oqova suvlarni tozalash texnologiyasi“. Toshkent-2010, 152-b.
3. A.Djalilova, A.O. Xomidov, M.N. Abdukadirova, „Kanalizatsiya va oqova suvlarni tozalash“. Toshkent-2012, 195-b.

КЎМИРНИ БОЙИТИШ НАТИЖАСИДА ҲОСИЛ БЎЛАДИГАН ТЕХНОЛОГИК ЧИҚИНДИЛАРДАН РАНГЛИ ВА ҚОРА МЕТАЛЛАРНИ АЖРАТИБ ОЛИШ ЖАРАЁНИНИНГ ИЛМИЙ ТАҲЛИЛИ

¹Халилов Санжар Усмонович, ^{1,2}Кўчаров Азизбек Алишер ўғли

¹ЎзРФА Умумий ва ноорганик кимё институти докторанти, Тошкент, Ўзбекистон.

²Фармацевтика таълим ва тадқиқот институти, кафедра ассистенти, Тошкент, Ўзбекистон.

Илмий манбаъларда баъзи кўнғир ва тошқумир конларида рангли камёб ва нодир металллар мавжуд булиши келтириб ўтилган. Масалан кўмир таркибида 0,5г/т тоннагача олтин, 1,05г/т кумуш, 65г/т мис, 44,5 г/т никел, 88г/т кобальт шунингдек, 25г/т германий, скандий, 5г/т рений каби камёб иеталлар аниқланганлиги келтирилган. Қаттиқ ёқилғилар сланец, торф, кумир таркибидан нодир, рангли ва қора металлларни ажратиб олиш учун куйидаги ҳолатларга эътибор бериш талаб қилинади: рангли металлларни заррачаларини ажратиб олиш кўмирнинг турига боғлиқлигига; кўмирнинг саклаш шароитига; жараённинг ҳароратига боғлиқ бўлади [1]. Илик ёки сув билан ҳўлланган кумир таркибидан камёб металллар тезроқ ажралади. Маълумки вақт утиши билан кўмир таркиби ўзгариб туради. Шу сабабдан кумир таркибидан олиш учун иложи борица дастлабки ҳолатидан фойдаланиш самарали бўлади [2]. Шунингдек рангли ва нодир металллар ёнувчи қаттиқ сланецлар таркибида ҳам учрайди. Ўзбекистон Республикасининг жанубий вилоятларида углеродли ёнувчи сланецларнинг захираси анчагинани ташкил этади унинг таркибида Рений 5г/т; молибден (0,164%), ванадий (0,45%), кадмий (0,13%), селен (0,007%), индий (10-5%), кобальт, медь, цинк, вольфрам, скандий (50 г/т), ташкил қилади.

Кўпчилик кўнғир кўмирлар витринит гуруҳининг микрокомпонентларидан (80–98%), фусинит гуруҳининг микрокомпонентлари (45–82%) фақат Ўрта Осиёнинг юра даври кўнғир кўмирларида устунлик қилади; Баъзи конларда кўнғир кўмирлар 50-75% мумларни ўз ичига олган бензол экстрактивнинг (5-15%) юқори ҳосилини беради ва уран ва германийнинг кўпайишига эга.



1-Расм. Оғир металлларнинг тупроққа таъсир механизми

Кўмирнинг морфологияси текширилганда элемент таркибида оғир металл ҳисобланган Вольфрам борлиги маълум бўлди. Кўмир таркибидаги вольфрамнинг миқдори 0.80% бўлиб, оғир металнинг оз миқдори ҳам тупроқ, ўсимлик ва табиий экотизимга зарарли таъсир кўрсатади.


Хавфли оғир металллар О'зДСт 17.4.1.02-83 давлатлараро стандартига кўра хавфлилиги бўйича қуйидаги 3 гуруҳга бўлинади.

- юқори хавфли даражали элементлар - As, Cd, Hg, Se, Pb, Zn;
- ўртача хавфли даражали элементлар - Co, Ni, Mo, Cu, Cr, Sb;
- кучсиз хавфли даражали элементлар - Ba, V, W, Mn, Sr;
- хавфлилик даражаси аниқланмаган элементлар - Ge, Sn, Ce, La, Bi, Y, Rb, Cs. Ушбу давлатлараро О'зДСт да кўмир таркибидаги W кучсиз хавфли даражали элементлар гуруҳига кириши маълум бўлди. Оғир металллар тупроқ, флора ва фауна дунёси, шунингдек сувда яшовчи жониворлар ҳаёти ва инсон саломатлиги учун заҳарли ҳисобланади.

P.A. Tashbayeva

Ўзбекистон Миллий Университети Тупроқшунослик кафедраси
магистрантнинг ёзма асосда тайёрландиТўқ тусли бўз тупроқларнинг ифлосланиш
ҳолати

Ифлословчи моддалар	намуна-1 (ppm)	намуна-2 (ppm)
Ti	2600	2800
Fe	37000	31000
Zr	95	94
In	0.073	0.110
W	65	5.2
Pt	<0.05	<0.05
Au	<0.05	<0.05



2-расм. Кўмир таркибидаг

Оғир металллар асосий микробил жараёнларга таъсир қилиш орқали тупроқ биотасига токсик таъсир кўрсатади ва тупроқдаги микроорганизмларининг сони ва фаоллигини камайтиради. Оғир металлларнинг паст концентрацияси ҳам ўсимликнинг физиологик метаболизмига ёмон таъсир қилиши мумкин. Оғир металлларнинг ўсимликлар томонидан ўзлаштирилиши ва кейинчалик озиқ-овқат занжири бўйлаб тўпланиши ҳайвонлар ва инсон саломатлиги учун потенциал таҳдид ҳисобланади.

Кўмирнинг атроф-муҳитга таъсирини юмшатишнинг асосий стратегияси электр станцияларининг энергия самарадорлигини ошириш ва кўмирнинг сифатини оширишдан иборат. Кўмир ва кўмир чиқиндилари (тутун ва кул қатлам) мишьяк, қўрғошин, симоб, никел, ванадий, бериллий, кадмий, барий, хром, мис, молибден, рух, селен, радий каби 20 га яқин токсик моддаларни чиқаради. Улар атроф-муҳитга чиқарилганда хавфли ҳисобланади. Ушбу моддалар аралашма таркибида микро элемент ҳолатида бўлсада, кўп микдорда кўмир ёқилганда, бу моддалар ҳам катта микдори чиқарилади. Агар 100 тонна 2БР-Б2 ва 2БОМСШ-Б2 маркали Ангрен қўнғир кўмири ёқилса, 60 тоннасигача чиқинди кўмир кули сифатида қолади. Кўмирни бойитиш жараёнида қўл таркибидаги кўплаб токсик элементлардан тозаланади. Демак, бойитилган кўмрдан фойдаланиш экологик жихатдан ҳам самарали ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Султонов, Садулла. "Нордон газлардан олтингугурт ажратиб олиш учун кўмирни бойитиш натижасида ҳосил бўладиган технологик чиқиндилар асосида катализатор олиш технологиясини ишлаб чиқишнинг илмий асослари." *The Journal of Research and Development* 1.3 (2024): 29-34.

2. Yusupov, Farxod, et al. "Development and study of adsorption properties of a new sulfur polyvinyl chloride cation exchanger for water treatment." *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science*. Vol. 1231. No. 1. IOP Publishing, 2023.

BENZOLNING NEFTKIMYOVIIY SINTEZDA QO'LLANILISHI

Sunatullayeva Sevara Ahmadjon qizi

Karimova Feruza Sattarovna

Jizzax politexnika instituti, Jizzax shahar, O'zbekiston

Aromatik birikmalar sanoatda muhim rol tutadi. Eng muhim uglevodorodlar qatoriga benzol, toluol, orto-ksilol va para-ksilol kiradi. Har yili dunyoda 35 million tonnaga yaqin aromatik birikmalar ishlab chiqariladi. Ular neftni qayta ishlash yoki ko'mir smolasini distillash orqali murakkab aralashmalardan olinadi. Ushbu birikmalardan stirol, fenol, anilin, polyester va neylon kabi muhim kimyoviy moddalar va polimerlar ishlab chiqariladi.

Dunyo miqyosida energetik xom-ashyoga bo'lgan talabning ortishi bilan asosiy yetkazib beruvchilar o'rtasida konlar hamda neft va gaz transportirovkasi yo'nalishlarini boshqarish uchun raqobat avj olib boradi. Uglevodorod yetkazib beruvchi mamlakatlarning birlashish harakatlari va energetika siyosati koordinatsiyasi ushbu tendensiyalarga o'ziga xos javob bo'lib xizmat qiladi [1]. Mamlakat iqtisodiyotining muhim bo'g'iniga aylangan gazni qayta ishlash sanoati polimer ishlab chiqarishni jadallashtirish bilan bir qatorda O'zbekiston ekologik toza energoresurslar ishlatiladigan kelajak sari oltin yo'lini belgilovchi, tozalangan metan gazidan sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqarish.

Benzolning xavf-xatarlari orasida atrof-muhitning ifloslanishi va juda yuqori konsentratsiyalarda portlash xavfi mavjud. Ushbu modda odamlar uchun zararli- uzoq vaqt ta'sir qilishdan keyin u kanserogen ta'sir ko'rsatadi va bug'larning inhalatsiyasiga olib kelishi mumkin.

Benzol bilan zaharlanish. Benzol tabiiy muhitda paydo bo'lsa-da, biz u bilan sanoat sharoitida yoki uni o'z ichiga olgan kimyoviy mahsulotlar bilan aloqa qilganda uning organizmga toksik ta'siriga duch kelamiz. Suyuq benzol va uning bug'lari odamlar uchun zaharli hisoblanadi.

Bugungi kunda kimyo sanoati xalq xo'jaligining muhim ehtiyojlari uchun beqiyos xizmat qiluvchi -uglevodorod, mineral va boshqa xomashyolardan kimyoviy qayta ishlash bilan mahsulot ishlab chiqaruvchi sanoat tarmog'i bo'lib, iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan sohasi hisoblanadi.

Organik sintez sanoatining xomashyo bazasi alohida mamlakatlar va mintaqalarning yoqilg'i-energetika balansini tuzilishi bilan uzviy bog'liqdir! Ushbu balansda ko'mirning paydo bo'lishi o'z vaqtida kokskimyoviy zavodlarda kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishda va atsetilen olishda xomashyo bazasini shakllantirdi.

Tobora taraqqiy etayotgan kimyo sanoati bir necha tarmoqlarga bo'lingan bo'lib, ular orasida asosiy organik va neft-kimyoviy sintez sanoati muhim o'rin tutadi.

Benzolning asosiy tabiiy manbalari xom neft va ko'mir smolalaridir. Benzol emissiyasi xom neftni qayta ishlash jarayonlarida, kimyo sanoatida, shuningdek, neft va ko'mirni yoqish jarayonida kuzatiladi. Bu shuni anglatadiki, benzol masalan, avtomobil chiqindisi va sigaret tutunida ajralib chiqadi. Shuningdek, u ba'zi kimyoviy mahsulotlarning bug'larida chiqariladi.

Benzolni yuvish vositalari, pestitsidlar, qatronlar, bo'yoqlar, yopishtiruvchi moddalar va mebel yoki pollar uchun pastalarda topish mumkin.

Benzolning tavsifli xususiyatlardan yana biri shuni aytish joizki, benzol yuqori temperaturaga chidamligidir. Benzol kimyo sanoatining muhim mahsulotlaridan hisoblanadi. Benzol to'yinmagan birikma xususiyatlarini namoyon qiladigan birikish reaksiyalariga juda qiyin kirishadi. Ularning sodir bo'lishi uchun mahsus sharoit, yuqori temperatura va bosim, katalizator, yoru'lik nuri ta'sir ettirish talab qilinadi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki kimyo sanoatida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish. Asosiy yo'llari (uning ahamiyatini pasaytirish tartibida) quyidagilardan iborat: resurs tejamkorlik xomashyodan maqsadli foydalanish kerak, mahsulotning rentabelligini oshirish kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. C. A. Gaybullayev, B.J.Tursunov Влиянда октанового показателя бензина на количественное содержание бензола 2019 г.
2. G'aybullayev S.A. Membranali usulda tabiiy gazlardan geliy ajratib olish 2012-yil.

СРАВНЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ТРАДИЦИОННЫХ МИНЕРАЛЬНЫХ И БЕНТОНИТСОДЕРЖАЩИХ УДОБРЕНИЙ

Рахмонов А.Х., Мячина О.В., Ким Р.Н., Мамасалиева Л.Э.,

Нарзуллаев О.С., Пулатов Б.А., Исаев Г.Я., Буриева С.А.

(Институт общей и неорганической химии АН РУз, Ташкент)

Формирование урожая и биомассы растений является сложным физиологическим процессом, при котором задействованы все составляющие системы растительного организма. Кроме того, рост и развитие растений напрямую зависит от взаимосвязи с окружающей средой – воздухом, почвой, водой, что соответственно, позволяет растениям удовлетворять потребности организма в свете, влаге, питательных элементах, факторах роста и др. Следует отметить, что генетический потенциал растений наиболее полно проявляется при получении полноценного питания, что возможно при внесении удобрений с содержанием всех необходимых элементов. Важно, что удобрения являются не только питательным ресурсом и энергетическим «зарядом», но и несут в себе протекторную функцию, обеспечивая защиту растений от неблагоприятных условий во все периоды развития.

Минеральные удобрения, состоящие из необходимого, доступного резерва макроэлементов может быть именно таким ресурсом для растений.

В качестве объектов исследований были использованы азотные и фосфорные удобрения, модифицированные бентонитом Новбахорского месторождения: бентонитсодержащая аммиачная селитра (БАС), бентонитсодержащий аммофос (БАМ), с составом приведенного в таблице ниже.

Бентонитсодержащие азотные и фосфорные удобрения были исследованы на культуре хлопчатника (*Gossypium hirsutum*), сорта «Акдарья-6» в вегетационных экспериментах. Средняя урожайность хлопка-сырца растений данного сорта - 38,1 - 44,5 ц/га, вегетационный период 117 - 128 дней.

Состав удобрений, модифицированных бентонитом

Удобрение	Бенто - нит, %	N, %	P _{общ} , %	Ca O общ, %	Al ₂ O ₃ , %	Fe ₂ O ₃ , %	MgO , %	SiO ₂ , %	SO ₃ , %	K ₂ O , %	Na ₂ O , %	Прочн · гранул , МПа
Бентонит - содержаща я аммиачная селитра БАС	15	28, 9	-	0,6 2	1,9	0,7	0,3	6,5	0,1 9	0,3	0,3	4,77
Бентонит- содержащи й аммофос БАМ	20	8,6 5	38, 5	0,5	1,4	0,6	0,15	5,6	0,1 2	0,2	0,3	7,50
Аммиачная селитра		33. 0										1,6
Аммофос		10. 0	46. 0	38. 0								>3

Эффективность бентонитсодержащих удобрений сравнивали с минеральными традиционными удобрениями NPK - аммиачной селитрой, и аммофосом, и внесены из расчета N₇P₅K_{3,5} на 1 сосуд. Исследование влияния новых бентонитсодержащих удобрений проводили в вегетационном опыте на типичном сероземе (Calcisol), имеющем низкое содержание валовых форм азота, фосфора и калия (0,0043; 0,13; 2.03%) и подвижных форм N-NO₃; P₂O₅; K₂O (10,6; 18,0; 115 мг/кг, соответственно).

В вегетационном эксперименте 2017 года, рост и развитие растений отслеживались по основным фазам развития: в фазе проростков, 3-4 настоящих листьев, бутонизации, цветении, цветении-плодообразовании, начале созревания и массовом созревании. Сравнение роста и развития вегетирующих растений хлопчатника при применении традиционных NPK и бентонитсодержащих удобрений оценивали по следующим характеристикам: рост главного стебля, количество симподиальных, т.е. плодоносящих ветвей, и количество цветков, плодов, коробочек, количество урожая хлопка-сырца.

Исследованиями установлено, что в фазе 3-4 настоящих листьев испытуемые варианты по показателю высоты растений были выше контроля NPK на 1,5-1,75 см, а в фазе бутонизации на 3,5-4 см. Однако в фазе начала бутонизации бентонитсодержащие удобрения создали условия для более интенсивного формирования симподиальных ветвей, так на испытуемых растениях количество их было на 7-8,5%, а в фазе начала цветения - на 12-25%, и к фазе созревания - на 15-20% больше контроля NPK, что отразилось на формировании плодоеlementов - цветков и плодов. Так, в фазе созревания на растениях, удобренных БАС и БАМ, количество полноценных коробочек на одном

растении составляло 20,2 и 20,4 штук, тогда как на контроле NPK- 19,0 штуки (что она 6-8 % меньше).

Раскрытие коробочек происходило быстрее в варианте с применением NPK, и масса хлопка-сырца, собранного при первом сборе, составила 62,5 г (т.е. 58,3% от общего урожая). Тогда как в вариантах с БАС в первом сборе было 70,22 г (56,8% от общего урожая), и несколько меньше в варианте с БАМ - 66,70 г (65,9% от общего урожая). В целом в варианте с NPK было собрано 107,27 г хлопка-сырца с 1 растения; с БАС – 123,53 г; с БАМ – 117,39 г, что соответствует 15,1 и 9,3% дополнительного урожая в вариантах с БАС и БАМ. Следует отметить также увеличение на 18-12% крупности коробочек в вариантах с новыми минеральными удобрениями.

Особый интерес представляет вопрос о влиянии бентонитсодержащих удобрений на агрохимический режим почвы, в том числе на изменения содержания органического вещества и подвижных форм макроэлементов.




Рисунок. Динамика изменения подвижных питательных веществ (NPK) в почве в течение вегетации хлопчатника при внесении азотных и фосфорных удобрений, модифицированных бентонитом, мг/кг

Установлено, что за всю вегетацию растений хлопчатника содержание гумуса достоверно увеличилось: в варианте с БАС на 13,9%; с БАМ на 11,8%, тогда как в контроле с минеральными удобрениями незначительно - на 5,6%.

Важно, что применение бентонитсодержащих удобрений способствовало существенному накоплению подвижных форм азота на 56,5-73,5%, фосфора на 55,0-48,8% и калия на 17,4-13,0% больше, чем в исходной ранневесенней почве (рисунок).

Таким образом, установлено, что применение бентонитсодержащих удобрений способствовало оптимизации агрохимических процессов в почве, роста и развития растений хлопчатника. При средней урожайности сорта хлопчатника «Акдарья-6» 38,1-44,5 ц/га, благоприятных климатических условиях и рекомендованной агротехнике, применение БАС и БАМ позволит получить дополнительно 4,32-6,22 центнера хлопка-сырца с одного гектара посевной площади.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Тунгушова Д.А., Абдурахмонов С.О., Белоусов Е.М. "Бентонит лойқасининг ғўзанинг ўсиши, ривожланиши ва ҳосилдорлигига таъсири" //Халқаро илмий амалий конференция. Т.: 2004, Б.156-159
2. Мячина О.В., Алиев А.Т., Ким Р.Н., Попова О.И., Рахмонов А.Х "Влияние бентонитсодержащих удобрений на содержание общего и подвижного азота в почве." Органик дехқончиликнинг институционал масалалари: ҳолати ва истиқболлари. Илмий – амалий семинар. -15-17 июнь 2017 йил, Тошкент, 2017. С. 205-208.
3. Слесарова Л.Н., Нуждин А.А., Ризаев Р., Тунгушова Д.А., Кириченко А.А. «Республикада ноанъанавий агрорудалардан қишлоқ хўжалигида фойдаланишнинг техник иқтисодий самарадорлиги» // Тавсиянома, -Т.: 2002, Б.3-10

COLORIMETRIC DETERMINATION OF LEAD IN SURKHANDARYA WATERS

¹Yuldosheva S.G, ²Jumayeva Z.E, ³Ashurova M.Sh.

^{1,2,3}Termez State University, Barkamol Avlod Street 43, Termez, Uzbekistan,

¹Department of Medical and Biological Chemistry, Termiz branch of the Tashkent Medical Academy

Annotatsiya: Dizel yoqilg'isi uchun tutunga qarshi qo'shimchalarning sintezi dizel dvigatellarining ekologik xususiyatlarini yaxshilashning asosiy jihati hisoblanadi. Ushbu qo'shimchalar chiqindi gazlar darajasini pasaytirishi, yonishni yaxshilashi va dvigatelning ishlash muddatini uzaytirishi mumkin. Maqolada dizel yoqilg'isi uchun tutunga qarshi qo'shimchalar sintezining asosiy usuli va jarayoni ko'rib chiqilgan.

Tutunga qarshi qo'shimchalar-bu dvigatel yoki chiqindi gazlarning tutunini kamaytirish yoki oldini olish uchun yoqilg'i yoki moylash materiallariga qo'shiladigan moddalar. Ular avtomobillarda, mototsikllarda, kemalarda, generatorlarda va boshqa ichki yonish dvigatellarida ishlatilishi mumkin. Tutunga qarshi qo'shimchalar chiqindi gazlardagi xamirturushsiz uglevodorodlar miqdorini kamaytirish va azot oksidi chiqindilarini kamaytirish orqali

yoqilg'ining yanada samarali yonishini ta'minlaydi. Ular, shuningdek, atrof-muhit ko'rsatkichlarini yaxshilashga va dvigatelning ishlash muddatini uzaytirishga yordam beradi.

Dizel yoqilg'isining tutunga qarshi qo'shimchalari dizel yoqilg'isi yoqilganda zararli moddalar va kuyishni kamaytirish uchun mo'ljallangan maxsus qo'shimchalardir. Ular yonish sifatini yaxshilaydi, ifloslantiruvchi chiqindilarni kamaytiradi va dvigatelning samaradorligini oshiradi.

Tutunga qarshi qo'shimchalar turli xil tarkibiy qismlarni o'z ichiga olishi mumkin, masalan, dispersant va tozalovchi qo'shimchalar, antioksidantlar, korroziyaga qarshi vositalar va kuyish, tutun hosil qilmasdan yoqilg'ining yonishiga yordam beradigan boshqa moddalar.

Dizel yoki avtomobilning yonilg'i uchun tutungi qarshi qo'shimchalarni o'rganish uchun sintez usullaridan biri, polimerizatsiya usuli bo'lib, kimiyo sintezda polimer materiallar yaratishda qo'llaniladi. Bu usulda, monomerlar (tutun qarshiliklar) polimer molekulalarga aylanadi va ular orqali polimer materiallar (plastiklar) hosil qilinadi. Polimerizatsiya jarayoni chet elda yuqori sifatli plastiklar ishlab chiqarishning eng mashhur usullaridan biridir.

Dizel yoqilg'isiga tutunga qarshi qo'shimchalardan foydalanish transport vositalarining atrof-muhitga zararli ta'sirini kamaytiradi, shuningdek dvigatelning ishlash muddatini oshiradi va yoqilg'i sarfini kamaytiradi.

Dizel yoqilg'isining tutunga qarshi qo'shimchalari dizel dvigatellarida yoqilg'i yoqilganda zararli chiqindilar va issiqxona gazlari miqdorini kamaytirishga yordam beradigan maxsus qo'shimchalardir. Ushbu qo'shimchalar tutunga qarshi xususiyatlarga ega, yoqilg'ining yonish sifatini yaxshilaydi, chiqindi gazlarning toksikligini pasaytiradi va dvigatelda uglerod birikmasini kamaytiradi.

Dizel yoqilg'isiga tutunga qarshi qo'shimchalar sintezining asosiy tarkibiy qismlari maxsus kimyoviy birikmalar, metall katalizatorlar, dispersantlar va boshqalarni o'z ichiga olishi mumkin. Ushbu komponentlar yoqilg'i bilan o'zaro ta'sir qiladi va yoqilg'ining samarali yonishiga yordam beradigan va zararli moddalarning chiqarilishini kamaytiradigan barqaror birikmalar hosil qiladi.

Dizel yoqilg'isiga tutunga qarshi qo'shimchalarning sintezi komponentlarning optimal nisbatlarini ta'minlash va egzozni kamaytirishda eng yaxshi natijalarga erishish uchun keng qamrovli tadqiqotlar va sinovlarni talab qiladi. Bunday qo'shimchalar dizel yoqilg'isini ishlab chiqarishda ham, dvigatelda ishlatishdan oldin mavjud yoqilg'iga qo'shilishi mumkin.

Dizel yoqilg'isiga tutunga qarshi qo'shimchalarni sintez qilish uchun turli xil kimyoviy birikmalar va qo'shimchalardan foydalanish mumkin. Masalan, oksidlanishga qarshi vositalar, korroziyaga qarshi qo'shimchalar, tutunga qarshi qo'shimchalar va ko'pikka qarshi vositalardan foydalanish mumkin.

Tutunga qarshi qo'shimchalarni sintez qilish uchun dizel yoqilg'isi sifatini yaxshilashga va uning zararli chiqindilarini kamaytirishga yordam beradigan maxsus katalizatorlar va reaktivlardan foydalanish mumkin. Bunday qo'shimchalar yoqilg'ining yonishini yaxshilashga, chiqindi gazlardagi tutun va kuyish miqdorini kamaytirishga va dvigatelning ishlash muddatini uzaytirishga yordam beradi.

Samarali tutunga qarshi qo'shimchalar dizel yoqilg'isiga yaxshi mos kelishi, harorat va bosimga yaxshi qarshilik ko'rsatishi va ekologik toza bo'lishi kerak.

Tutunga qarshi qo'shimchalarning sintezi ulardan foydalanish samaradorligi va xavfsizligini ta'minlash uchun kimyoviy tadqiqotlar va testlar to'plamini talab qiladi.

Dizel yoqilg'isiga tutunga qarshi qo'shimchalarni sintez qilishning asosiy vazifasi kuyindi tarkibini kamaytiradigan va dizel dvigatellarining chiqindi gazlarining ekologik xususiyatlarini yaxshilaydigan samarali birikmalarni yaratishdir. Buning uchun nafaqat qo'shimchaning tutunga qarshi kurashda samaradorligini, balki uning dvigatel ishiga ta'sirini, oksidlanishga chidamliligini, shuningdek yoqilg'i sifati standartlariga muvofiqligini ham hisobga olish kerak.

Qo'shimchalarni sintez qilish jarayonida ularning kimyoviy tarkibi va tuzilishi maksimal samaradorlik va atrof-muhitga minimal zararli ta'sirga erishish uchun ehtiyotkorlik bilan optimallashtirilishi kerak. Bunday qo'shimchalarni ishlab chiqishda muhim jihati ularning dizel yoqilg'isi komponentlari bilan o'zaro ta'sirini o'rganish va eng yaxshi natijalarga erishish uchun optimal nisbatlar va konsentratsiyalarni aniqlashdir.

Dizel yoqilg'isiga tutunga qarshi qo'shimchalarni sintez qilish nafaqat kimyoviy sintezni, balki har xil turdagi dvigatellar va turli xil ish sharoitlarida samaradorlikni sinchkovlik bilan tekshirish va tahlil qilishni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Faqat shu tarzda dizel dvigatellarining ekologik ko'rsatkichlarini yaxshilaydigan va ularning atrof-muhitga zararli ta'sirini kamaytiradigan yuqori sifatli qo'shimchalarni ishlab chiqish va ishlab chiqarishni ta'minlash mumkin.

Asosiy sintez usuli:

1. Hidrogenizatsiya: vodorodning uglevodorodlarga qo'shilishi jarayoni, bu yonish nuqtasi xususiyatlarini oshiradi va yoqilg'i yonganda tutun hosil bo'lishini kamaytiradi.

2. Oksidlanish.

3. Aralashtirish usullari: optimal xususiyatlarga ega qo'shimchalarni ishlab chiqarish uchun turli xil kimyoviy reaksiyalar kombinatsiyasidan foydalanish.

Qo'shimchani qo'llash:

Ishlab chiqarish joyida dizel yoqilg'isiga tutunga qarshi qo'shimchalar qo'shiladi. Yallig'lanishga qarshi dizel yoqilg'isi qo'shimchalarini sintez qilish zamonaviy avtomobil va sanoat texnologiyasida muhim rol o'ynaydi. Ushbu qo'shimchalar nafaqat dizel dvigatellarining atrof-muhitga ta'sirini kamaytirishga yordam beradi, balki ularning samaradorligi va ish faoliyatini yaxshilaydi. Mahalliy tadqiqotlar yanada samarali va ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqishga olib kelishi mumkin.

Dizel yoqilg'isi uchun qo'shimchalardan foydalanish, dizel yoqilg'isi qo'shiladigan qo'shimchalariga talab katta. Qo'yilayotgan talab bilan soxta narsalarni sotib olish ehtimoli kuchaymoqda. Yorliqda ishlab chiqaruvchi haqidagi barcha kerakli ma'lumotlar bo'lishi kerak. Shuningdek, sotuvchi sifat sertifikatiga ega bo'lishi kerak. Soxta mahsulotlar bozor narxlaridan 40 foizga arzonroq. Qo'shimchalardan foydalanish jarayonida ishlab chiqaruvchining ko'rsatmalariga qat'iy rioya qilish kerak. Qo'shimchaning konsentratsiyasiga e'tibor berish kerak. Haddan tashqari konsentratsiya dizel yoqilg'isi sifatini oshirmaydi. Qo'shimchalarni doimiy ravishda emas, balki vaqti-vaqti bilan ishlatish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S. Turobjonov, M. Shoyusupova, B. Abidov. Moylar va maxsus suyuqliklar texnologiyasi. Darslik. Toshkent - "Aloqachi"-2010.

2. Данилов В.Ф. и др. Масла, смазки и специальные жидкости. Учебное пособия. Елабуга: изд-во филиала К(П)ФУ.2013.

3. Смирнов А. В. Масла, смазки и специальные жидкости. Применение ГСМ: Учеб. пособие / Нов ГУ им. Ярослава Мудрого. – Великий Новгород, 2004.

4. Speight J., Exall D.I. Refining Used Lubricating Oils. (Очистка Использованных смазочных масел). CRC Press, Taylor & Francis Group, 2014. XVI. (eBook – PDF) - (Chemical Industries).

5. Khan M.R. (ed.) Advances in Clean Hydrocarbon Fuel Processing: Science and technology. (Достижения в области очистки чистого углеводородного топлива наука и техника). Woodhead Publishing, 2011.

ВЛИЯНИЕ БАКТЕРИАЛЬНОЙ КОРРОЗИИ НА НЕФТЕГАЗОВОГО ОБОРУДОВАНИЯ

Анорбоев Жамшид Собир угли

Джизакский политехнический институт Магистр

Рашидова Нилуфар Тулкиновна

Джизакский политехнический институт Кафедра химическая технология

Doctor of Philosophy, доцент rashidovanilufar1975@gmail.com

Нефтегазодобывающая промышленность, как ключевой игрок в мировой энергетике, сталкивается с вызовами, требующими инновационных решений для обеспечения надежной и эффективной эксплуатации. Одним из серьезных технологических вызовов является проблема бактериальной коррозии в нефтегазодобывающем оборудовании. Этот процесс, инициированный микроорганизмами, может привести к существенным повреждениям металлических компонентов, угрожая стабильности производства и требуя значительных затрат на ремонт и обслуживание.

В данной статье мы проведем глубокий анализ факторов, способствующих бактериальной коррозии, и рассмотрим существующие методы борьбы с этим явлением. Далее мы обсудим перспективные инновационные подходы, направленные на совершенствование методов предотвращения и управления бактериальной коррозией в нефтегазодобывающем оборудовании. Путем изучения современных технологий и перспективных направлений исследований, мы стремимся выявить пути для повышения эффективности и долговечности нефтегазового оборудования в условиях борьбы с бактериальной коррозией.[1]

Бактериальная коррозия, являясь сложным процессом, требует внимательного рассмотрения своих источников и факторов, которые способствуют её развитию в нефтегазодобывающем оборудовании.

1. Воздействие химических соединений.

Бактерии, обитающие в окружающей среде нефтегазодобывающих предприятий, вырабатывают различные химические соединения. Эти вещества, такие как кислоты и сероводород, могут создавать агрессивные условия для металлических поверхностей, инициируя процессы коррозии.

2. Окружающие условия и параметры

Климатические и экологические особенности месторождения играют важную роль в развитии бактериальной коррозии. Температурные колебания, влажность, а также химический состав почвы и воды могут значительно влиять на активность микроорганизмов, обладающих коррозионной активностью.

Существующие методы борьбы с бактериальной коррозией. Борьба с бактериальной коррозией в нефтегазодобывающем оборудовании представляет собой сложную задачу, требующую комплексного подхода. Существует ряд методов и технологий, направленных на предотвращение и управление этим процессом.

1.Биоциды и антимикробные вещества

В качестве одного из основных методов предотвращения роста бактерий используются биоциды и антимикробные вещества. Эти химические соединения применяются для уничтожения или ингибирования развития микроорганизмов, что в свою очередь снижает вероятность бактериальной коррозии. Однако, несмотря на свою эффективность, применение биоцидов может иметь ограниченный срок действия, требуя регулярного внесения.

2.Антикоррозионные покрытия

Антикоррозионные покрытия представляют собой ещё один важный метод защиты металлических поверхностей от бактериальной коррозии. Эти покрытия создают защитный барьер между металлом и внешней средой, предотвращая проникновение влаги и агрессивных химических соединений. Применение антикоррозионных покрытий также способствует увеличению срока службы оборудования.

3.Контроль за химическим составом воды

Регулярный мониторинг и контроль за химическим составом воды в системах нефтегазодобычи являются ключевыми мероприятиями. Снижение содержания вредных веществ и поддержание оптимального химического баланса способствует предотвращению развития бактерий и, следовательно, уменьшению риска коррозии.

4. Ультразвуковая очистка и озонирование

Использование ультразвуковых методов очистки и озонирования воды также является эффективным способом предотвращения размножения бактерий. Эти технологии способствуют разрушению биопленок и уменьшению концентрации микроорганизмов в системах [2].

Основные методы защиты нефтепромышленного оборудования от коррозии делятся на: • химические – применение химических реагентов; • физические – применение коррозионностойких материалов, защитных покрытий, анодная защита; • технологические – ограничение водопритока, снижение температуры жидкости, снижение скорости потока, предотвращение попадания кислорода и пр. [3].

Основным агрессивным агентом, резко усиливающим разрушение конструкций, является присутствующий в добываемой нефти сероводород - продукт жизнедеятельности сульфатвосстанавливающих бактерий, развивающихся в пластовых флюидах нефти на поздней стадии развития. По степени агрессивного воздействия на коррозионный процесс и разнообразию форм проявления его разрушительного действия сероводород является наиболее опасным из всех известных стимуляторов коррозии. В присутствии сероводорода происходит проникновение атомов водорода в металл, что снижает его механическую прочность [4]. Появляющиеся в результате коррозии сульфиды железа различных структурных форм осаждаются на поверхности железа и образуют на металле макрогальванические пары «железо -сульфид», в которых первое является анодом и ускоренно разрушается.

К заражению бактериями со временем также приводит интенсивное применение пресной воды на объектах нефтегазодобычи в процессе поддержания пластового давления, что сопровождается и появлением растворенного кислорода там, где ранее этот агрессивный агент отсутствовал. Наличие и рост микроорганизмов в системе «пласт - скважина - оборудование» вызывает ряд проблем при добыче нефти [5]. К основным из них относятся: коррозия оборудования, снижение приемистости скважин, ухудшение фильтрационных характеристик пород, уменьшение нефтеотдачи пластов за счет закупорки коллектора скоплениями живых и мертвых бактериальных клеток и продуктов их жизнедеятельности - осадки кальция, серы, магния, железа; слизь и полисахаридные биообразования.

Современные технологии исследований также направлены на разработку более инновационных методов борьбы с бактериальной коррозией, таких как применение наноматериалов и генной инженерии. Однако, в настоящее время, комбинирование вышеупомянутых методов остается эффективным подходом для поддержания интегритета нефтегазодобывающего оборудования [3].

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ

1. Коррозия нефтегазового и нефтепромыслового оборудования. Учебное пособие / И.Г. Абдуллин, С.Н. Давыдов, М.А. Худяков, М.В. Кузнецов. – Уфа, 1990.
2. Повышение коррозионной надежности газоперерабатывающих комплексов ПНГ / Н.Д. Войтех, Ю.А. Журавлев - ОАО «НИПИгазопереработка, 2011.
3. Ивановский В.Н. Коррозия скважинного оборудования и способы защиты от неё / В.Н. Ивановский // Коррозия «Территория НЕФТЕГАЗ». – 2011. - №1. – С. 18-25.
4. Шангареев И.Р. Оценка скорости коррозии образцов-свидетелей в скважинных условиях / И.Р. Шангареев, Р.А. Дмитриев, А.М. Со-зонов, А.И. Маланин, Р.В. Авершин // Нефтяное хозяйство. 2013. № 8. С. 108-110.
5. Баранов А.Н. Электрохимические методы очистки сточных вод промышленных предприятий // Вестник ИрГТУ. 2007. Т. 29, № 1. С. 13-14.

КОМПОЗИЦИОН ТАРКИБЛИ АДСОРБЕНТ БИЛАН ОҚОВА СУВЛАРДАГИ ОҒИР МЕТАЛЛ ИОНЛАРИНИ ТОЗАЛАШ УСУЛЛАРИ.

Д.Б.Саидмирзаев таджикотчи ЖизПИ,

Ш.С.Абдурасулов талаба ЖизПИ.

saidmirzayevadilnoza89@gmail.com

Аннотация

Оқова сувларни оғир металл ионларидан тозалашнинг энг афзал ва техник-иктисодий жиҳатдан қулай усули сорбцияловчи материаллардан фойдаланишдир. Бу усулдан катта миқдорларда тоза сувни ишлатадиган саноат корхоналари шароитида фойдаланиш муҳим роль ўйнайди.

Маиший-ҳўжалик, ишлаб чиқариш ва атмосферанинг оқова сувларини сув хавзаларига ташлашдан олдин. уларни турли қўшимчалардан тозалаш, миқдорларини давлат экология стандарти талабларигача камайтириш ва имкон даражасида тўлиқ

ажратиб олиш зарурияти мавжуд. Бунда маҳаллий ҳом ашёлар ва саноат чиқиндилари асосида яратилган ва ютиб олиш хоссалари мавжуд бўлган сорбцияловчи материалларни ишлаб чиқиш муҳим аҳамият касб этади.

Жиззах аккумулятор заводининг ротор печларидан кунига 3,5-4,0 тоннагача чиқинди ротор шлаклари ҳосил бўлиб, мазкур ротор шлакларини йиғилиб бориши маълум даражада экологик муаммоларни келтириб чиқаради, чунки бу саноат чиқиндиси атроф-муҳит муҳофазасини асраш талаблари кўрсаткичларига кўра III-IV-синфга тааллуқли хавфни келтириб чиқариши мумкин. Мана шу ҳолатларни эътиборга олиб ротор шлакини утилизация қилиш масаласи долзарб вазифа ҳисобланади.

Таркибида оғир металл ионлари (Fe, Cu, Zn, Cr) бўлган оқова сувларни РШ асосида яратилган композицион таркибли сорбентлар КТС билан тоза-лаш ўрганилди.

Калит сўзлар: Металл ионлари, сорбцияловчи материаллар, саноат чиқиндилари, ютиб олиш хоссалари, ротор шлаклари, экологик муаммолар, композицион таркибли, ферритлаш.

Annotation

The most preferred and economically feasible method of cleaning wastewater from heavy metal ions is the use of sorbent materials. The use of this method plays an important role in industrial enterprises that use large amounts of clean water.

Before dumping domestic, industrial and atmospheric wastewater into water bodies, there is a need to clean them from various additives, reduce their amount to the requirements of the state ecological standard, and completely isolate them as much as possible. In this case, the development of sorbent materials created on the basis of local raw materials and industrial waste and having absorption properties is of great importance.

3.5-4.0 tons of waste rotor slag per day are generated from the rotor furnaces of Jizzakh battery plant, and the accumulation of this rotor slag causes environmental problems to a certain extent, because this industrial waste belongs to class III-IV according to the indicators of environmental protection requirements. may cause danger. Taking into account these circumstances, the disposal of rotor slag is considered an urgent task.

Key words: Metal ions, sorbent materials, industrial waste, absorption properties, rotor slag, environmental problems, composite composition, ferritization.

Ҳозирги кунда саноат ишлаб чиқариш технологияларини тараққий этиши, такомиллашиб турли маҳсулотлар ишлаб чиқариш даражасини ортиши туфайли, сув ресурслари таркибида турли қўшимчаларни, шу жумладан, оғир металл ионларининг мавжуд бўлиши кузатилмоқда. Шу сабабли бу хилдаги ионларни сув таркибидан ажратиб олиш бўйича тўпланган кўп йиллик тажрибалар маълумлигига қарамасдан ушбу муаммо ҳамон тўлиқ охиригача ечилмай қолаяпти.

Маиший-хўжалик, ишлаб чиқариш ва атмосферанинг оқова сувларини сув хавзаларига ташлашдан олдин. уларни турли қўшимчалардан тозалаш, микдорларини давлат экология стандарти талабларигача камайтириш ва имкон даражасида тўлиқ ажратиб олиш зарурияти мавжуд. Бунда маҳаллий ҳом ашёлар ва саноат чиқиндилари асосида яратилган ва ютиб олиш хоссалари мавжуд бўлган сорбцияловчи материалларни ишлаб чиқиш муҳим аҳамиятга эгадир.


Ўзбекистон Республикасининг Жиззах вилоятидаги Жиззах аккумулятор заводининг ишлаб чиқариш шароитида ротор печларидан кунига 3,5-4,0 тоннагача чиқинди ротор шлаклари ҳосил бўлади. Мазкур ротор шлакларини ҳосил бўлиши ва йиғилиб бориши маълум даражада атроф муҳит учун экологик муаммоларни келтириб чиқаради, чунки бу саноат чиқиндиси шу йўналишдаги талаблари кўрсаткичларига кўра III-IV-синфга тааллуқли хавфни келтириб чиқариши мумкин. Мана шу ҳолатларни эътиборга олиб ротор шлакини утилизация қилиш масаласи долзарб вазифа ҳисобланади.

Таркибида оғир металл ионлари (Fe, Cu, Zn, Cr) бўлган оқова сувларни РШ асосида яратилган композицион таркибли сорбентлар КТС билан тоза-лаш ўрганилди.

Дастлаб ротор шлакли (РШ) нинг таркиби рентгенфлуоресцентли усул билан UR-2600 маркадаги спектрофотометрда (SHIMADZU фирмаси, Япо-ния) аниқланди. Намлиги 5-8% ни ташкил қилган қаттиқ ҳолдаги РШ да 30,0 % -Fe (II), 15,0 %-Na, 5,0 %-Si, 2,0 %-Pb (II) ҳамда оз миқдорларда, Cu, Mn, Sb, Mo, Zn, Ag, Cr ионлари мавжудлиги аниқланди. РШ таркибидаги Fe^{2+} ионларни борлиги улар ёрдамида магнетит ва ферритларни олиш имконини берди. Олинган моддалар сувда умуман эримади, концентранган HCL да бирозгина эрийди.

Термик усул ёрдамида РШ билан олинган ФРШ лар шпинел струк-турали хилдалиги аниқланди. Ротор шлакини юқорида қайд этилган иккала усулда ферритлаш жараёни асосида яратилган КТС сорбентлар ўткир учли кристаллар шаклида бўлиши ва юзи сиртларида актив марказлар мавжудлиги топилди.

Ротор шлакини ферритлаш жараёни куйидаги кимёвий реакцияга мувофиқ амалга оширилди.




Феррит - $MeOFe_2O_3$ ларни ҳосил бўлиши ишқорий муҳитда 70-85⁰С ҳарорат остида гидротермал шароитларда амалга ошади. Ферритларни олишда термик усуллардан ҳам қўлланилди. Ҳосил бўлган КТСлар майда дисперслик ҳолатида бўлиб тўқ кўнғир рангдадир (1-расм). РШ асосида олинган ферритларнинг сирт юзасида актив марказларнинг мавжудлиги спектрофотометрик усул билан SHIMADZU фирмаси (Япония) UV-2600 маркали спектрофотометридан фойдаланилди.

Турли тузилишдаги ноорганик ва органик моддаларни сувли эритмалардан адсорбция қилиш жараёни ютувчи сорбентларнинг сирт юзасини табиати ва ғовакликлиги даражасига боғлиқ ҳолда содир бўлади. Мана шулардан келиб чиққан ҳолда маҳаллий ҳом ашёлар ва саноат чиқиндиларидан фойдаланиб композицион таркибли янги турдаги адсорбентларни яратиш, уларнинг морфологияси ва молекуляр тузилиши, физик-кимёвий хоссалари ҳамда сорбцион механизмларни замонавий таҳлил усуллари асосида ўрганилди. Оқова сувлар таркибидаги оғир металл ионларини (Fe (II)), Fe (III), Cu, Ni, Zn, Cr) ферритлаштирилган ротор шлаки асосидаги (ФРШ) адсорбентлари билан таъсирланиши аввал статик усулда олиб борилди ва бунда сорбент массасига нисбатан эритмани ҳажми 1:100, 1:150 ва 1:200 ни, заррачалар ўлчами -0,3 :0,4 мм ни, жараён ҳарорати 293К ни ҳамда реакцион аралашмани аралаштириш тезлиги 400-450 айл. мин. ни ташкил қилди.

Тажрибалар учун қўлланилган янги КТС билан Cu(II), Fe (II, III) ва Zn(II) ионларини сорбциялаш жараёнининг термодинамик кўрсаткичларини (ΔH , ΔS , ΔG) аниқлаш учун синов ишлари 293, 298 ва 303 К ҳароратларда ўтказилди.

Олиб борилган тадқиқот тажрибалари натижасида Жиззах аккумулятор заводининг ротор шлаки (РШ) чиқиндисини ферритлаш (термик усул) орқали яратилган композицион таркибли сорбцияловчи материаллар (ФРШт) оқова сувлар таркибидаги оғир металл ионларини (Ni, Cu, Cr, Fe) ва нефть маҳсулотларини олиш мумкинлиги аниқланди. РШнинг таркибида Fe^{2+} ионларининг мавжуд бўлиши, улар ёрдамида магнетит ва ферритларни олиш мумкинлигини кўрсатди.



5-расм. Ҳарорат 293 К бўлганида Fe (II, III) ва Cu (II) ионларини ФРШ асосида яратилган КТСМ билан адсорбцияланишида $1/A = f(1/C_{\text{мувоз}})$ боғлиқ эгрилари: 1- Fe (II,) ва Fe (III), 2- Cu (II) учун.

РШ билан термик усулда олинган КТС материаллари кристаллари ўткир учли шаклда бўлиши ва шпинел структурали хилда эканлиги аниқланди. ФРШ асосида ишлаб чиқилган КТС материал оқова сувлар таркибидаги оғир металл ионларини, жумладан, $Fe^{2+}; Fe^{3+}$ ни -98,3% га, $Cu(II)$ ни 96,4% га, $Ni(II)$ ни 91,0% га, $Zn(II)$ ни 92,3% гача ажратиб бериши топилди.

ФРШ асосида яратилган композицион таркибли адсорбентлар, оғир металл ионларини аралаш диффузияланиш режимида сорбция қилиши, жараёнини активланиш энергиялари қийматлари орқали ифода қилинди ва бунда ички диффузияланиш адсорбцияланишда етакчи ўрин тутиши ва бундай механизмда адсорбцияланишни бориши КТСларни таркиби ҳамда тузилиши билан боғлиқлиги кўрсатиб берилди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Д.А.Хандамов, Ш.П.Нуруллаев, Р.Ж.Ешметов. Адсорбентлар, адсорбция жараёнлари кинетикаси ва термодинамикаси. Дарслик, Т., Тафаккур томчилари, 2021.
2. Теплая Г.А. Тяжелые металлы как фактор загрязнения окружающей среды (обзор литературы) / Г.А. Теплая // Астраханский вестник экологического образования. -2013. №1.
3. Нуруллаев Ш.П., Рузметов И., Саидмирзаева Д.С., Сорбционные материалы с использованием роторных шлаков и применение их для очистки воды, М., - Научный журнал: Universum: технические науки, № 2, 2020.
4. Саидмирзаева Д.Б., Нуруллаев Ш.П., Алиханова З.С., Рузметов И. Адсорбенты для выделения ионов тяжелых металлов Cu^{2+} , Ni^{2+} , Zn^{2+} из промышленных сточных вод. Журнал Композиционные материалы, 01/2023.

5. Очистка промышленных сточных вод от ионов тяжелых металлов/Патент РФ, №2525902МПКС02F1/62., заявл.14.03.2013. №- 2013111556/05 опубл. 20.08.2014, Бюл. №.

METALLARDA GAZ KORROZIYASINING KINETIKASI

¹Rahimov Bobomurod Rustamovich, ²Xamroyeva Laylo Raxmatullayevna

¹Buxoro muhandislik - texnologiya instituti "Neft-gaz ishi" kafedrası dotsenti ²Buxoro muhandislik - texnologiya instituti "Neft-gaz ishi" kafedrası assistenti

Korroziya jarayonlar qaysidir ko'rsatkichlarining vaqt bo'yicha o'zgarishini o'rganish orqali korroziya tezligini miqdoran aniqlash mumkin.

Korroziya jarayonlarini o'rganishda quyidagi ko'rsatkichlar eng ko'p foydalaniladi:

- korroziya mahsulotlaridan hosil bo'lgan plyonka qalinligining o'zgarishi (chuqurlik ko'rsatkichi K_p , mm/yil);
- namuna metall massasining o'zgarishi (massa ko'rsatkichi $K_m^{\pm}$, g/(m²·soat);
- metallning korroziyalanish jarayonida yutilgan yoki ajralgan gaz hajmi (K_v , sm³/(sm²·soat);

Kinetika jarayonini o'rganishda jarayonning tanlangan ko'rsatkichi bilan vaqt orasidagi funksional bog'lanish topiladi:

$$KO'RSATKICH = f(\tau)$$

Hosil qilingan ifoda kinetik tenglama deyiladi. Gaz korroziyasi tezligi ko'pincha oksid plyonkaning o'sish tezligi orqali ifodalanadi:

$$v = \frac{dh}{d\tau} \quad (1.1)$$

bu yerda v jarayon tezligi; h — oksid plyonka qalinligi; τ — jarayonning davomiyligi.

Plyonka qalinligining vaqt bo'yicha o'sish tezligi uchun (4.1) bog'lanish-ning bir necha ko'rinishlari mavjud. Ulardan eng asosiyalarini qisqacha ko'rib o'tamiz.

Plyonka o'sishining chiziqli qonuni.


Plyonka zich va yaxlit bo'lmagan ($\frac{V_{ok}}{V_{Me}} < 1$), himoyalovchi qatlam hosil qilmagan hamda oksidlovchi gaz undan bemalol metall sirtiga o'tib, u bilan kimyoviy reaksiyaga kirishadigan holni ko'ramiz. Bunday jarayonni sxematik tarzda 4.1-rasmda ko'rsatilgandek tasvirlash mumkin.

Bunday holda reaksiya tezligi plyonkaning qalinligiga bog'liq emas va u quyidagi ifodadan aniqlanishi mumkin:

$$v = \frac{dh}{d\tau} = k_c C_o \quad (1.2)$$

bu yerda h — metalldagi plyonkaning qalinligi; τ — metallning korroziyalanish vaqti; k_c — kimyoviy reaksiya tezligining doimiysi; C_o — metall sirtidagi oksidlovchining konsentratsiyasi. Bu differensial tenglamani h ga nisbatan integrallab, quyidagi tenglamani olamiz:

$$h = K_1 \tau + A_h \quad (1.3)$$



1.1-rasm. Metallda g'ovak oksid plyonkaning hosil bo'lish sxemasi.


bunda $K_I = k_c C_o$ – oksidlovchining berilgan konsentratsiyasi uchun doimiy bo'lgan kattalik; A_h – son qiymat jihatdan tajribadan oldingi plyonkaning qalinligiga teng bo'lgan kattalik.

Ko'plab tajribalar shuni ko'rsatadiki, A_h ning qiymati nolga juda yaqin. Shu sababli (1.3) tenglamani quyidagi sodda ko'rinishda yozish mumkin:

$$h = K_I \tau \quad (1.4)$$

Shunday qilib, g'ovak (himoya vazifasini o'tamaydigan) plyonkaning o'sishi kimyoviy oksidlanish reaksiyasining tezligi bilan boshqarilib (kinetik boshqaruv), vaqt bo'yicha chiziqli qonuniyat asosida kechadi.

Chiziqli qonun ishqoriy va ishqoriy-yer metallarining havoda yuqori haroratli oksidlanishida kuzatiladi. Shuningdek, bu holat osidlari yuqori haroratda avjiydigan metallar (masalan volfram, molibden) da ham kuzatiladi. Misol tariqasida magniy oksidlanishining eksperimental chiziqlari 1.2-rasmida keltirilgan.



1.2-rasm. Turli haroratlarda magniyning kislorodda oksidlanishi

Fodalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Семёнова И.В, Флорианович Г.М, Хорошилов А.В, Коррозия и защита от коррозии.— М. Физматлит, 2002, 336 с.
2. Н.К.Кофанова. Коррозия и защита металлов. Киев, Алчевск, 2003. 181 с.1.
3. Бондар В.И. Коррозия и защита материалов. Мариуполь. 2009, 131 с.
4. Do‘stov H.B. “Korroziyadan himoya qilish”—Buxoro,-Durdona Nashriyot.2019

KORROZIYANING LOKAL KO‘RINISHLARI TAHLILI

¹Rahimov Bobomurod Rustamovich, ²Yaxyoyev Javohirbek Jamshid o‘g‘li

¹Buxoro muhandislik - texnologiya instituti “Neft-gaz ishi” kafedrası dotsenti ²Buxoro muhandislik - texnologiya instituti 208-22NGI guruh talabasi

Korroziyaning lokal ko‘rinishlariga pitting, yarali, tirqishli, kristallararo, selektiv buzilish va kontakt korroziyalari kiradi.

Lokal korroziya jarayonlarining ajralib turadigan tomonlaridan biri shuki, ular tomonidan metall konstruksiyalar sirtining kichik qismi yemiriladi. Bo‘ joylarda metallning erish tezligi asosiy sirt ulishidagiga nisbatan yetarli darajada katta bo‘ladi. Lokal korroziya o‘chog‘ining metall ichiga kirib borish tezligi yiliga o‘nlab santimetr gacha yetishi mumkin. Ko‘pgina lokal korroziya jarayonlari (selektiv erish va kontakt korroziya-sidan tashqari) ehtimolli xarakterga ega. Bayon etilgan qirralar umumiy bo‘lsada, ular lokal korroziya jarayonlari mexanizmining o‘ziga xos tomonlarini to‘la ochib bera olmaydi. Lokal korroziya jarayonlari mexanizmini o‘rganishda kuzatiladigan o‘xshashliklar metallar korroziyasi nazariyasi uchun juda muhimdir.

Barcha lokal korroziya jarayonlari ko‘pincha ketma-ket, bir-biridan keyin keladigan bir necha bosqichlardan iborat bo‘lib, har birining o‘z limitlovchi jarayoni bo‘ladi.

Bu bosqichlarning eng asosiylari quyidagilardir:


- korroziya tekis borishining buzilishi boshlanadigan va lokal korroziya o‘chog‘larining statsionar rivojlanish jarayoniga o‘tishiga mos keladigan boshlanish (yuzaga kelish) bosqichi; bosqich yetarlicha uzoq davomiylikka ega bo‘lib, u induksion davr τ_{ind} deyiladi.
- metalldagi lokal faollashgan qismlarning katastrofik tezlikda yemirilishi amalga oshadigan, lokal korroziya o‘chog‘ining barqaror faoliyat ko‘rsatish bosqichi;
- faollikning (rivojlanishning) yakunlanish—lokal korroziya o‘chog‘larining tuzalish (repaktivatsiya) bosqichi.

Lokal korroziya jarayonlarining rivojlanishida ko‘pincha bir ko‘ri-nishdan boshqasiga o‘tish hollari kuzatiladi. Masalan, yarali, tirqishli, kristallararo va yana bir qator korrozion–charchash jarayonlari yoki kuchlanish ostidagi statik, korrozion–mexanik buzilishlarning rivojlanishi ko‘pincha pitting korroziyasidan boshlanadi. Pitting korroziyasiga o‘xshash yemirilishlar metall sirti yassiligining buzilish va turli xildagi qoplamalarning qo‘porilish joylarida paydo bo‘ladi va rivojlanadi.

Pitting korroziyasi (PK) lokal korroziyalar orasidagi eng xavfli hisoblanadi. Passivlashadigan ko‘pgina metallar (Fe, Ni, Co, Mn, Cr, Ti, Al, Mg, Zr, Nb, Ta, Si, Zn va b.) va ular asosidagi qotishmalar hamda konstruksion materiallar bunday korroziyaga moyildirlar.

Pitting korroziyasi dengiz suvlari, tuzli eritmalar, sovutgichlarning sovitish tizimlari va kimyoviy sanoat korxonalari jihozlarida uchraydi. “Pitting” iborasi nafaqat nuqtaviy korroziyani, balki o‘ziga xos ko‘pgina korrozion jarohatlarni (1-rasm) tavsiflash uchun ham qo‘llaniladi.

Pitting atamasi odatda chuqur nuqtaviy jarohatlarni izohlash uchun ishlatiladi. Hosil bo‘lish va rivojlanish sharoitlariga ko‘ra (harorat, kislotalilik, eritmaning kimyoviy tarkibi) pittinglar shakli va ko‘rinishi jihatidan xilma-xildir. Ular yarimsferik, silindrsimon, poliedrik,



1-rasm. 03X18N11markali zanglamaydigan po‘lat sirtidagi yirik pitting.

Kattalashtirish: $a - \times 300$; $b - \times 1000$; $v - \times 8000$;

ochiq, yopiq, qirrali va h.k. bo‘lishi mumkin. Pittinglarning ichki sirtida passiv holat va faol erish sohalari bo‘ladi. Maslan, kislotali eritmalaridagi temir va nikel uchun pitting tubi va namunaning passiv sirti orasidagi potentsiallar farqi 1V gacha yetishi mumkin.

Silliqlangan deb ataluvchi pittinglar yarimsferik shaklda bo‘ladi. Ularning ichki sirti yaltiroq bo‘lib, strukturaga, erishga bog‘liq bo‘lmagan izotrop va mexanizmi bo‘yicha elektr silliqlashga yaqin ekanligidan dalolat beradi. Bunday pittinglar temir, zanglamaydigan po‘lat, alyuminiy, tantalda va nikel, titan, kobalt asosidagi qotishmalarda kuzatilgan.

Qirrali (kristallografik) va noto‘g‘ri shaklli (turli orientirdagi metallning donalarida anizotrop o‘sadigan) pittinglar ko‘p hollarda buzilgan bo‘ladi. Ular temirda, uglerodli, past legirlangan va zanglamaydigan po‘latlarda shuningdek nikel, alyuminiy, rux, xromda kuzatilgan.

Ko‘pincha yirik (yarimsferik) pittinglar juda ko‘p mayda kristallo-grafik pittinglarning qo‘shilishidan hosil bo‘ladi (1-rasm).

Fodalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Семёнова И.В, Флорианович Г.М, Хорошилов А.В, Коррозия и защита от коррозии.– М. Физматлит, 2002, 336 с.
2. Н.К.Кофанова. Коррозия и защита металлов. Киев, Алчевск, 2003. 181 с.1.
3. Бондар В.И. Коррозия и защита материалов. Мариуполь. 2009, 131 с.
4. Do‘stov H.B. “Korroziyadan himoya qilish”–Buxoro,-Durdona Nashriyot.2019

KORROZIYANI OLDINI OLISH UCHUN INGIBITORLARNI QO‘LLASH

¹Rahimov Bobomurod Rustamovich, ²Axmadjonov Ilhomjon Luhmonovich

¹Buxoro muhandislik - texnologiya instituti “Neft-gaz ishi” kafedrasi dotsenti

²Qo‘qon davlat pedagogika instituti kimyo kafedrasida katta o‘qituvchisi

Korroziya ingibitorlari deb, korroziya sistemasida yetarlicha konsentratsiyada bo‘lib, istalgan korrozion agentning konsentratsiyasini o‘zgartirmagan holda korroziya tezligini kamaytiruvchi kimyoviy birikmalarga aytiladi. Korroziyaga berilgan ushbu ta’rif ISO 8044-1986 xalqaro standart talablariga mosdir. Korroziya ingibitorlari kimyoviy birikmalarning kompozitsiyalaridan ham tashkil topgan bo‘lishi mumkin. Ingibitorlarning korrozion muhitdagi miqdori imkoni boricha kam bo‘lishi lozim.

Ingibitorlarning samaradorligi himoyalash darajasi Z (%) larda) va tormozlash koeffitsienti γ (ingibitorli effekt) bilan aniqlanadi:

$$Z = \frac{K_1 - K_2}{K_1} \cdot 100 = \frac{i_1 - i_2}{i_1} \cdot 100 \quad (1)$$

bu yerda K_1 va K_2 [g/(m²·soat)] – mos ravishda metallning ingibitorsiz va ingibitorli muhitlardagi erish tezliklari; i_1 va i_2 – mos ravishda metallning ingibitorsiz va ingibitorli muhitlarda erishidagi tok zichliklari; Metall to‘la himoyalanganda Z koeffitsient 100 % ga teng bo‘ladi.

Tormozlash koeffitsienti ingibitor ta’sirida korroziya tezligi necha marta kamayganligini ko‘rsatadi

$$\gamma = \frac{K_1}{K_2} = \frac{i_1}{i_2} \quad (2)$$

Z va γ o‘zaro quyidagicha bog‘langan:

$$Z = \left(1 - \frac{1}{\gamma}\right) \cdot 100 \quad \text{yoki} \quad \gamma = \frac{1}{1 - Z/100}$$

Ingibitorlarni quyidagicha sinflash mumkin:

- ta’sir qilish mexanizmi bo‘yicha – katodli, anodli va aralash;
- kimyoviy tabiatiga ko‘ra – noorganik, organik va uchuvchan;
- ta’sir doirasiga ko‘ra – kislotali, ishqorli va neytral muhitlarda;

Ingibitorlarning ta’siri – ingibitor adsorbsiyasi tufayli metall sirtining holatini o‘zgartirish yoki metall kationlari bilan qiyin eriydigan birikmalar hosil qilishga asoslangan. Ingibitorlar yordamida hosil qilinadigan himoya qatlamining qalinligi boshqa usullarda yopishtiriladigan qoplamalardan doimo ancha yupqadir.

Ingibitorlar ikki yo‘l bilan ta’sir qilishi mumkin:

- faol qatlam yuzasini kamaytirish;
- korroziya jarayonining aktivatsiya energiyasini o‘zgartirish.


Ingibitorning adsorbsiyalanishi natijasida qo‘sh elektr qavat strukturasi, shuningdek adsorbsion potensial ψ_2 sakrashining o‘zgarishi yuz beradi. Yuzaning bir qismini (Θ) plyonka bilan ekranlash orqali ingibitor uni $(1-\Theta)$ yuzada kechadigan korroziya jarayonidan bartaraf etadi.

Ingibitorlarning korroziya jarayonida ishtirok etgan va qatnashmagan hollaridagi korroziya tezliklarini solishtirish orqali ularning ta’sirini baholash yoki samaradorligini aniqlash mumkin.

Qutblanish (anod va katod) egriliklarini chizish – ingibitorlarning ta’sir mehanizmini o‘rganish usullaridan biri hisoblanadi. 18.1-rasmda kislotali muhitdagi korroziya jarayoni uchun shunday egriliklar keltirilgan.

Korroziya jarayonining biror bosqichini ingibitor orqali tormozlash qutblanishning kuchayishiga olib keladi. Ingibitorning ta’sir effekti qancha kuchli bo‘lsa, tegishli qutblanish

egriligining qiyaligi shuncha tik bo'ladi. 1-rasmda ingibitorli va ingibitorsiz kislotali eritmadagi katod (K) va anod (A) qutblanish egrikliklari yarimlogarifmik koordinatalarda keltirilgan. Qutblanish egrikliklarining chiziqli (Tafel) qismlarini ekstrapolyatsiyalash E_{kor1} va E_{kor2} korroziya potentsiallarini hamda i_{kor1} va i_{kor2} korroziya tezliklarini aniqlash imkonini beradi. Bu kattaliklarni taqqoslash shuni ko'rsatadiki, ingibitorli eritmada E_{kor} yanada musbatroq tomonga siljiydi, korroziya tezligi esa kamayadi. Korroziya tezliklarining qiymatlari i_{kor1} va i_{kor2} ni bilgan holda ingibitorlarning effektivligini baholash, shuningdek himoyalash darajasi Z va tormozlash koeffitsienti γ ning qiymatlarini aniqlash mumkin.



1-rasm. Ingibitor ta'sirining Effektivligini tushuntiruvchi qutblanish chiziqlari. A_1 va A_2 – anod qutblanish egrikliklari; K_1 va K_2 – katod qutblanish egrikliklari; K_1 va A_1 – ingibitor bo'lmagan hamda K_2 va A_2 – ingibitorli jarayonlar.

Fodalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Семёнова И.В, Флорианович Г.М, Хорошилов А.В, Коррозия и защита от коррозии.– М. Физматлит, 2002, 336 с.
2. Н.К.Кофанова. Коррозия и защита металлов. Киев, Алчевск, 2003. 181 с.1.
3. Бондар В.И. Коррозия и защита материалов. Мариуполь. 2009, 131 с.
4. Притула В.В. Подземная коррозия трубопроводов и резервуаров. М. Акела. 2003, 225 с
5. Do'stov H.B. "Korroziyadan himoya qilish"–Buxoro,-Durdona Nashriyot.2019

YUQORI QOVUSHQOQ NEFTLARNI QOVUSHQOQLIGINI KAMAYTIRUVCHI DEPRESANTLAR TAHLILI

¹Rahimov Bobomurod Rustamovich, ²Xamroyeva Laylo Raxmatullayevna

¹Buxoro muhandislik - texnologiya instituti "Neft-gaz ishi" kafedrası dotsenti

²Buxoro muhandislik - texnologiya instituti "Neft-gaz ishi" kafedrası assistenti

Hozirgi paytda Respublikamizda neft maxsulotlarini quvurlar orqali tashishda sirt-faol moddalardan, elektro-fizik va boshqa usullarni qo'llash borasida ilmiy va amaliy natijalarga erishildi. Maxalliy xomashyolar asosida sirt-faol moddalar ishlab chiqish va ularni og'ir neftlarni qovushqoqligini kamaytirish, shuningdek eksport qilinadigan qo'ndirmalarni ishlatishni kamaytirish zarur.

Yuqori qatron va yuqoriparafinli neftlarda ular past samaradorlik namoyon qiladi. Yog'moy sanoatida hom paxta moyini gidratatsiyalashda fosfolipidli cho'kmalar olinadi, ular o'z tarkibida ko'p miqdorda fosfatidlar tutadi (letsetin va kefalin hamda noionogen SFM). Biz tomonimizdan texnik paxta fosfatid konsentrati sarfini yuqori qovushqoqli mahalliy neftlarni oquvchanlik ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganildi. Mahalliy neftlarda dinamik siljish kuchlanish (Pa) va dinamik qovushqoqlik (Pa·s)ni o'lchashga doir sinovlar 200 °S xaroratda amalga oshirildi (1-jadval).

1-jadval Yuqori qovushqoqli neftlarni dinamik siljish kuchlanishi va dinamik qovushqoqligi o'zgarishini texnik paxta fosfatid konsentrati (SFM-1) miqdoriga bog'liqligi

Neftning reologik ko'ratkichlari	Texnik paxta fosfatid konsentratini quyidagi miqdorlarida, g/t						
	0	50	100	200	300	400	500
Jarqoq konidan olingan yuqori qovushqoqli neft, zichligi 873 kg/m ³ , qotish harorati +50S, parafin miqdori 6,3%							
Dinamik siljish kuchlanishi, Pa	21,2	20	18,5	14,3	12,4	8,2	6,9
Dinamik qovushqoqligi, Pa·s	50,1	48,4	46,3	40	32,5	24,4	18,7

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Jarqoq neft konidan olingan yuqori qovushqoqli neft tarkibida texnik paxta fosfatid konsentratini miqdorini ortishi bilan neftning dinamik siljish kuchlanishi va dinamik qovushqoqligi pasayadi. Jarqoq kon neftiga texnik paxta fosfatid konsentratini 500 g/t miqdorda qo'shilganda dinamik siljish kuchlanishi 6,9 Pa va dinamik qovushqoqlik 18,7 Pa·s ga teng bo'ladi. Mazkur neftlarni tarkibida texnik paxta fosfatid konsentrati miqdorini yanada ortirishi, ularni tashish bo'yicha sifatiga va tannarxiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu xolat shu bilan tushuntiriladiki, texnik paxta fosfatid konsentrati neftga va uning strukturasi ta'sir etib, mayda o'zaro bog'lanmagan kristallarni xosil bo'lishida parafinlar kristallanishga yo'naltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шафиев Р.У, Махмудов Н.Н, Амиркулов Н. С, Турсунов М.А, Базаров Ш.Т. Технология сбора и подготовки нефти, газа и воды на промыслах.(Учебник). Ташкент: Фан ва технология – 2016-310 с.
2. Заменков Ю. Д, Макарова Л. М, Прохоров А. Д, Дудин С.М, Сбор и подготовке нефти и газа, Учебник для вузов. М: Изд. центр и "Академия " 2009, 160 с.
3. Рахимов Б.Р., Набиев А.Б., Адизов Б.З., Абдурахимов С.А. Понижитель вязкости тяжелых нефтей на основе хлопкового соапстока. Universium: Технические науки. 2020. №5(74). С.59-62

GORIZONTAL QUDUQLARNI BURG'ILASHDA RADIAL BURG'ILASH TEXNOLOGIYASINING AFZALLIKLARI

¹Amashova Aziza Garribayevna, ²Toshev Sherzod Orziyevich

¹Buxoro muhandislik - texnologiya instituti magistranti,

²Buxoro muhandislik - texnologiya instituti "Neft-gaz ishi" kafedrası dotsenti

Qatlamni radial ochish texnologiyasi - bu mustahkamlangan va mustahkamlanmagan quduqlarning devoriga perpendikulyar holda mahsuldor qatlamga gidromonitor usulida kirishdir. Bunda tizmada diametri 25 mm.li teshikni egiluvchan jamlanmalarning vintli quduq dvigateli, egiluvchan val va parmalash burg'isi yordamida teshish orqali amalga oshiriladi.

Mahsuldor qatlamning o'ziga kirish egiluvchan quvurlarning jamlanmasi, Kevlar turidagi yuqori bosimli egiluvchan shlang va gidromonitor nasadkasi yordamida amalga oshiriladi. Yuqori bosimning qiymatini oldi va orqa qismida o'rnatilgan teshikli gidromonitor nasadkasida bosimni hosil qilish uchun:

- a) gidravlik ta'sir ostida va eroziyalı kuchlar bilan qatlamga kirish;
- b) yuviladigan kanallar orqali asboblarni pastga tortishda, belgilangan uzunlik va gorizontallikka erishish uchun gidromonitor nasadkasida orqa teshik orqali gidravlik kuch ostida bosim bilan suyuqlik haydaladi.

Burchak ostida ta'sir qiluvchi kuch gidromonitorli kirishda qatlamning g'ovakligi va gidromonitor nasadkasidagi orqa teshikning diametrining chegaralanishi talab qilinadi hamda suyuqlik bilan to'ldirilgan stvol bo'ylab samarali ravishda qatlamga kiradi. Suyuqlikka to'ldirilgan muhitda gidravlik kuchni uzunlik bo'ylab harakatlanishi chegaralanadi.

Qatlam radial burg'ilib ochishda ta'sir qiluvchi kuchlar quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi:

1. Qatlamning qiyaligi. qatlamning qattiqligiga yoki g'ovakligiga bog'liq holda nasadka qatlamning shipiga o'rnatiladi, oldinga qarab siljishi sezilarli bo'ladi yoki qatlamni yuvilishi natijasida to'xtatiladi.

2. Uyumning chegarasida quduq joylashuvini mos kelmasligi. Qatlamdagi tog' jinsining tuzilmasini materialı va qo'llaniladigan eritmaning tarkibi farq qilganda qatlamga kirish to'xtatiladi.

3. Minerallashtirilganligi: Karbonatli yoki qumoq toshli, ohaktoshli yoki kremniyli minerallashtirganda g'ovakligi nolga teng bo'lganda qatlamni yuvishni mumkin emas hamda ijobiy natijaga erishib bo'lmaydi.

4. Amorf tog' jinslari. Konglomeratlardagi kremniy slanetsi, kremniy galechnigi, galechniklar va kristallangan qoldiqlar yoki kvarsli galechniklarda g'ovaklikni mavjud emasligi tufayli, gidromonitor nasadkasining harakatlanishi to'xtatiladi.

5. Kovakli tog' jinslari. Qumoqtoshlarni suv eroziyasi yoki karbonatlardagi kimyoviy ishqorlanish natijasida mahsuldor qatlamda yirik o'lchamlardagi kovakliklarni paydo bo'lishga olib keladi. Shuning uchun gidromonitor tizimining samarali qatlamga kirishi uchun aniq diametr kattaligi talab qilinadi. Diametrning qiymatini gidravlik samaradorlik ko'rsatgichining belgilangan chegaraviy qiymatidan oshganda oldinga harakatlanish to'xtatiladi.

6. Sementlangan qatamlar. Sementlanmagan qumlar kuchli eroziyalı shikastlanganda gidromonitor nasadkasining orqa teshik orqali haydaladigan suyuqlikni yuqori tezlikda ta'sir etishi natijasida tog' jinsi yuviladi va kovaklar paydo bo'ladi hamda harakat sekinlik bilan yoki

birdaniga to‘xtatiladi.


7. Qatlamning g‘ovakligi juda kichik yoki umuman mavjud bo‘lmaganda: Kristalli tog‘ jinslari, angidritlar, gips va boshqa tog‘ jinslari hech qanday g‘ovaklikka ega bo‘lmaganda oldinga harakatlanishning imkoniyati bodmaydi.

8. Tuzli qatlamlarning mavjudligi. Qoldiq basseynlarda ko‘pincha NaCl uyumlari uchraydi. Bunday tog‘ jinslari amorf hisoblanadi va gidromonitor kuchning ta’siri ostida qatlamga kirish mumkin bo‘lmaydi. Qatlamga samarali kirish chuchuk suv orqali amalga oshiriladi.

Radial burg‘ilab ochishning muvaffaqiyati quyidagilarga bog‘liq:

Qatlamni radial burg‘ilab ochishda namunali quduqlarni to‘g‘ri tanlashga bog‘liqdir. Radial burg‘ilashni boshlashdan oldin quduq bo‘yicha ma’lumotlar to‘planadi. Quduq to‘g‘risida ma’lumotlarni to‘plamga karotaj diagrammalari, quduq ishining tarixi, kollektorlarning tavsifi va o‘tkazilgan ta’mirlash ishlari yoki berilgan kislotali ishlov to‘g‘risidagi ma’lumotlar kiradi.

Bunday ma’lumotlarga asoslanib, radial burg‘ilab ochishni o‘tkazgandan keyin qazib olishni ko‘tarish uchun quduqni shunday potensialga ega ekanligi aniqlanadi.



1-rasm. Radial quduqni burg‘ilash jarayonini olib borish tartibi

1. Radial burg‘ilash texnologiyasi qo‘llanilganda neft va gaz quduqlarini debiti oshiriladi, olinadigan zahiraning hajmi o‘sadi.

2. Bu texnologiyani qodlash natijasida kam sarf xarajat qilinadi va quduqqa oqimni chaqirish jadallashadi, qisqa vaqt ichida eng yuqori ko‘rsatgichli ishlab chiqarish natijasiga erishiladi.

3. Radial burg‘ilash texnologiyasi qo‘llanilganda quduqlarni rentabellik darajasi oshadi va neft oqimini kuchaytirish hisobiga sarf xarajatlari tez qoplanadi.

4. Radial burg‘ilash qo‘llanilganda, yo‘nalishi (tiklakdan 90° og‘ishi) butun kirib borish uzunligi bo‘yicha nazorat qilinadi. Shuning uchun kirib borish parchalanishlar chegaralangan holda o‘tiladi, lekin bunda to‘liq buzilishlarni nazorat qilishni imkoniyati yo‘q.

5. Quduq ustunining shikastlangan qismi chegaradan chiqariladi.

6. Bu texnologiyani yuqori-mahsuldor neftli qatlamlarda va kam o'tkazuvchan ko'p qatlamli kollektorlarda qo'llash mumkin.

Radial burg'ilashda - neft va gaz quduqlarini ochishni optimallashtirish va qayta tiklashda tezkor usullardan biri bo'lib, egiluvchan quvurlardan foydalaniladi. Radial burg'ilash texnologiyasi dunyoda neft qazib oluvchi davlatlarning ko'pchiligida qodlanilgan bo'lib, ijobiy natijalar bilan birgalikda salbiy holatlar uchragan. Bunday salbiy holatlarga qatlamni ko'p yil davomida ishlatilganligi sababli, bosimning pasayishi hisobiga boshlang'ich davridagi debit ko'rsatgichlarini ma'lum davr oralig'ida ishlatilgandan keyin pasayib ketishi, quduqlarni sifatsiz sementlanishining ta'sirida yon stvolni ochishdagi murakkabliklar, mustahkamlanmagan quduqlarga kislotali ishlov berilishi natijasida quduq stvoli kengayganligi tufayli jamlanmalarni markazlashtirishda muammolar va hokazo. Bunday murakkabliklar Shimoliy O'rtabuloq, Kruk va Janubiy Kemachi konlarida olib borilgan amaliyotda qandaydir darajada uchragan.

Radial burg'ilashda 50 mm-li diametrdagi yon teshiklar teshiladi, chuqurligi 2500 metrga bo'lgan quduqning stvolida radius bo'ylab yuqori naporli suyuqliklar qodlanilib, burg'ilash ishlari olib boriladi. Radial burg'ilash jarayonida har xil balandlikda 4 ta gorizontall stvolni burg'ilashni imkoniyati mavjuddir (1-rasm).

Radial burg'ilashda asosan og'dirgich tiklikdan 90° burchak ostida ushlab turiladi va qatlamga to'g'ri chiziqli holda kirib boriladi.

Birinci bosqichda. Yon tomondagi teshik aylanuvchi burg'ilash burg'isi yordamida burg'ilanadi.

Ikkinchi bosqichda. Yuqori bosimli suyuqlik oqimida qatlamga ishlov berish.

Oqimli injektor davriy ravishda egiluvchan shlang va yer usti nazorati yordamida orqaga tortiladi, buning uchun yon teshikda egiluvchan shlang tortib turilishi doimiy ushlab turiladi.

Bunday doimiy tortish kuchi mustahkamlash quvurida chiqishda mustahkamlash quvuridan yo'nalishda to'g'ri chiziqd o'tishni ta'minlaydi.

Bir nuqtada ushlab turishda:

- tezlashish kuchi qatlamni yuvadi va haddan tashqari katta diametrli teshik hosil qiladi;
- tezlashuvchi kuch o'zining tayanchini yo'qotadi va uni faqat keraksiz yo'qotadi, injektorni yo'nalishi almashishni boshlaydi.

Qatlamni radial ochishni olib borishni chegaralovchi mexanik ko'rsatgichlar:

Qatlamni radial ochish (RVP yoki RDS) tizimining amaldagi konstruksiyasi va texnologiyasiga har xil mexanik ko'rsatgichlarning ta'sir etishi burg'ilash samaradorligini pasaytirib yuboradi yoki bu tizimni qo'llanilishi chegaralaydi.

Fodalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. A.M. Aminov, A.M. Murtazayev, Z. Sunnatov. Burg'ilash mashinalari va uskunalari. O'quv qo'llanma. Toshkent. Turon-Iqbol nashriyoti -2007. 112b.
2. Akramov B.Sh., Hayitov O.G'. Neft va gaz konlarining mashina mexanizmlari. O'quv qo'llanma. Toshkent. O'qituvchi. 2004
3. У.Д.Нурматов, А.М.Аминов. Нефть ва газ кудуқларини бурғилаш. Ўқув қўлланма. Тошкент, 2003

4. А.К.Рахимов, А.М.Аминов, А.А.Рахимов. Пармаловчи муҳандислар учун маълумотнома (Справочник). Ўқув қўлланма. Тошкент, 2008
5. Aminov A.M. «Neft va gaz quduqdarini qurish asoslari», Darslik- Toshkent, 2010 у.
6. Булатов А.И. «Технология бурения» Москва, Недра - 2003 г, 1003 ст.
7. П.А. Багпамов Буровые машины и механизмы. Москва, «Недра», 1989.
8. Ганджумян Р.А., Калинин А.Г., Сердюк Н.И. — «Расчеты в бурении» Справочное пособие. Под редакцией А.Г.Калинина, - М.: РГГРУ, 2007 г. 668 стр.

МЕТАЛЛИЧЕСКИЕ КАТАЛИЗАТОРЫ ГИДРИРОВАНИЯ ТОЛУОЛА

Лаханова К.М., Б.Ш. Кедельбаев

д.с-х.н. проф. МКТУ им. Х.А.Ясави, д.т.н., проф. ЮКУ им. М.Ауезова,

Каталитическое восстановление ароматических соединений и глюкозы представляет большое практическое значение, так как продукты реакций давно привлекают внимание исследователей, как исходные объекты для синтеза новых соединений [1].

В промышленности гидрогенизационные процессы осуществляют в жестких условиях (высокие температура и давление водорода) на металлах оксидных катализаторов, где металлическая составляющая — это Ni и другие переходные металлы. Известно, что в последнее время наиболее дешевыми, доступными и стабильными в процессах гидрогенизации являются сплавные и дефицитированные никелевые катализаторы.

Turli hil mevali va manzarali daraxtlar poyalari chiqindilari, meva danaklari po'choqlari, oziq-ovqat mahsulotlarining ikkilamchi chiqindilari sanoatda keng qo'llanilmaydigan faollantirilgan ko'mirlar olish uchun arzon xom-ashyolar hisoblanadi.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib uglerodli adsorbentlarni mahalliy xom-ashyolar, jumladan, daraxt poyalari va chiqindilari asosida tayyorlash alohida ahamiyatga ega. Shu maqsadda tadqiqot ob'ekti sifatida Respublikamiz hududida o'sadigan chinor daraxti poyasi chiqindilari tanlab olindi. **Dastlab** uglerodli adsorbent olishning kimyoviy faollantirish usulida

avval xomashyo maydalanib, 500 °C qizdirilib, karbonizat olindi. Olingan karbonizat kaliy gidroksid eritmasi bilan kimyoviy ishlov berildi. Karbonizat va faollashtiruvchi reagentning massa nisbati (1:1, 1:2, 1:3, 1:4 va 1:5) ta'siri o'rganildi. Keyin olingan aralashmalar filtrlandi va ajratib olingan uglerodli materialni suv bug'i bilan 850°C harorat yordamida faollantirildi. Olingan uglerodli adsorbentni neytral muhit hosil bo'lgunga qadar 0,5 N xlorid kislota eritmasi bilan ishlov berildi. So'ngra adsorbentni distillangan suv bilan bir necha marta yuvildi va 100±5°C haroratda quritildi.

Olingan ko'mir adsorbentlarning namlik miqdori namlik aniqlovchi analizatorida (MA 210.R markali), shuningdek kullik miqdori GOST 11022-95, mustahkamligi GOST R 55873-2013 asosida ishlab chiqilgan metodika yordamida aniqlandi [4,5].

Ma'lumki, o'simlik homashyosi asosida olinadigan ko'mir adsorbentlar gidrofob xususiyatga ega adsorbentlar hisoblanadi. Shuning uchun yog'och ko'mirlariga suv molekulari ko'p miqdorda adsorbsiyalanmaydi, shu sababli ushbu turdagi ko'mir namunalarining namlik miqdori yuqori bo'lmaydi. Shu bois, yuqori haroratda olingan ko'mir adsorbentlarida gidrofil xususiyatga ega organik funktsional (-OH, -NH₂, -COOH va boshqalar) guruhlar miqdori judayam kamligi yoki butkul yo'qligi sabab bo'ladi. Olingan natijalarga ko'ra namunalarning namlik miqdorlari 2,5-3 % ni tashkil etishi aniqlandi. Yog'och ko'mirlari tarkibida anorganik moddalarning miqdori kamligi tufayli ular asosida olinadigan ko'mir adsorbentlar kullik miqdori nisbatan kam bo'ladi.

1-jadval.

Ko'mir adsorbentlarning fizikaviy-kimyoviy xossalari

Adsorbent namunalari		Texnik tahlil		
		Namlik miqdori, %, W ^A	Kul miqdori, %, A ^s	Adsorbent-larning mustahkamligi (MPa)
Chinor daraxti	Ko'mir-500	3,116	3,489	6,4
	Ko'mir+KOH (1:1)	2,781	1,103	6,7
	Ko'mir+KOH (1:2)	2,666	1,109	6,8
	Ko'mir+KOH (1:3)	2,603	1,112	7,2
	Ko'mir+KOH (1:4)	2,541	1,122	7,5
	Ko'mir+KOH (1:5)	2,512	1,153	7,8

Adsorbentlarning adsorbsiya jarayonida eng muhim ko'rsatkichlaridan biri ularning mustahkamligi hisoblanadi. Chunki adsorbat molekulari yutilgandan so'ng adsorbent sirtida adsorbent va adsorbat molekularining joylashishi hisobiga adsorbentlarning sirt tarangligi kamayadi va bunga bog'liq holda ularning mustahkamligi ham kamayib boradi. Texnologik jarayonlarda adsorbentlarni ishlatib bo'lingandan so'ng ularni sistemalardan ajratib olishda mustahkamligi muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Поконова, Ю.В. Нефтяные фракции как связующие для углеродных адсорбентов / Поконова Ю.В., Заверткина Л.И. // Химия и технология топлив и масел. – 2000. – № 1. – С. 41-43.
2. Мухин, В.М. Экологические аспекты применения активных углей // Экология и промышленность России. – 2014. – № 12. – С. 52-56.
3. V. I. Isaeva et al., 'Modern Carbon-Based Materials for Adsorptive Removal of Organic and Inorganic Pollutants from Water and Wastewater', *Molecules*, vol. 26, no. 21, p. 6628, Nov. 2021, <https://doi.org/10.3390/molecules26216628>
4. ГОСТ 11022-95 (ИСО 1171-97) Топливо твердое минеральное Методы определения зольности.
5. ГОСТ Р 55873—2013 Уголь активированный. Определение прочности стандартным методом.

O'SIMLIK KO'MIRINING BET BO'YICHA SOLISHTIRMA SIRT YUZASINI O'ZGARISHIGA TERMIK FAOLLANTIRISHNING TA'SIRINI O'RGANISH.

M.I. Payg'amova, G'.M. Ochilov, I.L. Axmadjonov

²Qo'qon davlat pedagogika instituti, Qo'qon sh.

Hozirgi kunda sanoat miqyosida ishlatiladigan faollantirilgan uglerodli adsorbentlar olish uchun nisbatan arzon xom ashyo va biomassadan foydalanishga asoslangan tadqiqotlar olib borilmoqda. Sellyuloza biopolimerlari va boshqa polimerlarning ishlab chiqarishning yuqori yillik o'sishi tufayli turli xil chiqindi materiallar faollantirilgan uglerod ishlab chiqarish uchun xom ashyo bo'lib xizmat qilmoqda. Ular arzon, ekologik, qayta tiklanadigan va xom ashyo manbaidir.

Faollashgan uglerodning tuzilishi va xossalari biokimyoviy tarkibi piroliz jarayonining dinamikasini, unumdorligini, ishqalanishini va kul miqdorini belgilaydigan prekursorning tabiatiga bog'liq [1,2]. Qishloq xo'jaligi xom ashyosi va biomassadan foydalanish faollashtirilgan uglerod ishlab chiqarishning barqarorligiga yordam beradi. Bundan tashqari, qazib olinadigan ko'mirlarga nisbatan oltingugurt va azot miqdori pastligi sababli turli zaharli gazlarining chiqishini kamaytiradi [3].

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib uglerodli adsorbentlarni mahalliy xom-ashyolar, jumladan, daraxt poyalari chiqindilari asosida tayyorlash alohida ahamiyatga ega. Shu maqsadda tadqiqot ob'ekti sifatida Respublikamiz hududida o'sadigan terak va tol daraxtlari poyasi chiqindilarini 300-900°C (10°C/min⁻¹) larda 1,5 soat davomida termik hamda 800°C da suv bug'i bilan faollantirib ko'mir adsorbentlar tayyorlandi.

Olingan adsorbentlarning benzol bug'lari bilan adsorbsiyasi ISO 15901-1 asosida o'rganildi. Adsorbsiya izotermalari va BET tenglamalari asosida namunalarning nisbiy solishtirma yuzalari aniqlandi. [4-6].


1-rasmda faollantirish harorati o'zgarishiga qarab ko'mir namunalarning solishtirma sirt yuzasining o'zgarishi ko'rsatilgan. Termik faollantirish harorati ortishi bilan solishtirma sirt yuzasi (m²/g) ortadi. Bu esa shuni ko'rsatadiki, yuqori haroratda ko'mir yuzasida qo'shimcha adsorbsion faol markazlar va g'ovakliklar hosil bo'ladi.

Faollantirish haroratini 300°C dan 800°C gacha ortishi olingan ko'mir namunalarning solishtirma sirt yuzasini ortishiga olib keldi. Terak daraxti poyasi chiqindilari asosida olingan

namunalar uchun 143,43 m²/g dan 353,00 m²/g gacha, tol daraxti poyasi ikkilamchi xom ashyosidan olingan ko‘mir namunalari uchun 129,47 m²/g dan 332,71 m²/g gacha ortishi kuzatildi. Lekin haroratni yanada ortishi (900°C) natijasida namunaning solishtirma yuzasi o‘zgarishi sekinladi yoki kamaydi. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki 800°C harorat termik faollantirish ushbu namunalar uchun optimal sharoit hisoblanadi.

Namunalarni suv bug‘i bilan faollantirish terak daraxti poyasi chiqindilari asosida olingan namuna uchun 353,00 m²/g dan 480,93 m²/g ga (1,4 marta), tol daraxti poyasi asosida olingan ko‘mir adsorbent uchun 332,71 m²/g dan 430,00 m²/g (1,3 marta) gacha solishtirma sirt yuzasini ortishiga olib keldi.

Suv bug‘i yordamida faollantirish ko‘mirning solishtirma sirt yuzasi va g‘ovak o‘lchamlari kabi teksturaviy xususiyatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu shuni ko‘rsatadiki, faollantirish jarayonida suv bug‘i mikrog‘ovaklarni hosil qilishda va ko‘mirning solishtirma sirt yuzasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.



1-rasm. Ko‘mir adsorbentlarining faollantirish harorati o‘zgarishiga qarab BET bo‘yicha solishtirma sirt yuzasini o‘zgarishi.

Adsorbentlarning benzol molekullarini adsorbsiyalash qobiliyati yuqori ekanligi ko‘mir tarkibidagi g‘ovaklar o‘lchami, tuzilishi va ta’sirlashish potentsiallari bilan bog‘liq. Past nisbiy bosimlarda adsorbsiya izotermalarining keskin ko‘tarilishi benzol bug‘lari dastlabki yutilishlarda adsorbsion potentsiali yuqori bo‘lgan yuzalarga adsorbsiyalanishidan dalolat beradi.

Termik ishlov berilganda tarkibidagi nisbatan past haroratlarda (300°C) parchalanmagan organik birikmalarning va smolasimon moddalarning yuqori haroratlarda (800°C) suv bug‘i bilan kimyoviy reaksiya kirishishi natijasida ko‘mir tarkibida g‘ovaklarning miqdori ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Açıkıldız M., Gürses A., Karaca S. Preparation and characterization of active carbon from plant wastes with chemical activation. *Microporous Mesoporous Mater.* 2014;198:45–49. doi: 10.1016/j.micromeso.2014.07.018.
2. Falco C., Marco-Lozar J.P., Salinas-Torres D., Morallón E., Cazorla-Amorós D., Titirici M.M., Lozano-Castelló D. Tailoring the porosity of chemically active hydrothermal

carbons: Influence of the precursor and hydrothermal carbonization temperature. *Carbon*. 2013;62:46–55. doi: 10.1016/j.carbon.2013.06.017.

3. Arena N., Lee J., Clift R. Life cycle assessment of active carbon production from coconut shells. *J. Clean. Prod.* 2016;125:68–77. doi: 10.1016/j.jclepro.2016.03.073.

4. ИСО 15901-1, Распределение пор по размерам и пористость твердых материалов методом ртутной порометрии и газовой адсорбции — Часть 1: Ртутная порометрия

5. ISO 15901-3, Распределение пор по размерам и пористость твердых материалов методом ртутной порометрии и адсорбции газа — Часть 3: Анализ микропор методом адсорбции газа

6. ИСО 9277:2010(E) Определение удельной поверхности твердых тел методом адсорбции газа — метод БЭТ

МАҲАЛЛИЙ АДСОРБЕНТЛАР ЁРДАМИДА ПАРАФИННИ ТОЗАЛАШ ЖАРАЁНИДА УЛЬТРАТОВУШ ТАЪСИРИ МЕХАНИЗМИНИ ЎРГАНИШ.

Аноров Рустамжон Абдурахмонович

*Ислом Каримов номидаги Тошкент давлат техника университетининг Қўқон филиали
т.ф.д. доцент*

Юртимизда нефтни қайта ишлаш саноати ривожланаётган соҳалари бири ҳисобланади ва асосий энергия манбасидир. Унинг замонавий илмий ютуқлар асосидаги қайта ишлаш ва такомиллаштирилган технологияларни жорий этиш, импорт қилинаётган технологик реагентларни маҳаллийлаштириш мамлакат иқтисодиётнинг юқори самарадорлигига эришишни таъминлайди.

Ҳозирги кунда мамлакатимиздаги нефтни қайта ишлаш корхоналарида хориждан келтириладиган турли адсорбентлардан фойдаланиб келинмоқда. Уларни маҳаллийлаштириш орқали замонавий регенерациялаш энг зарур технологик ва экологик масалалардан бири бўлиб ҳисобланади. Ишлатилган адсорбентларни замонавий қайта ишлаш масаласида кўплаб илмий изланишлар олиб борилмоқда. [2] Маълумки адсорбентларни қўлланилишида ва регенерация қилинишида бир қатор усуллар мавжуд бўлсада юқори даражада адсорбция жараёнини ташкил этиш ва регенерациялашда юқори кўрсаткичларга эришиш муҳимдир. Бу эса экология салбий таъсирини камайтириш, технологик хавфсизлик ортади ҳамда хом ашё ресурсларидан тўлақонли фойдаланиш имкониятларини яратди.

Саноат корхоналарида турғун суви эмульсиялар, суспензиялар ва нефт маҳсулотлар таркибидаги керакли компонентларни ажратиш олишда юқори эффектив оптимал ҳолатни яратишда ультратовуш тебранишлар аҳамияти маълумдир. Интенсив ультратовушли тўлқин суюқликдан ўтганда, суюқликда кетма-кет сиқилиш ва кенгайган соҳалар ҳосил бўлади. Алоҳида участкаларда газ ёки ёғилган буғ пуфакчалар ва ғовакчалар ҳосил бўлади, уларнинг ўлчамлари таққослаш аҳамиятли бўлган субмикроскопик барқарорлик муддати жуда қисқа лекин солиштирилганда нисбатан узоқ. Уларнинг мавжудлик вақти эса жуда қисқа ва нисбатан узоқ бўлади. Гидродинамика терминида бу ҳодисани кавитация жараёни деб аталади. Бу қовушқоқли эритилган парафинда (сув муҳитидагилар билан солиштирилганда) ҳосил бўлиши ва ўрганиш қийин ва бу жараёни амалга ошириш учун эса маҳсус ускуналар керак бўлади. Биз томонимиздан маҳаллий адсорбентларда парафинни контактли тозалаш жараёнини

жадаллаштириш учун УЗГ-10М генератори асосида ультратовушли курилма йиғилган бўлиб, қуйидаги характеристикаларга эга: истеъмол қилинадиган қувват 18 кВт гача, созлаш чегараси 18-24 кГц. Курилма комплектида ПМС-6 маркадаги магнитострикцион ўзгартиргич мавжуд бўлиб, унинг ультратовуш қуввати 2,5 кВт (ФИК, 45%) ва бошқа гидродинамик тарқатгичлар мавжуд. Келтирилган курилмада суюлтирилган парафини маҳаллий адсорбентлар билан тозалашда ультратовуш таъсири механизми ўрганилган. Релейнинг таъкидлашича катта босимлар нафақат суюқликни урилишида, балки ковитацион ғовакни жисим юзасидан бир қанча масофага қисқаришида ҳам ҳосил бўлади.

Парафинни адсорбентлар билан тозалаш жараёнини 18, 21 ва 24 кГц ультратовуш таъсирида ва 120 - 600 секундгача ультратовуш тўлқини бериш вақти давомида ташқи тузатишлар, суюлтирилган парафинни адсорбентлар композицияси билан тозалаш механизмларини ўрнатишни имконини берди.

1 жадвал

Парафинни тозалашдаги маҳаллий адсорбентларнинг гранулометрик таркибини ўзгариши (ультратовушни 21 кГц частотада ва ультратовушсиз таъсирини боғлиқлиги).

Адсорбент номи	Донадорлик таркиби (сеткадаги қолдиқ),%			
	ультратовушсиз (текширув)		21 кГц частотадаги ультратовуш таъсирида	
	сеткада 02 К	Сеткада 0063	сеткада 02 К	сеткада 0063
Кармана опикали глинаси. (Навоий вилояти.)	3,1	96,9	2,0	98,0
Навбохор ишқорий бентонити (Навоий вилояти)	3,2	96,8	1,8	98,2
Тульсох гиль тупроғи (Фарғона вилояти)	3,2	96,7	1,9	98,3

Суюқланган парафинга ультратовуш таъсирида газли пуфалчалар ҳосил бўлиши билан борадиган тўлқинсимон ҳаракат содир бўлади, булар эса ковитациянинг эффектини беради. 1-жадвалдан кўриниб турибдики 21 кГц частотадаги ультратовуш тебранишлари ишлатилганда парафинни тозалашда ишлатилаётган адсорбентлар дисперсланади, яни уларни майдалангунгача содир бўлади. Энг кўп майдаланишга бентонит, опоклар йўлиқади. Шунини ҳисобга олиб, биз томондан берилган адсорбентларнинг стандарт усуллари билан солиштирма юзаси аниқланади. Олинган натижалар 2-жадвалда келтирилган.

Жадвал 2

Парафинни тозалашдаги маҳаллий адсорбентларнинг 21 кГц частотада ва ультратовушсиз таъсирга боғлиқлигида солиштирма юзани ўзгариши.

Адсорбентнинг номланиши	Адсорбентнинг актив юзаси , $\times 10^3 \text{ м}^2/\text{кг}$	
	Ультратовушсиз (текширув)	21 кГц частотадаги Ультратовуш таъсирида
Кармана опикали глинаси.	362	378
Навбахор ишқорий бентонити	381	405
Тульсох гиль тупроғи	385	412

2-жадвалдан кўриниб турибдики парафинни 21 кГц частотада ультратовушли тозалашда адсорбентнинг солиштира юзаси ортади. Айниқса Навбахор ишқорий бентонитини ва Тульсох гильтупроғини солиштира юзаси кучли ошади, кейин Керминдаги опоковид гилтупроғи дисперсликни ва солиштира юзани ошиши олинаётган маҳсулотлар сифатига ижобий таъсир кўрсатади. Бу 5-40 кГц частотали ультратовушларни ишлатишдаги дисперсликнинг энг юқори даражасига мувофиқ келади. Бу ҳолатдаги кўплаб зарралар 1 мкм гача кичраяди. Албатта, ультратовушнинг интенсивлиги ортиши билан унинг дисперслик даражаси ҳам ортади. Агар суюқликка озроқ миқдорда ҳаво киритилса бунда дисперслик ошиши мумкин. Бу эса ковитацион эффект катталигига таъсир кўрсатади. Шунинг учун ультратовуш дисперслаш жараёни интенсификацияланади. Юқоридагилардан хулоса шуки, ультратовуш таъсири адсорбентлар таркибнинг бир жинслигини оширади ва суюлтирилган парафиндаги гилтупроқли адсорбентлар концентрациясини оширади. Агар ультратовушли тўлқинни “ҳаво – суюлтирилган парафин” бўлими чегарасига йўналтирилса унда парафин юзасида “шилиниб пуфакчалар” ҳосил бўлади. Бунда ультратовушни маълум интенсивлигида фонтан ҳосил бўлиши мумкин, унинг баландлиги интенсивлигини ортиши билан ортади. Фонтанлар ҳосил бўлиши (одатда сувли муҳитларда) туманлар билан кечади (юқори частоталарда ишлаганда). Бизнинг изланишларимиз шуни кўрсатадики, туман ҳосил бўлишига мойиллик суюқликни қовушқоқлиги ортиши билан камаяди. Масалан, суюлтирилган парафинда бу ҳол кузатилмади. Парафинни маҳаллий адсорбентлар билан тозалашдаги ультратовуш тебранишларини таъсири механизми интенсив тебранувчи пуфакчаларни тупроқ ковакчалари ва тирқишларига кириши билан изоҳланади. Бундан ташқари “эритилган парафин – тупроқли адсорбент” чегарасида парафиндан чиқариб олинаётган йўлдош моддалар сорбция интенсивлигига имкон берувчи сезиларли тезланишлар ҳосил бўлади. Тезланиш бу юқори ўзгарувчи босимни тешиқларга ва қўлланаётган адсорбентлар микроёриқларига таъсирини натижасидир. Қайтарилаётган тўлқин энегиясининг катталиги муҳитнинг (бизда парафинни) тўлқин қаршилигига боғлиқ ёки бошқача айтганда, нисбий акустик қаршилиқка (муҳит зичлигини ундаги товуш тезлигига кўпайтмаси). Тебранишлар амплитудасини камайиши, демак, манбадан тебранишларни йўқотилиши ҳам муҳитдаги ички ишқаланиши билан тушунтирилади. Яъни муҳитнинг акустик қаршилиги, оптимал ультратовуш частоталарини ва овоз бериш вақтини талаб қилади. Парафинни контакт тозалашдаги ультратовушларни тебраниши ишлатиши, тарқалиши, ҳосил бўлиши механизмларини билиши шу жараёни рақиял тарзда ташкил қилиш ва кучайтириш имконини беради. Изланишлар натижаларида

кўрсатилганидек ультратовуш тебранишларнинг тарқалиш тезлиги парафинни зичлиги, қовушқоқлиги ва иссиқлик ўтказувчанлигига боғлиқ.

Маълум бўлишича контактли тозалаш жараёнида қўлланаётган гилтупроқли адсорбентларни солиштирма юзаси ва дисперслигини оширишда ультратовушни қўллангандаги ахамияти юқорилигини кўрсатди. Айниқса, энг кичик майдаланишга Навбахор ишқорий бентонити ва Тульсох гилтупроғи мойил бўлиб, энг ози эса Кармана опикали глина кўринишидаги тупроғидир.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномасини ўрганиш ва кенг жамоатчилик ўртасида тарғиб этишга бағишланган Илмий-оммабоп қўлланма [Матн].-Т.:“Маънавият”, 2019.-312 бет. ISBN 978-9943-04-372-5
2. Шишкова А.П., Новиков Ю.В., Гурвич Л.С., Климкина Н.В. Охрана окружающей среды в нефтеперерабатывающей промышленности. М.: Химия, 1980, -176 с.
3. Белков Б.М. Методы технологии и концепции утилизации углесодержащих промышленных и твердых отходов. Химическая промышленность, 2000, № 11, 27-29 с.
4. Надиров Н.К. Теоретические основы активации и механизма действия природных сорбентов в процессе осветления растительных масел. М.: Пищевая промышленность, 1973, -352 с.
5. Грег С., Синг К. Адсорбция, удельная поверхность, пористость. М.: Мир, 1970, -408 с.
6. Тарасевич Ю.И., Овчаренко Ф.Д. Адсорбция на глинистых минеральных сорбентах. Киев: Науково думка, 1975, -352 с.

МАҲАЛЛИЙЛАШТИРИЛАЁТГАН ПАВЛОВНИЯ ДАРАХТИ ЁҒОЧИ ЧИҚИНДИЛАРИ АСОСИДА АДСОРБЕНТ ОЛИШ ИМКОНИЯТЛАРИ

¹Рахматуллаева Н.Т., ²Абдурахимов А.Х., ³Жумаева Д.Ж.

¹Тошкент кимё технология институти катта ўқитувчиси

²Тошкент кимё технология институти доценти, PhD

³ЎзРФА Умумий ва ноорганик кимё институти, т.ф.д., проф.

Бугунги кунда, кўмрдан ташқари адсорбент бўла оладиган бошқа хом ашёларни излаш натижасида, Ўзбекистон ҳудудида ўсадиган, адсорбент учун қўйиладиган талабга (зичлик, мустаҳкамлик, ғоваклилик, юқори углерод миқдори, кимёвий таркиб бўйича) жавоб бера оладиган хом ашё тури ҳисобланган дарахт ёғочларининг чиқиндиларини турли усулларда фаоллаштириш орқали уларнинг юқори адсорбцион қобиляти, саноатнинг адсорбентларга бўлган талабига жавоб бера олиши аниқланди [1-2].

Ўзбекистон ҳудудида маҳаллийлаштирилиб, катта плантацияларда йиллар кесими доирасида экилаётган Павловния дарахтидан [3] асосий кўзланган мақсад енгил вазнга эга, мустаҳкам, зичлиги юқори дарахтдан фойдаланиб мебелчилик саноатини ривожлантириш ҳисобланади. Аммо бир йилда 3-4 марта шохалари буддаланадиган мазкур дарахтнинг пояларидан чиқинди уюми вужудга келади. Мазкур чиқиндидан мақсадли фойдаланиш учун, унинг юқори калорияли ёниш иссиқлигини ҳисобга олган ҳолда, брикетлар ишлаб чиқиш йўлга қўйилган бўлиб, шу мақсадда ҳосил бўлган чиқинди буталардан брикетлар тайёрланмоқда. Аммо масаланинг иккинчи томони ҳам борки, енгил вазнга эга мазкур дарахт юқори ғовакликка эга деган фаразни илгари суради ва

айнан шу фараз асосида ушбу дарахтни тадқиқ этиш адсорбент талабига мос келадиган хом ашё тўғрисидаги фикрларни исботлай олади.

Ўзбекистон ҳудудида турли навли дарахт турлари мавжуд бўлиб, буларнинг барчаси ҳам адсорбент бўлиш талабига жавоб беравермайди. Муаллифлар томонидан олиб борилган тадқиқот ишида адсорбент бўлиш талабига тушадиган дарахт турлари тадқиқ этилган бўлиб [4-5], уларнинг адсорбцион характеристикалари ва уларни қўлланилиш соҳалари ўрганилган, тавсиялар берилган. Аммо адсорбцион қобилятини ўрганиб, уни саноат миқёсида ишлаб чиқаришга тавсия этишда хом ашё базаси муҳим рол ўйнайди. Муаллифлар томонидан ўрганилган хом ашёлар мавсумий бўлиб катта масштабда ҳосил бўлмаслиги билан ўз аҳамиятини йўқотиши мумкин.

Дарахт ёғочи чиқиндиси асосида олинган адсорбент ҳаво билан контаклашмаган (кислород иштирок этмаган ҳолда) муҳитда, пиролиз жараёнида ҳосил бўлган мустаҳкам, аммо ғовакли юқори углеродли маҳсулотга айлангач, уни турли усулда, кимёвий модификациялаш еки термик таъсирлашув орқали фаол сорбентга айлантириш мумкин ҳисобланади. Дарахт чиқинди поялари асосида пиролиз қилиб адсорбент ишлаб чиқишда, деярли кам тутунли, заҳарлилиги кам, ўткир бўлмаган ҳидга эга шунингдек, оддий кўмирга қараганда уч баравар кўпроқ ёнадиган хом ашё ҳисобланади. Адабиётлар таҳлилини ўрганган ҳолда, тадқиқотларни олиб борганимизда, олинган натижалар асосида адсорбентга қўйилган талабга кўра, таркибида углероднинг миқдори 86% дан юқори бўлишини инобатга олинadиган бўлса, фаоллаштириш натижасида дастлабки углерод миқдори $C=54,2\%$ га тенг бўлса, термик фаоллаштирилганда бу кўрсаткич $C=85,0\%$ га, сув буғи билан фаоллаштирилганда эса $C=98,7\%$ га тенг бўлиши кузатилди. Ёниш иссиқлиги эса калория миқдорида $Q=7000-9000$ ккал.ни ташкил қилиши кузатилди. Бунда брикетнинг ўзига хос ёниш иссиқлиги 9000 ккал/кг ни ташкил қилади. Мазкур сорбентдан рангли металлургияда кўмир қоплама оқими сифатида ишлатилади, унинг остида кўплаб рангли металллар эритилади.

Адабиётлар таҳлилидан маълум бўлдики, АҚШда ҳар йили 270 минг тонна ёнғоқ қобиғи чиқинди сифатида тўпланади. Ёнғоқ қобиғи таркибида (%) ҳисобида 25.8-51.9% целлюлоза, 16.8-47.6% лигнин, 8.7-17.9% гемицеллюлоза, кул миқдори эса 0.2-3.1% ва намлик 3.8-10.41% да мавжуд бўлиб, ёнғоқ қобиғини H_3PO_4 ёрдамида $170^{\circ}C$ да 0,5-1,0 соат давомида жараён давомида азот ва бошқа инерт газлар иштирокида фаоллаштириши амалга оширилган. Бундан ташқари, мевали дарахтдан бодом ва макадамия чиғаноқлари ўрганилган, аммо тадқиқот натижалари жуда паст ҳамда адсорбент учун қўйилган стандарт талабларига жавоб бермаслиги аниқланган. Бунда углероднинг миқдоридан ташқари, хомашёнинг дастлабки хоссалари паст мустаҳкамлик даражасига эгаллиги, куллар миқдори, шунингдек бошқа физик-кимёвий кўрсаткичларининг пастлиги билан баҳоланган. Турли усулларда фаоллантирилган углерод асосли адсорбентлар саноат ишлаб чиқариш корхоналари учун муҳим ҳисобланиб, уларни фаоллантиришда мақбул режимлари танланади. Бунда углерод асосли сорбцион материалларни олишнинг пиролиз усулида дастлаб углеродли хомашёлар кислород билан контакт қилмаган шароитда термик ишлов бериш йули билан олинади. Турли ҳароратлар оралиғида иссиқлик орқали ишлов берилиб термик фаол адсорбентни мақбул ҳарорати, вақти ва шароити танланади. Пиролиз усулида фаоллаш жараёнида ҳароратнинг таъсирида учувчан бирикмалар, жумладан намликнинг миқдори, маълум ҳароратда углеводородлар ҳамда смола кўринишдаги масса ажралиб чиқади. Пиролиз жараёнидан сўнг ҳосил бўлган углеродли

материал таркиби дастлабки маҳсулотдан элементлари ва оксидлари миқдори билан фарқ қилади. Пиролиздан кейинги ҳосил бўлган ва фақат сирт юзаси фаоллашган углеродли сорбент макроструктурага эга бўлади, аммо бу тарздаги сорбентни санотанинг ишлаб чиқариш корхоналари учун тавсия этиш мукин эмас. Сабаби, ишлаб чиқариш корхоналарида сорбцион материаллар микро ва макро ҳамда мезоговакларнинг мавжудлиги билан қўлланилади. Шунинг учун пиролиз усулида олиб борилган тадқиқот усуллари асосида танланган макбул режимлардан кейинги босқич сув буғи еки кимёвий модификация усули билан олиб борилади. Бу усулларнинг қўлланилиши натижасида макроструктуралар билан қўшимча тарзда макроструктураларнинг ҳам очилиши юзага келади, сабаби сув буғи ва турли реагентларнинг таъсирлашуви натижасида ишлов берилиши натижасида юзага келиши макбул режимлари танланади. Ишлаб чиқариш корхоналарининг турли соҳаларида сорбентларни қўллашда уларни фаоллаштириб олиш технологиялари турли хилдаги хомашё асосидаги углеродли материалларни фаоллаштиришда энг кўп сув буғи ёки газ ердамида, шунингдек кимёвий фаоллантириш усулларида фойдаланган ҳолда амалга оширилади.

Маҳаллий хом ашёдан фойдаланиб, фаоллаштирилган углеродли адсорбент олиш муаммосининг долзарблигини ҳисобга олиб, экспериментал тадқиқотларни давом эттирган ҳолда, Ўзбекистон ўсимлик дунёсига кириб келган, республикамизнинг қатор вилоятларида (Андижон, Самарканд, Сирдарё, Наманган, Тошкент вилояти, Бухоро ва бошқа) кенг қўламда экиб кўпайтирилаётган Павловния дарахти асосида углеродли адсорбентлар олиш вазифасини ўз олдимишга мақсад қилиб қўйишнинг сабаби, ушбу дарахтдан ҳосил бўлаётган ёғоч чиқиндиларни мақсадли равишда ишлатиш ва адсорбент сифатида импорт маҳсулот ўрнига тавсия этишдан иборат.

Маҳаллий дарахт ёғочи чиқиндиларидан фойдаланиб углерод асосли адсорбентларни олиш учун бир неча турли комбинациялар асосида мақбули танланиб ва уларни икки хил пиролиз ва пар-газ усулда фаоллаштириш (анъанавий), шунингдек микротўлқинли печ ёрдамида вақт ва энергия сарфини тежаган ҳолда (ноанъанавий) фаоллаштириш усули амалга оширилиши натижасида адсорбентлар ассортименти кенгаяди. Фаоллаштирилган адсорбентларнинг селектив хусусиятини ўрганиш мақсадида уларнинг адсорбция жараёнида турли адсорбатлар билан ўзаро таъсир механизмини ўрганишда термодинамик параметрларини, яъни солиштирма сирт юзаси, кинетика, энтропия ва изотермалари таъқиқ этилиши билан яратилган адсорбентлар ассортиментининг қўлланилиш соҳалари тўғрисидаги маълумотларни олишга эришилади. Мазкур адсорбент ассортиментларининг физик кимёвий ва коллоид-кимёвий хусусиятлари, углерод асосли адсорбентларни сув-спиртли эритмалари таркибидаги сивуш мойлари ва альдегид, метилацетат ва этилацетатларни, шунингдек мева шарбатларини тиниқлаштириб тозалашда борадиган адсорбция жараёнини дастлабки ва кейинги хроматограмма натижалари адсорбентнинг адсорбцион қобилятини характерлайди. Маҳаллий дарахт ёғоч-чиқиндилари асосида фаоллаштирилган адсорбент ишлаб чиқиш технологиясини жорий этиш натижасида адсорбент ассортиментининг кўпайиши ва маҳаллий хомашё ҳамда чиқиндилар асосида олинган импорт ўринбосар адсорбентдан озик-овқат саноатида кенг фойдаланиш имконини беради.

Адсорбент олиш учун асосан табиатда учрайдиган турли дисперслик даражаси юқори бўлган сирти ва ички қисмлари юқори ғовақдорликка эга хомашё маҳсулотлари танланади.

Адабиётлардан маълумки, адсорбент олиш учун турли хомашё базаларидан, асосан, кокос қобиғи, турли мева данакларининг чиқиндилари, гуручнинг чиқинди қобиғи (гуруч қовузи), ёғоч опилкалари (кичик дисперсликдаги қириндилари) каби бошқа қатор шу каби кўплаб органик турдаги чиқиндилар ёрдамида ҳар хил турдаги адсорбентлар ишлаб чиқаришда хом ашё манбаи сифатида фойдаланилади. Адсорбция жараёнида яхши адсорбентлик талабига жавоб бериши учун хомашёларнинг юқори сирт юзаси, ғовақдор ҳажми, кам миқдордаги куллик даражаси муҳим рол ўйнайди. Адсорбент учун қўйиладиган талабларнинг энг муҳим кўрсаткичи – бу юқори солиштира сирт юзага эга бўлиши ҳисобланади.

Адсорбентларни ишлаб чиқиш ва уларни саноатнинг маълум соҳасида қўллаш учун тавсия этишда танланадиган хом ашёнинг таркиби ва углерод миқдори муҳим аҳамият касб этади. Табиатан ярим тайёр адсорбент ҳисобланган кўмир (кўнғир ва тошкўмир) хомашёсининг таркибидаги углеродларининг миқдори юқорилиги маълум, аммо яна шундай хом ашё тури мавжудки, улар табиатда кенг тарқалган бўлиб, унинг чиқиндисини қўллаб адсорбент сифатида фойдланиш кўпгина иқтисодий ва экологик муаммоларнинг ечими учун хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Sultan Alamand other. Preparation of activated carbon from the wood of Paulownia tomentosa as an Efficient adsorbent for the Removal of acid Red 4 and Methylene Blue Present in Wastewater// *Water* 2021, 13(11), 1453; <https://doi.org/10.3390/w13111453>
2. L.Ahmad,M.M.Loh,J..Aziz. Phosphorylated wood designed as bio sorbent for effectively removing Ni²⁺from wastewater // <https://doi.org/10.1016/j.dyepig.2006.05.034>
3. <https://www.sciencedirect.com/science/article/bs/pii/S0926669020306567>
4. <https://www.sciencedirect.com/science/article/bs/pii/S0926669022012109>
5. <https://www.mdpi.com/2073-4441/13/11/1453>

ЎСИМЛИК АСОСИДАГИ ЧИҚИНДИ ХОМАШЁСИ ТАРКИБИДАГИ КРЕМНИЙ ОКСИДИНИНГ РЕНТГЕНФАЗАВИЙ ТАҲЛИЛИ

¹Барноева Сайёра Бобомуродовна, ²Аҳророва Раъно Олим қизи, ³Жумоева Дилноза Жўраевна

¹ЎзРФА Умумий ва ноорганик кимё институти 2-босқич таянч докторанти,
barnoevasayyora@mail.ru


²ЎзРФА Умумий ва ноорганик кимё институти 3-босқич таянч докторанти,
rano.ahrorova@icloud.com

³ЎзРФА Умумий ва ноорганик кимё институти, т.ф.д., проф.
d.jumayeva@list.ru

Бугунги кунда ривожланаётган давлатлардасорбцион материалларга талаб ошиб бораётганлиги сабабли, кремний манбалари асосида олинган адсорбент саноат миқёсида долзарб муаммолардан бири бўлиб келмоқда. Айниқса, гуруч кўп етиштириладиган давлатлар, жумладан Ҳиндистон, Хитой, Ветнам, каби асосий гуруч ишлаб чиқарувчи мамлакатларга гуруч пўстлоғининг чиқиндилари миллионлаб тоннани ташкил этиши ҳақида аниқ фактлар мавжуд. Шу асосда гуруч кипиғи чиқинди сифатида кенг тарқалган хомашёлардан бири бўлиб, уни ёқиб юбориш экологияни сезиларли даражада ифлослантиргани сабабли, гуруч кипигидан самарали фойдаланиш йўллари соҳа


олимлари томонидан катта қизиқиш уйғотмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 17.04.2019 йилдаги ПҚ-4291-сонли ҳамда 21.04.2017 йилдаги ПҚ-2916-сонли Қарорларининг амалдаги ижросини таъминлаш мақсадида Республикамизда етиштирилаётган шоли маҳсулотидан ҳосил бўлаётган пўстлоқ чиқиндиларини қайта ишлаш орқали тоза реагент-кремний оксиди олишга эришиш ва дарахт поя чиқиндиларини фаоллаш усулин мақбул режимини танлаган ҳолда адсорбентлар ассортиментини кенгайтириш орқали экология муаммоларининг ечимига хизмат қилади[1-2].

Юқоридаги каби Қарор ижросини таъминлаш, қолаверса саноатнинг долзарб муаммолари ечими учун хизмати қиладиган масалалар муаммосига бағишланган тадқиқотларни амалга оширишда Ўзбекистон миқёсида тўпланаётган хомашё манбаларини билган ҳолда тадқиқот иши дастлаб кимёвий таркибини аниқлашдан бошланди. Дастлабки гуруч пўстлоғининг кимёвий таркиби ўрганилиб, унда юқори фоизларда кремний элементи маъжудлигини билаган ҳолда тадқиқот вазифалари амалга оширилди. Экспериментал тажрибалар давомида гуруч қипиғини турли чанглардан тозалаш мақсадида дастлаб ичимлик сувида, сўнггра эса дистилланган сувда ювилди ва уни 1% ли HCl да бир суткадавомида қолдирилди.




Қурити

б куйдирилган гуруч қипиғи кулидан олинган кремний диоксидининг физик-кимёвий хусусиятларини тадқиқотишуни кўрсатдики, гуруч пўстлоғининг органик таркибий қисмларида турлича функционал гуруҳлар учун хос минераллар маъжудлиги аниқланди[3-5]. Намуна таркибидаги кремний оксидининг миқдорини билиш мақсадида турли дисперсликлар бўйича кимёвий таркиби таҳлил қилинди ва танлаб олинган 1.8 дисперслик қийматига эга гуруч қипиғи кулининг миқдорида 98.3% миқдорда соф кремний диоксиди борлиги аниқланди. Тадқиқотларнинг давоми мазкур намуналарнинг физик кимёвий кўрсаткичларини амалга ошириш мақсадида рентгенфазавий таҳлиллари олиб борилди ва минералларнинг фоизларда тақсимланиши 1-расмда келтирилди.




1-Расм. Гуруч қипиғи кулининг минерал таркиби


Гуруч қипиғининг ўлчами ва дисперслик даражаси ва унинг таркибидаги минералларнинг миқдориға қанчалик таъсир қилиши ўрганилганда, ўз навбатида 1.8 дисперсликдаги гуруч қипиғидан олинган кул таркибидаги таҳлил тасвирларида кремний миқдори 58% ни, Sillimanite- $\text{Al}_2\text{O}_3 \cdot \text{SiO}_2$ да кремний миқдори 23.1% ни, Leucite- boron- $\text{K}(\text{AlSi}_2\text{O}_6)$ да кремний миқдори 7,2% ни, Helvine - $\text{Mn}_4[\text{S}](\text{BeSiO}_4)_3$ да кремний миқдори 5.9% ни, Danalite- $\text{Fe}_4\text{Be}_3(\text{SiO}_4)_3\text{S}$ да кремний миқдори 5,8% ни ташкил қилди.




Quartz high




Sillimanite



Leucite, boron



Helvine



Danalite

2-расм. Кристалл тузилиш хоссалари

Рентгенфазавий таҳлил натижаларида қайд этилган спектрда гуруч қипиғи кулининг органик таркибий қисмларида ҳар хил турли функционал гуруҳлар учун хос юқори нуқталарда келтирилган ютилиш спектрларида кремний энг юқори 1500 см тебранишли чўққилар билан намоён бўлади. Минералларнинг кристалл тузилиш хоссалари ўрганилганда ҳар бир кристалл панжарада ўзига хос фазовий тузилиш борлиги аниқланди. Улар бир-биридан атомларнинг жойлашиш тартиби орқали ва кремний атомларнинг миқдори орқали фарқ қилиши 2- расмда яққол намоён бўлди.

Олиб борилган тадқиқотлар ва таҳлил натижалари асосида гуруч қипиғининг ўлчами, яъни дисперслик даражаси унинг таркибидаги моддалар миқдорига қисман таъсир қилишини кўриш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. <https://eco.gov.uz/ru/activity/waste?numer=451>
2. Чукин Г.Д. *Химия поверхности и строение дисперсного кремнезёма*// 2008.172 с.
3. Ахророва Р.О., Барноева С.Б., Тошов Х.С. Технология получения чистого диоксида кремния// Наука молодых – Наука будущего Сборник статей III Международной научно-практической конференция. 2020 г., Р. 233-238
4. Патент РФ 2061656, Способ получения аморфного диоксида кремния из рисовой шелухи// Земнухова Л.А., Сергиенко В.И., Каган В.С., Федоришева Г.А., МПК С 01 В33/12
5. Aris, Priatama& Mikrajuddin, Abdullah&Khairurrijal. Titanium Dioxide-based Reusable Microporous Water Filter Using Silicon Dioxide as Filler// Jurnal Nanosains&Nanoteknologi (2009)
6. Жумаева Д.Ж., Ахророва Р.О., Эшметов И.Д., Барноева С.Б., Жумаева Г.Ю. Изотерма адсорбции паров бензола на кремнеземных адсорбентах//UNIVERSUM: Химия и биология: Электронный научный журнал. Выпуск №10(112) Октябр, 2023 г. Часть 1.
7. Dilnoza Jumaeva, Rano Akhrova, Sayyora Barnoeva, Orifjon Kodirov, Umidjon Rakhimov. Study of adsorption isotherms of polar and nonpolar molecules on silica adsorbents// Scientific and Technical Journal of NamIET. Volume 8, Issue 4, 2023 y.144-151p.

ГУРУЧ ҚИПИҒИ ХОМАШЁСИ ТАРКИБИДАГИ SiO_2 МИҚДОРИНИНГ УНИНГ ДИСПЕРСЛИГИГА БОҒЛИҚЛИГИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШ

Ахророва Раъно Олим қизи¹, Барноева Сайёра Бобомуродовна¹,

Жумаева Дилноза Жураевна²

¹Умумий ва ноорганик кимё институти, PhD докторант,

²Умумий ва ноорганик кимё институти, техника фанлари доктори, профессор

Бугунги кунга келиб, адсорбент ишлаб чиқиш учун Ўзбекистонда ҳам хом ашё базаси етарли захирага эга. Жумладан, йирик кўмир конлари (Ангрен кўмир кони (Тошкент), Шарғун кўмир ва Бойсун тошкўмир кони (Сурхондарё), Фарғона кўмир кони) [1-2], катта миқдорда инсон эҳтиёжидан келиб чиққан ҳолда экилаётган гуруч ва ундан ҳосил бўлган гуручнинг чиқинди қобиғи (Ўзбекистонда бир йилда ўртача бир тонна гуручдан 160 кг гуруч қобиғи ҳосил бўлади) [3], турли мева данаги (ўрик, олча, гилос, шафтоли, ёнғоқ, олхўри ва бошқа) [4-5] чиқиндилари каби кўплаб хом ашёлардан фойдаланиш мумкин.

Замонавий адабиётлар таҳлилидан маълумки, кремний элементи ер юзасида тарқалиши бўйича иккинчи ўринда туради. Асосан кварц қуми, минераллар таркибида учрайдиган кремний оксидининг миқдори тоза ҳолатда ажратиб олиш масаласи жуда муҳим ҳисобланади. Мазкур тадқиқот ишида тоза кремний оксидини ажратиб олиш масаласининг ечими хомашё сифатида гуруч пўстлоғини танлаш орқали амалга оширилишининг асосий сабаби мазкур хом ашёдаги кремний миқдорининг кўплиги, қолаверса тозалик миқдорининг юқори кўрсаткичларда ажратиб олиниши туфайли бўлади. Эксперимантал тадқиқотлар бугунги кунга қадар гуруч пўстлоғининг кимёвий таркибидан келиб чиққан ҳолда кремний оксидимиқдорининг гуруч қипиғи ўлчамига, яъни

дисперслик даражаси бўйича унинг таркибидаги моддаларнинг миқдорига таъсири ўрганилган. Бунда Хоразм воҳасида етиштирилган гуручнинг чиқинди пўстлоғи қипиғитурли ўлчамли дисперсликка эга элаклардан ўтказилди. Бунда маълум ўлчамдаги элаклдан ўтган гуруч қипиқларини алоҳидалаган ҳолда, HCl нинг 1%ли эритмасида ювиб қуритилди. Сўнгра қуриган, тайёр хомашёни 650°C ҳароратда муфель печда қуйдириб қули ажратиб олинди. Олинган қуларни ҳар бирини дастлаб, 1% ли HCl эритмасида, кейин эса нейтрал бўлгунча дистилланган сувда ювиб, SNOLмаркали қуриштиш печида 100-110°C ҳароратгачанамлиги 3 % бўлгунча қурилади. Тайёр намуналарни элемент таҳлилиамалга оширилади, мазкур натижалар 1-жадвалда келтирилган.

1-жадвал


Гуруч қипиғи қулининг минералогик таҳлили

№	Дисперслик, мм	SiO ₂ , %	Al ₂ O ₃ , %	P ₂ O ₅ , %	SO ₃ , %	K ₂ O, %	CaO, %	Fe ₂ O ₃ , %
1	0.075	98.3	0.828	0.636	0.018	0.054	0.031	0.126
2	1.1	98.9	0.460	0.117	0.026	0.109	0.059	0.197
3	1.4	98.0	0.947	0.079	0.071	0.200	0.117	0.351
4	1.8	98.3	0.581	0.702	0.033	0.054	0.199	0.088
5	2	98.7	0.644	-	0.036	0.142	0.067	0.265
6	2.4	99.2	0.402	0.108	0.028	0.048	0.029	0.069
7	2.5	98.1	0.444	-	0.041	0.128	0.052	0.141
8	2.8	98.7	0.621	0.050	0.044	0.140	0.076	0.242
9	3	98.9	0.535	0.049	0.034	0.108	0.058	0.186
10	3.2	99.0	0.445	0.151	0.060	0.082	0.044	0.152
11	3.5	98.2	0.596	0.071	0.035	0.130	0.067	0.217
12	4	98.2	0.556	0.075	0.029	0.114	0.067	0.198
13	4.5	98.8	0.529	0.123	0.029	0.131	0.067	0.185

Келтирилган жадвалдаги натижалардан фойдаланиб, гуруч қипиғида турли дисперслик бўйича SiO₂ нинг миқдорини таҳлил этганда SiO₂ (2.4 Ø) > SiO₂ (3.2 Ø) > SiO₂ (1.0:3.0Ø) > SiO₂ (4.5 Ø) > SiO₂ (2.0:2.8Ø) > SiO₂ (0.075:1.8Ø) > SiO₂ (3.5:4.0 Ø) > SiO₂ (2.5Ø) > SiO₂ (1.4Ø) кўринишдаги кетма кетлик қатор ифодаланади.


Юқоридаги жадвалдан кўриниб турибдики, гуруч қипиғининг ўлчами яъни дисперслик даражаси унинг таркибидаги моддалар миқдорига қисман таъсир қилади.

Таҳлил қилинган намуналар орасидан ўлчами 2.4 диаметр бўлган гуруч қипиғидан олинган кул таркибида энг кўп кремний диоксиди миқдори 99.2% ни ташкил қилди. Кейинги ишларимизда юқори натижани кўрсатган дисперслиги 2.4 диаметр бўлган кулнинг минерал таркиби таҳлилини кўриб чиқамиз. Кул таркибидаги минералларнинг фойизларда тақсимланиши 1-расмда келтирилган.




1-расм. Кул таркибидаги минералларнинг фойизларда тақсимланиши


Олинган натижалардан гуруч пўстлоғининг таркибидаги минераллар Keatite-21.6%, Tridymite-18.56%, Cristobalite-11.38%, Sodalite-12.86% каби миқдор кўрсаткичлар бўйича тарқалганини кўриш мумкин. Кремний диоксид таркибидаги минералларнинг фазовий тузилишлари тўғрисидаги маълумотлар 2-расмда келтирилган. Адабиётлардан маълумки, SiO_2 таркибида бир нечта минераллар мавжуд бўлиб, улардаги Si ва O_2 нинг миқдорига қараб фарқланади. Бунинг исботини юқорида келтирилган расмдан яққол кўришимиз мумкин. SiO_2 таркибидаги минераллар миқдорини таҳлил қилганимизда Китит 21,06% > Тридимит 18,56% > $\text{Na}_8 (\text{Al}_4\text{BeSi}_7\text{O}_{24}) \text{Br}_2$ -12,87% > Содалит 12,86% > Кристобалит 11,94% > O_2Si -11,33% миқдорларни ташкил этади.




O₂Si




Кристобалит (Ca, Al-bearing)




Тридимит



Китит



Содалит



Na₈ (Al₄ Be Si₇ O₂₄) Br₂

2-расм. 2.4 дисперсликдаги гуруч кипиғи кулининг минерал таркиби тасвирлари

Бундан кўриниб турибдики, биз таҳлил қилаётган 2,40 ли гуруч кипиғи кули таркибида 99,2 % SiO₂ бўлса, қолган 0,8 % ини китит, тридимит, содалит, кристобалит каби SiO₂нинг бошқа хил кўринишдаги минераллари ташкил этади. Бунда содалит минералининг формуласи Na₈[AlSiO₄]₆Cl₂ кўринишида бўлиб, унинг кимёвий таркиби Na₂O-25,5%, Al₂O₃-31,7%, SiO₂-37,1%, Cl-7,3% кўринишда ҳамда оз миқдорда K₂O ва Na₂O мавжуд.

Кристобалит - кварцнинг юқори ҳароратли полиморфик модификацияси ёки координацион тузилиш кремнийнинг паст ҳароратли тетрагонал псевдокубик модификацияси минералидир. Таркибида 46,99 % Si, 53,01 % O₂ мавжуд.

Тридимитминерали кристалли кремний диоксидининг полиморф модификацияларидан бири ҳисобланади. Силикат минералга Fe, Al, Na аралашмалари кенг тарқалган.

Китит дастлаб синтетик минерал, силикатнинг тетрагонал полиморфидир. Табиатда пайдо бўлганлиги сабабли, китит минерал сифатида тасдиқланган бўлиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Габрук Н.Г., Чуркина О.Н. Сорбенты на основе природного сырья // Материалы II Всерос. науч. конф. «Сорбенты как фактор качества жизни и здоровья», Белгород. - 2006 г. – с.52-55

2. Бачурин П.Я., Смирнов В.А. Технология водки и ликёроводочных изделий «Обработка водочных сортировок активным углем» Физико-химические основы обработки активным углем. НПП «Технофильтр» 2020 г. С.5.

3. Korobochkin V.V. Production of activated carbon from rice husk Vietnam // V.V. Korobochkin, N.V. Tu, N.M. Hieu// IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – 2016. – V. 43. – No. 1.

4. Пайгамов Р.А., Эшметов И.Д., Кулдашева Ш.А., Жураева Ф.Н. Термодинамика адсорбции паров бензола на пароактивированном угольном адсорбенте на основе ствола дерева чинары. Узбекский химический журнал. -2020. №2. С.3-9.

TERMOKIMYOVIY USULDA FAOLLASHTIRILGAN UGLEROD OLISH

Qo'chqarova Durdona Ilxomjon qizi NamMTI doktoranti,

Soliyev Maxammadjon Ismatullayevich NamMTI Kimyo kafedrasi mudiri, PhD., dots.

Ergashev Oybek Karimovich NamMTI Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, k.f.d., prof.

Faollashgan uglerod – maxsus usullar bilan ishlov berilgan uglerod bo'lib, uni olish uchun organik xom ashyo (tarkibida selluloza va lignin tutgan xom ashyolar xususan, guruch po'stlog'i, ko'mir, paxta poyasi, yog'och va boshqalar) havosiz muhitda uglerod bo'lmagan komponentlarni kamaytirish uchun qizdiriladi (bu jarayon karbonizatsiya deb ataladi). Keyin esa suv bug'i, ishqoriy eritmalar yoki boshqa moddalar bilan reaksiyaga kiritiriladi, bunda mikrog'ovak struktura hosil qilish uchun sirt o'zgarishga uchraydi (bu jarayon faollashtirish deb ataladi) [1]. Ishimiz paxta poyasi va paxta chanog'idan termokimyoviy faollantirish usuli bilan faollantirilgan uglerod olishga qaratilgan va bunda quyidagi metodikalardan foydalanilgan.

Faollashtirilgan uglerodni ishlab chiqarishda avvalo boshlang'ich material havosiz muhitda issiqlik bilan ishlov beriladi, buning natijasida undan uchuvchi moddalar (namlik va qisman qatronlar) chiqariladi. Termokimyoviy faollashuv natijasida organik moddalarning bir qismi yonib ketadi, qolgan qismi esa g'ovakli tuzilish bilan ajralib turadigan katta ichki yuzaga ega bo'lgan ko'mirga aylanadi [2].

Termokimyoviy faollashtirishni amalga oshirishda faollashtiruvchi vosita sifatida natriy (yoki kaliy) gidroksid ishlatiladi. Kimyoviy faollashtirish rejimida ligninni termokimyoviy faollashtirishda faollashtiruvchi vosita sifatida natriy gidroksid yoki kaliy gidroksidning

to‘yingan eritmasi (61-65%) ishlatilgan. Xom ashyoning namligini va ishqor eritmalarining konsentratsiyasini oldindan bilib, ular ma’lum nisbatlarda aralashtiriladi. Olingan yopishqoq massa metall retortaga quyiladi va faollashtirish haroratiga qadar isitiladigan pechga qo‘yiladi. Termik parchalanish boshlanishidan oldin reaksiya aralashmasi retortada quriydi.

Piroliz jarayonining oxirida retorta pechdan chiqariladi, sovutiladi va ichidan ko‘mir qoldiqlari chiqarib olinadi. Pirolizning qoldiq mahsulotlarini chiqarib olish suvli fazada amalga oshiriladi. Bunda sovutilgan retortani distillangan suv bilan to‘ldiriladi.

Keyingi jarayon ko‘mirni yuvish jarayoni hisoblanadi. Ko‘mir tarkibidagi ishqorni chiqarib yuborish uchun ko‘mirni uch marta yarim soat davomida qaynatiladi (har safar distillangan suvning yangi qismi bilan yuviladi) [3].

Yuvishlar oxirida ko‘mirning kul miqdorini kamaytirish uchun 0,5 N xlorid kislota eritmasi bilan ishlov berildi. Kislotali yuvishdan keyin filtrdagi qoldiq distillangan suv bilan yuviladi. Ko‘mirdagi kislotaning tugashi universal indikator qog‘ozi yordamida nazorat qilinadi.

Yuvilgan faol uglerod 105 °C haroratda mutlaqo quruq holatga qadar quritiladi, maydalanadi va o‘lchami 0,1 mm bo‘lgan elakdan o‘tkaziladi, keyin massasi o‘lchanadi.

Olingan faollantirilgan uglerodning adsorbentlik xossalari metilen ko‘ki, yod kabi organik va noorganik moddalarni yutdirish va boshqa usullar orqali o‘rhaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D.I.Qo‘chqarova, M.I.Soliyev. Uglerodlarni faollashtirish yo‘li bilan adsorbentlar olish va ularning qo‘llanilishi. “Fizikaviy va kolloid kimyo fanlarining fundamental va amaliy muammolari hamda ularning innovatsion yechimlari” Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. NamMTI, Namangan – 2024.
2. М.Г. Белецкая, Н.И. Богданович, Л.Н. Кузнецова, Ю.А. Саврасова Методы термохимической активации в синтезе активных углей из технических лигнинов. «Лесной журнал». 2011. № 6
3. К.А. Хвиюзова, Н.И. Богданович, Н.Л. Воропаева, В.В. Карпачев Активные угли, полученные методом термохимической активации соломы рапса химия растительного сырья. 2020. №1. С. 337–346.

FIZIKAVIY KIMYO FANI TEXNOLOGIYA SOHALARINI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI

Tirkashova Ozoda Shukurullo qizi, Vafoqulova Mohlaroy Azamatovna

Jizzax litexnika instituti talabalari

Bo‘riyev Aziz Abdumannonovich Jizzax politexnika instituti

Annontatsiya: Mazkur maqolada, fizikaviy kimyoning rivojlanishi, fizikaviy kimyoning vazifalari hamda texnologiya sohaslarini rivojlantirishdagi o‘rni haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Fizikaviy kimyo, Biologiya, diagnostika, oziq-ovqat, organizimlar, dori-darmon, texnologiya.

Juda qadim zamonlardan beri odamlar tevarak - atrofdagi tabiat bilan doimiy muloqatda bo‘lib, unga kimyoviy vositalar ta’sirida o‘zlari uchun zarur material va mahsulotlar yaratganlar. Masalan: metall eritish, shisha va sopol, gazlamalar uchun bo‘yoq tayyorlash, teri

oshlash, non yopish va boshqalar. Shu nuqtai - nazardan qarasak kimyo inson faoliyatining eng qadimgi sohasi ekanligiga ishonch hosil qilamiz. U hali fan emas, balki faoliyat sohasi edi. Kimyo hozirgi tasavvurimizdagi fanga aylanishi uchun ming yillar kerak bo'ldi. Kimyoviy bilimlar ko'lamini juda keng. Kimyo fani - atrofimizni o'rab olgan butun olamni, uning xilma - xil shakllarini va olamda sodir bo'ladigan turli tuman hodisalarni tekshiruvchi tabiat fanlaridan biridir. Tabiat, butun olam inson ongidan tashqarida va inson ongiga bog'liq bo'lmagan holda mavjuddir. Olam materiyadan iborat, mavjud narsalarning hammasi doimo harakat qilib turadigan materiyaning har xil turlaridir. Moddani chuqur bilish va undan inson farovonligi yo'lida foydalanish kimyoning hozirgi asosiy masalasidir. 1970 yilda Yaponiyaning "Omron"-firmasi SINIG (sret - don, Innovation -innovasiya, need-ehtiyoj, impetus -yugurish, cycle -sikl. «Innovasiyadan - ehtiyojga tomon») nazariyasini yaratib, unda jamiyat rivojlanishi o'z navbatida har bir fanning tadqiqot asosini, uning tarixini, alohida texnologiyasini sistemali o'rganishni talab qilishini ko'rsatdi. Bu nazariya tabiat sirlarini tushuntiruvchi fanlardan biri bo'lib qolmasdan, hayotdagi asosiy ishlab chiqaruvchi kuch hisoblanmish - kimyo faniga ham bevosita taalluqlidir. Kimyo fani kundalik turmushda kuzatilayotgan hodisalar va o'tkazilayotgan tajribalarning mohiyatini tushuntiradi. Kimyo fanining rivojlanishi boshqa tabiiy fanlar bilanuzviy bog'liqdir: 1. Kimyo fanining matematika fani bilan bog'liqligini qaraydigan bo'lsak: dastlab atom massasini aniqlanganligi, 1850 yilga kelib, kimyoviy reaksiya tezligi matematik ifodalanganligi, keyinchalik: differensial, integral, matematik statistika, hisoblash matematikasi, EHM, modellash, kimyoviy reaksiyalarni grafik tasvirlash va uni kimyo faniga tadbiqini ko'ramiz.

2. Fiziklar uchun kimyo bir obyekt sifatida qaraladi: moddalarning tuzilishi, kimyoviy reaksiyaga kirishish qobiliyati (fizikaviy kimyo) fizikaviy usullar yordamida o'rganiladi (YaMR, PMR, spektroskopiya va h.k.). 3. Biologiya fanini kimyo fani bilan bog'liqligini qaraydigan bo'lsak: bioorganik kimyo, biokimyo, bionoorganik kimyo (organizmdagi metallarning tuzilishi, tarkibi va ularning migrasiyasini o'rganishini ko'ramiz. (Mn, Fe, Cu, Co, Zn, Mo, va boshqalar). Ularning koordinasion birikmalari mas: $[\text{Co}(\text{NH}_3)_6]^{2+(3+)}$ oqsillarning bo'lakchalari bo'lgan aminokislotalarning asosini tashkil qiladi. Yuqorida keltirilgan metallar fermentlarning tarkibiy qismi bo'lib, ular " hayot metallari" deb ataladi.

Fizik kimyo — kimyoviy hodisalarni tushuntirish va ularning qonunlarini fizikaning umumiy prinsiplari asosida aniqlab berish bilan shug'ullanadigan fan sohasi. Kimyoviy termodinamika, kimyoviy kinetika, kataliz, sirt hodisalari, eritmalar, kvant kimyosi haqidagi ta'limotlar, molekular, ionlar, radikallarning tuzilishi va xossalari to'g'risidagi ta'limotlar Fizik kimyoning asosiy bo'limlari hisoblanadi. Fizik kimyo deyarli mustaqil bo'lim sifatida elektrokimyo, fotokimyo, kristallokimyo, radiatsion kimyo, fizik kimyoviy analiz kabi bo'limlarni ham o'z ichiga oladi. 1840-yilda G.I.Gess Fizik kimyoning asosiy qonunlaridan biri — kimyoviy o'zgarishlarda issiklik yig'indisining doimiyligini kashf kildi. 19-asr o'rtalarida P Bertlo va daniyalik termokimyogar X.Tomsen reaksiya issiqliklari haqidagi tasavvurlari bilan Fizik kimyoga katta hissa qo'shdilar. Nemis olimi V. Ostvald 1887-yil Leypsig universitetida ilk bor Fizik kimyo kafedrasini tashkil qildi. Fizik kimyo 19-asr oxirlarida mustakil fan sifatida ajralib chikdi. Fizik kimyoning 19-asrning 2yarmi va 20-asr boshlarida rivojlanishining o'ziga xos tomoni makroskopik, ya'ni bevosita tekshirilayotgan sistema va jarayonlarni o'rganishdan iborat bo'ldi. Ideal gazlar holat tenglamasi uzilkesil aniklab berildi (B. Klapayron, S.I.Mendeleyev). Termodinamika qonunlari kimyoviy va fazalar muvozanatlariga tatbiq etildi

Rezervuarining doimiy bo‘sh qismida rezervuar «nafas olishi» hisobiga havo kislorodi kirib, quyidagi reaksiya sodir bo‘lishi mumkin:



II- zonada H_2S va O_2 lar ta’sirida ham ekzotermik reaksiya sodir bo‘ladi.



III – zonada esa H_2S ta’siri yuk bo‘lib, neft tarkibidagi suvlar ta’sirida kislorodli korroziya bo‘lishi mumkin. IV zonada korrozion faollik: mineral tuzlar, H_2S va pH muhitning turli xilligi sababli murakkab korrozion jarayon sodir bo‘ladi. Rezervuarlar ichki sirti metallizatsion va konussimon purkash usullarida polimer materiallari bilan buyash rezervuar tubini esa polimer materiallar bilan koplash bilan, polimer materiallar bilan «plakirlash» yaxshi samara beradi. Shuningdek har xil adsorbentlarning qo‘llanilishi korroziya tezligining susayishiga olib keladi. Rezervuarlar yerga o‘rnatilganda, yoki bir qismi yerga kumilganda albatta tashqi korroziyadan himoya qilish uchun protektorlar qo‘llaniladi, ochiq joylari esa lakbuyoq bilan bo‘yaladi.

Protektor himoyasida protektorlarning zaruriy soni quyidagi formula orqali topiladi:

$$N = I / (I_{pr} \cdot Z), \text{ dona}$$

bu yerda: I – himoya uchun talab qilinadigan tok kuchi, A; I_{pr} – bir dona protektor tok kuchi, A; Z – protektor himoya koeffitsienti, 0,45...0,65

Himoya uchun talab qilinadigan tok kuchi:

$$I = 0,785 \cdot jD^2, \text{ A}$$

bu yerda: j – izolyatsiya holatiga bog‘liq bo‘lgan birlik iziga to‘g‘ri keladigan minimal himoya zichligi, mA/m²; D – rezervuar diametri, m.

Magistral quvurlarda transport qilinayotgan gazning bosimini oshirish, uni har xil zarrachalardan tozalash va sovutish uchun kompressor stantsiyalari quriladi. Kompressor stantsiyalar quvurlar buylab gidravlik hisoblar buyicha 100...150 km masofada o‘rnatiladi. kompressor stantsiyalari: kompressor usxlari, moyli chang ushlagich qurilmalari: haydovchi komplektorlar: nasos bilan jihozlangan suv ta’minoti tarmoqlari isitish sexlari va boshqa jihozlar bilan jihozlangan bo‘ladi.

Kompressor stantsiyalariga qo‘shimcha ravishda SO_2 va H_2S gazlaridan tozalash uchun, hamda gazni quritish uchun qurilmalar foydalaniladi. Detal qismlarini ichki korroziyadan himoya qilish uchun asosan zavod sharoitlarida polimer qoplamalar qoplanadi. Bunda polimer qoplamalar yuza sirti g‘adir-budurliki tozaligiga talab quyiladi. Chunki g‘adir-budurlik katta sirtlarda botiqlik buyicha korrozion jarayonlar sodir bo‘lib, chiziqlarning errozion yemirilishiga olib keladi. SO_2 va H_2S gazlaridan himoya qilish uchun ingibitorlar qo‘llaniladi.


Neft tarkibidagi qatlam suvlari va suvlarning mineral tuzlar eritmaları neft emulsiyalarining turg‘unligini oshiradi va transport qilishda jihozlarning korroziyasini keskin oshiradi. Qatlam suvlarining asosiy tarkibiy qismlaridan biri NaCl, CaCl₂ va MgCl₂, shuningdek, Mg (HCO₃)₂, Ca (HCO₃)₂, Fe (HCO₃)₂ tuzlari bo‘lib, ular qatlam suvida anionlar: (OH⁻, Cl⁻, SO₄²⁻, HCO₃⁻, CO₃²⁻, Br⁻) va kationlar (N⁺, K⁺, Na⁺, NH₄⁺, Mg⁺⁺, Ca⁺⁺, Fe⁺⁺, Ba⁺⁺, Li⁺⁺) ko‘rinishlarida dissotsiyalangan bo‘ladi. Qatlam suvida tarkibida kolloidlar – SiO₂, Fe₂O₃, Al₂O₃, gazlar – H₂S, CO₂, N₂, HCl; organik moddalar neften kislotalari va uning tuzlari bo‘lishi korroziya jarayonini mexanizmlarini o‘zgartiradi. Ingibitorning adsorbsiyalanishi natijasida qo‘sh elektr qavat strukturasining, shuningdek adsorbsion potensial ψ_2 sakrashining o‘zgarishi yuz beradi. Yuzaning bir qismini (Θ) plyonka bilan ekranlash orqali ingibitor uni $(1-\Theta)$ yuzada kechadigan korroziya jarayonidan bartaraf etadi.

Katodli va anodli ingibitorlar mos ravishda tegishli elektrod reaksiyalarini sekinlatadi, aralash ingibitorlar esa har ikkala reaksiya tezliklarini kamaytiradi. Metallidagi adsorbsiya va himoya qatlamlarining hosil bo‘lishi ingibitor zarrachalarining zaryadi va sirt bilan kimyoviy bog‘lar hosil qilish qobiliyati orqali izohlanadi.

Katodli ingibitorlar katod reaksiyalarini yoki metallning aktiv erishini sekinlatadi. Korroziyaning lokal ko‘rinishlarini oldini olish uchun anodli ingibitorlar samarali hisoblanadi. Ko‘p hollarda metallni yaxshi himoyalash uchun turli qo‘shimchali kompozitsiyadagi ingibitorlardan foydalaniladi. Bunda quyidagi holatlar kuzatiladi:

- aralashmadagi har bir tashkil etuvchining ingibirlash effekti qo‘shiladi, ya’ni additiv ta’sir;
- antagonizm, ya’ni aralashmada ma’lum bir komponentning bo‘lishi boshqasining ingibirlash ta’sirini susaytiradi;
- sinergizm, bunda kompozitsiya komponentlari bir-birining ta’sirini kuchaytiradi

Ingibitorlarning korroziya jarayonida ishtirok etgan va qatnashmagan hollaridagi korroziya tezliklarini solishtirish orqali ularning ta’sirini baholash yoki samaradorligini aniqlash mumkin. Qutblanish (anod va katod) egriliklarini chizish – ingibitorlarning ta’sir mehanizmini o‘rganish usullaridan biri hisoblanadi. 1-rasmda kislotali muhitdagi korroziya jarayoni uchun shunday egriliklar keltirilgan. Korroziya jarayonining biror bosqichini ingibitor orqali tormozlash qutblanishning kuchayishiga olib keladi. Ingibitorning ta’sir effekti qancha kuchli bo‘lsa, tegishli qutblanish egriligining qiyaligi shuncha tik bo‘ladi. 1-rasmda ingibitorli va ingibitorsiz kislotali eritmadagi katod (K) va anod (A) qutblanish egriliklari yarimlogarifmik koordinatalarda keltirilgan. Qutblanish egriliklarining chiziqli (Tafel) qismlarini ekstrapolyatsiyalash $Y_{e\text{kor}1}$ va $Y_{e\text{kor}2}$ korroziya potentsiallarini hamda $i_{\text{kor}1}$ va $i_{\text{kor}2}$ korroziya tezliklarini aniqlash imkonini beradi. Bu kattaliklarni taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, ingibitorli eritmada $Y_{e\text{kor}}$ yanada musbatroq tomonga siljiydi, korroziya tezligi esa kamayadi. Korroziya tezliklarining qiymatlari $i_{\text{kor}1}$ va $i_{\text{kor}2}$ ni bilgan holda ingibitorlarning effektivligini baholash, shuningdek himoyalash darajasi Z va tormozlash koeffitsienti γ ning qiymatlarini aniqlash mumkin.



1-rasm. Ingibitor ta'sirining Effek-tivligini tushunti-ruvchi qutblanish egriliklari.

A_1 va A_2 – anod qutblanish egriliklari; K_1 va K_2 – katod qutblanish egriliklari; K_1 va A_1 – ingibitor bo'lmagan hamda K_2 va A_2 – ingibitorli jarayonlar.

Qatlam suvlarini qayta foydalanishda suv tayyorlash qurilmalari, haydovchi nasoslar va quduqlar ichki korroziyasini kamaytirish uchun ingibitor qo'llaniladi. Bu muhitga kislorodning kirib qolishiga yo'l qo'yilmaydi, O_2 ning bo'lishi korroziyani keskin oshiradi.

Gardishli va rezkali birikmalarda yuritma oraliqlariga agressiv muhitning kirishi tufayli oraliqdagi korroziya jarayoni sodir bo'ladi. Ularni korroziyadan himoya qilish uchun iloji boricha birikmalar zichlanadi va birikmalar ustidan purkash yo'li bilan qoplamalar qoplanadi. Favvora quvurlari tekis korroziyaga uchraydi, armaturalari esa yarasimon korroziyaga hos bo'ladi. Shuningdek, zichlagich xalqalar, jumraklar yarasimon korroziyaga tezda uchraydi. Ba'zi hollarda korroziya tezligi 10 mm/yilga yetadi. Bu elementlarni korroziyadan himoya qilish uchun metall va nometall qoplamalar qo'llanishi yaxshi samara beradi.

Jihozlarning ishlanishida optimal texnologik rejimlarning o'rnatilishi, ularning detallari korroziyasini kamaytirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Ahamad, I., Quraish, M.A., 2010. Mebendazole: New and efficient corrosion inhibitor for mild steel in acid medium. *Corr. Sci.* 52, 651–656.
- 2.Шамшиев С., Гуро В.П., Штырлов П.Ю., Ахмедов М.Э., Хамидов В.Н. Ингибиторы коррозии стали для защиты теплообменного оборудования системы оборотного водоснабжения АНПЗ // УЗб. хим. журн. –Ташкент, 2004. -№ 3. -С. 60-65.
- 3.Panoev E.R., Do'stov H.B. Yuqori oltingugurtli gazlarni tozalashda mahalliy absorbentlarning ta'sirini tahlil qilish. *Fan va texnologiyalar taraqqiyoti. Ilmiy-texnikaviy jurnal.* 2021 y. – №3.– 130-135.
4. Panoyev Erali Rajabboyevich, Temirov Alisher Hoshim o'g'li, Akhmedov Vokhid Nizomovich —THE CORROSION PROBLEM IN THE OIL AND GAS INDUSTRY POLISH SCIENCE JOURNAL (ISSUE 10(43), 2021 – 247 p.

QUVUR VA QURILMA METALLARINING PASSIVLANISH JARAYONI VA PASSIVLANISHNING BUZILISHI

¹Qurbonova F.S., ²Ochilov A.A.

1. Bux MTI. tayanch doktorant; 2.Bux MTI. PhD, dots.

Zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarida maqbul material sifatida, murakkab tuzilmali bo'lmaganligi, arzonligi tufayli qo'shimcha ishlov berilmagan po'lat, foydalanilishi bo'yicha

dunyoda eng keng tarqalgan metall turi hisoblanadi. Shu bilan birga, uni ishlatishga bo'lgan qiziqish, ayniqsa kislotali va ishqorli muhitda korroziyaga nisbatan past qarshilik tufayli cheklangan. Korroziya ingibitorlaridan foydalanish, turli xil tadqiqotchilar tomonidan korroziya tezligini pasaytirish va shu bilan yirik sanoat ob'ektlari va jihozlaridagi yo'qotishlarni kamaytirish vositasi sifatida o'rganiladi.

Bugungi kunda Respublikamizda ingibitorlar asosan rus va nemis ishlab chiqaruvchilaridan import qilinmoqda va ular uchun talab suv ta'minoti tarmoqlarida, kimyo, neftkimyo, gaz sanoati, ayniqsa, elektrokimyo sohalarida yuqori bo'lmoqda.


Elektrokimyoviy korroziya qonuniyatlariga asosan metallning elektrod potentsial qiymatini musbat qiymati ortib borish tomoniga surilsa, anod jarayoni (metallning yemirilishi) tezligi ortadi. Shunday holat bo'ladiki, bu musbat potentsialning ma'lum qiymatida yemirilish jarayoni tezligi kamaya boshlaydi va bir necha martaga kam qiymatga tushib qoladi. Bu o'zgarish metallning anod jarayonida erishi vaqtida yuzaga keladigan "qiyinchilik"lar sababli yuz beradi.

Metall yemirilishining yuqori termodinamik imkoniyati bo'la turib, anod jarayoni tezligining keskin kamayib ketishi metallarning passivlanishi deyiladi. Bunday holatda metallning korroziya bardoshliligi ortadi. Bunday holat $\varphi_{Me}^E > \varphi_{Ox}^E$ munosabatda, oksidlovchi qaytarilishining yoki diffuziyasining yuqori o'ta kuchlanishi qiymati bilan ham yuzaga kelishi mumkin, lekin uning passivlanishga dahli yo'q.

Passivlanish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi (1-rasm):

- Muvozanat potentsialiga yaqin potentsiallar qiymatida uning ortishi metallning erish tezligini oshiradi, aktiv holat (1);
- Korroziya tezligi juda yuqori qiymatga ega bo'lgan kritik potentsial qiymati (φ_{kr}) dan o'tgandan so'ng korroziya tezligi kamaya boshlaydi, korroziyalanishning qo'shimcha qiyinchiliklari boshlanadigan holat (2);
- Potentsial qiymatining keyingi ortishidan qat'iy nazar korroziya tezligi kichik qiymatni tashkil etib, potentsial o'zgarishi bilan o'zgarmay qoladigan holat (3) passiv holat.


Metallning aktiv holatdan passiv holatga o'tish boshlanadigan potentsial qiymati passivlanishning kritik potentsiali deb aytiladi, bunga mos keladigan tokning zichligi - kritik passivlanish tok zichligi (i_{kr}) deyiladi.



1-rasm. Passivlangan metallning anod polarizatsiya diagrammasi.

1-aktiv holat. 2-aktiv passiv holat. 3-passiv holat.

Metallning to'liq passiv holatiga o'tish potentsiali to'liq passivlanish potentsiali (φ_{π}) deyiladi. Passiv holatda metallning korroziyalanish tezligi passiv holat tok zichligi - i_{pas} bilan o'lchanadi. Umuman, passivlanish va to'liq passivlanish potentsialining qiymatlari qanchalik kichik (yoki manfiy qiymatli) bo'lib, passivlanish toki zichligi ham kichik bo'lsa, ayni metall passiv holatga shunchalik oson o'tadi. Shu bilan birgalikda qanchalik i_{pas} kichik bo'lsa, metall ayni sharoitda shunchalik sekin korroziyalanadi.



3-rasm. Nikelning H₂SO₄ turli oksidlovchilar ta'sirida korroziyalanish polyarizatsiya diagrammasi.

1. O-Fe₂(SO₄)₃; 2. ■- H₂O₂; 3. ▲-K₂Cr₂O₇; 4. ●-KMnO₄; 5. Δ- Ce(SO₄)₂;

1- jadvaldan ko'rinib turibdiki, passivlanishga asosan d-metallar moyil bo'lib, bu ularning o'ziga xos kimyoviy va adsorbtion xususiyatlaridan kelib chiqadi. Molibden kuchli passivlanadigan metall bo'lib, undan keyin Ti va Cr turadi (3-rasm). Temirning passivlanishga moyilligi xromga nisbatan 300 marta kamdir.

1-Jadval

Ayrim metallarning passivlanishga moyilligini ifodalovchi kattaliklar


Meta	ϕ_{kr} (pas)	i_{kr} (pas) A/sm	I_{pas} , A/s	o'ta passivlanish, v.
Fe	+0,460	$2 \cdot 10^{-1}$	$7 \cdot 10^{-6}$	---
Ni	+0,150	$1 \cdot 10^{-2}$	$2,5 \cdot 10^{-6}$	+1,10
Cr	-0,35	$3,2 \cdot 10^{-2}$	$5,0 \cdot 10^{-8}$	+1,10
Ti	-0,25	$6,0 \cdot 10^{-5}$	$1,0 \cdot 10^{-6}$	---
No	-0,20	$1 \cdot 10^{-5}$	$1,5 \cdot 10^{-6}$	+0,40

Passivlangan metall potentsialini (tashqi manba yordamida yoki oksidlovchi ta'sirida) yanada kattaroq qiymat tomonga surilsa, korroziyalanish tezligi yana orta boshlaydi. Bu holatga o'ta passivlanish (aniqrog'i qayta passivlanish) deb aytiladi. Qayta passivlangan holatda, passivlangan holatga nisbatan korroziya maxsuloti tarkibida metall-ionning oksidlanish darajasi yuqoriligi bilan farq qiladi. 3-rasmda keltirilgan diagrammadan shuni ko'rish mumkinki, passivlanish oksidlovchining tabiatiga kam bog'liq bo'lib, metallning tabiatiga ko'proq bog'liq bo'ladi. Chunki:

- turli oksidlovchi qo'llanilsada, korroziyalanish turi (kimyoviy -elektrokimyoviy) o'zgarmaydi;

- oksidlovchi molekulasini asosan depolyarizator (elektronlarni qabul qilib oluvchi) vazifasini o'tab, potentsial keskin o'zgarishini ta'minlay olmaydi.


Passivlanish mexanizmi. Ma'lumki metallning yemirilishida avval uning suv molekullari bilan adsorbtiv ta'siri ro'y berib, {Me (H₂O)_n(ads)} holat yuzaga keladi; bu metall kristall panjarasidan metall-atomi (ortiqcha elektronlarini qoldirishi tufayli) eritmaga o'tadi:



metallning aktiv erish jarayoni ro'y beradi.

Potentsialning musbat qiymati tomonga siljishi $\{Me (H_2O)_n(acd)\}$ dagi $\{Me \dots O - (H)_2\}$ kimyoviy bog'lar kuchiga ta'sir etib $Me-O$ bog'i kuchayib, $O \dots (H)_2$ bog'lari kuchsizlanadi va oqibatda:

$Me(H_2O)_n(ads) = Me/O^{-2}m(ads) + 2mH^+ + 2me^-$ jarayon sodir bo'lib, metall sirti kislorod bilan to'yinib reaksiya qobiliyatini yo'qotadi. (4-rasm a,b).



4-rasm a,b. Metallar sirtining passiv holatga o'tish sxemasi.

Ushbu sxemaga asosan, metallni passivlashtiruvchilik vositasini H_2O molekulalari bajarib, unda erigan O_2 molekulalari uning sirtida qaytarilib elektronlarni tortib oladi va metallning potentsialini musbat qiymat tomoniga suradi. Bu metall bilan adsorbtsiyalangan kislorod-metall bog'ini mustahkamlaydi va metallni passivlashtiradi. Agar suvda suv molekulalariga nisbatan kislorodni oson beruvchi modda molekulalari bo'lsa, kislorodni oson berib passivator bo'ladi.

Passivlanish tufayli metall sirtida hosil bo'lgan $Me/O_2-m(ads)$ qavat bir tekis bo'lmasdan faqatgina bir qavat(monosloy)dan iborat bo'ladi. Bu holat passivlashgan metall sirtida ayrim nuqtalar korroziyaga moyil, ayrimlari esa - passiv holda bo'lishiga olib keladi va uning sirti kimyoviy jihatdan geterogen yuz bo'lib qoladi. Shu sababli passivlanishda "passiv-aktiv" holat mavjud bo'ladi. Passivlanish tufayli hosil bo'lgan passiv qatlam keyinchalik (adsorbtsiya kuchlari ortishi sababli) barqaror oksid parda holiga o'tishi va metall sirtida oksidlar hosil bo'lishiga sabab bo'ladi.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, passivlanish metallning potentsialini mos qiymatga musbat tomonga surish bilan amalga oshiriladi. Bunga oksidlovchining o'ta kuchlanishi kamayishi ($\eta''_{Ox2} < \eta'_{Ox1}$) yoki korroziya muhitning oksidlovchilik xususiyatini oshirish (oksidlovchilarning ko'shishi) bilan ($\phi^E_{Ox2} > \phi^E_{Ox1}$) erishish mumkin.

Oksidlovchilar ta'sirida passivlash bilan metallarni korroziyadan himoyalashda kuchli oksidlovchilar: HNO_3 , KM_4O_4 , $Fe_2(SO_4)_3$; H_2SO_4 , $K_2Cr_2O_4$, $Ce(SO_4)_2$ bilan birgalikda O_2 gazi ham ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ahamad, I., Quraish, M.A., 2010. Mebendazole: New and efficient corrosion inhibitor for mild steel in acid medium. Corr. Sci. 52, 651–656.

2.Шамшиев С., Гуро В.П., Штырлов П.Ю., Ахмедов М.Э., Хамидов В.Н. Ингибиторы коррозии стали для защиты теплообменного оборудования системы обратного водоснабжения АНПЗ // Узб. хим. журн. –Ташкент, 2004. -№ 3. -С. 60-65.

3.Panoev E.R., Do'stov H.B. Yuqori oltingugurtli gazlarni tozalashda mahalliy absorbentlarning ta'sirini tahlil qilish. Fan va texnologiyalar taraqqiyoti. Ilmiy-texnikaviy jurnal. 2021 y. – №3.– 130-135.

4. Panoyev Erali Rajabboyevich, Temirov Alisher Hoshim o'g'li, Akhmedov Vokhid Nizomovich —THE CORROSION PROBLEM IN THE OIL AND GAS INDUSTRY POLISH SCIENCE JOURNAL (ISSUE 10(43), 2021 – 247 p.

ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДА «STEP BY STEP» В ИЗУЧЕНИИ СПЕЦИАЛЬНЫХ ДИСЦИПЛИН.

Болтаева З.З. - Бухарский инженерно-технологический институт

«Step by Step» не имеет аналогов в мире, являясь квинтэссенцией лучших методик, основанных на теории Э. Эриксона, Ж. Пиаже, Л. Выготского, М. Монтессори, Песталлоцци, Фребеля.

Данная методика применима для всех направлений в изучении специальных дисциплин. Например, я применяю её в направлении бакавриата в Бухарском инженерно-технологическом институте в предметах «Метрология и стандартизация», «Метрология стандартизация и сертификация» на практических занятиях, где нужно определять метрологические характеристики приборов измерения, определять химический состав. Рассмотрим технику последовательно.

Шаг 1: установите четкие ожидания

Начните с установления четких ожиданий от совместной работы. Обсудите важность сотрудничества, определите преимущества командной работы и подчеркните важность умения слушать других, уважать различные точки зрения и активно участвовать в групповых мероприятиях.

Шаг 2: Обучайте навыкам общения

Научите учащихся эффективным коммуникативным навыкам, которые будут поддерживать их совместные усилия. Подчеркните активное слушание, четкое выражение идей и важность задавания вопросов и поиска разъяснений. Поощряйте их регулярно практиковать эти навыки.

Шаг 3: Продемонстрируйте стратегии сотрудничества

Смоделируйте учащимся различные стратегии сотрудничества и продемонстрируйте, как их можно реализовать. Покажите примеры эффективной командной работы, такие как разделение задач, распределение обязанностей и получение информации от всех членов группы. Предложите учащимся наблюдать и учиться на этих примерах.

В групповом обсуждении каждый член группы может предоставить свой вариант. Таким образом, студентам не нужно перемещаться в группе для обмена идеями. Это максимизирует взаимодействие студентов и сотрудничество в группе.

Шаг 4: Назначьте групповые роли и обязанности

Назначьте конкретные роли и обязанности в каждой группе, чтобы обеспечить сбалансированное участие и подотчетность. Роли могут включать лидера, фасилитатора, ведущего заметок, хронометриста и исследователя. Обсудите важность каждой роли и предложите учащимся менять роли с течением времени.

Шаг 5: Создавайте позитивную атмосферу в группе

Создайте позитивную и инклюзивную групповую среду, способствуя сотрудничеству, уважению и сочувствию среди учащихся. Поощряйте их ценить сильные

стороны друг друга, ценить различные точки зрения и поддерживать друг друга в обучении и росте.

Пошаговое руководство: обучение учащихся совместной работе – reshdn3

Шаг 6: Обеспечьте структурированные действия

Разработайте структурированные задания, требующие от учащихся совместной работы для достижения общей цели. Эти действия могут включать групповые проекты, задачи по решению проблем или обсуждения. Предоставьте четкие инструкции, временные рамки и критерии успеха, чтобы учащиеся оставались сосредоточенными и заинтересованными.

Шаг 7: Способствуйте осмыслению и обратной связи

Поощряйте студентов размышлять о своем совместном опыте. Предоставьте им возможность оценить свой собственный вклад и работу членов своей группы. Помогите им предоставить конструктивную обратную связь, выделив как сильные стороны, так и области, требующие улучшения.

Шаг 8: Оцените навыки совместной работы

Включите навыки совместной работы в критерии оценки. Оценивайте учащихся на основе их способности работать вместе, эффективно вносить свой вклад и демонстрировать командную работу. Оставьте отзыв об их навыках совместной работы и предложите предложения по улучшению.

Шаг 9. Поощряйте командообразующие действия

Организуйте тимбилдинговые мероприятия, чтобы укрепить связи между учащимися. Эти мероприятия могут включать в себя игры на ледоколе, групповые задачи или проекты общественных работ. Культивируя позитивные отношения, студентам станет более комфортно работать вместе и эффективно сотрудничать.

Шаг 10: Усиьте позитив и рост

Отмечайте успехи и прогресс, достигнутый студентами, работающими вместе. Распознавайте и подкрепляйте позитивное поведение, такое как умение слушать других, разрешать конфликты и поддерживать друг друга. Подчеркните рост и обучение, которые происходят в результате совместной работы.

Следуя этому пошаговому руководству, вы сможете эффективно научить учащихся тому, как работать вместе. Развивая свои навыки сотрудничества и общения, студенты будут лучше подготовлены к успеху в групповых проектах, решении задач и будущих совместных усилиях как в группе, так и за ее пределами.

Литература

1.Подготовка педагогов профессионального обучения с учётом требований современной системы образования. БЗ Зарифовна Молодой ученый, 772-774.

2.Модернизация образовательных технологий-путь развития инновационного общества. 33 Болтаева Молодой ученый 2 (№ 9 (195)), 141-143.

3.COLLABORATIVE ENVIRONMENT AS AN EFFECTIVE FORM OF STUDENTS'RESEARCH ACTIVITY Z Boltaeva European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 7 (11)

4.Formation and Content of Research Activities in Bachelors training Z. BOLTAEVA TJE-Tematics journal of Education ISSN, 2249-9822

5. К вопросу о личностно ориентированном подходе к развитию познавательной активности студентов в условиях коллаборативной среды. 3.3. Болтаева Молодой ученый, 252-255

FEATURES OF STUDENTS'RESEARCH AND LEARNING RESOURCES

ГАЗНИ НОРДОН КОМПОНЕНТЛАРДАН АЖРАТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ УСУЛЛАРИ.

¹Обидов Ҳ.О., ²Исаев Б.Н.

1. Бухоро муҳандислик – технология институти, мустақил изланувчи

2. Бухоро муҳандислик – технология институти, талаба


Олтингугуртдан тозалашга муҳтож бўлган газ хомашёси – бу табиий газлар, йўлдош нефт газлари, кокс ва ёқилғи газлари, биогазлар ва бошқалардир. Газлардаги олтингугурт сақлаган газлар заҳарли ва коррозияга агрессив, шунинг учун фойдаланишдан олдин бу газларни олтингугуртдан тозаланади. Олтингугуртдан тозалашни кимёвий реакциялар ёрдамида дастлаб газларни юттирмасдан ўтказиш мумкин, аммо бундай жараёнлар талаб қилинадиган натижаларга эришиш учун юқори ҳароратларни, каталитик реактор ишлашининг қаттиқ шароитларини талаб қилади. Шунинг учун водород сульфидни гетерофазали каталитик конверциялаш қурилмалари йирик газни қайта ишлаш корхоналари таркибида эксплуатация қилиш учун мақбулдир. Нефт конлари шароитида жорий қилиш учун водород сульфидни газ оқимидан турли ютувчилар билан ажратиб олишга асосланган усуллар истиқболли бўлиб ҳисобланади [1].

Сорбцион усулларни шартли равишда иккита гуруҳга – абсорбцион ва адсорбционга бўлиш мумкин. Улардан ҳар бири ажратиб олинадиган компонентларнинг физикавий ютилиш усуллари бир қаторда уларни кимёвий боғлаш усулларини ҳам ўз ичига олади.


Карбонат эритмалари билан тозалаш

Бу жараёнлар натрий ва калий карбонатлари сувдаги эритмаларининг газдаги асосий олтингугурт сақлаган бирикмаларига (меркаптанлардан ташқари) нисбатан хемосорбцион фаоллигига асосланган. Жараёни, ютувчининг ютувчанлик қобилиятини оширадиган турли фаоллаштирадиган қўшимчаларни қўшиш билан такомиллаштирадиганлар [2].

Бу эритмаларнинг газдаги олтингугуртли бирикмалар ва углерод (IV) – оксиди билан таъсирлашишида, регенерациялаганда осон парчаланадиган бирикмалар ҳосил бўлади:



Вакуум – карбонатли жараёнда тозаланадиган газ насадкали қарама – қарши оқимли абсорберда натрий карбонатнинг суьултирилган эритмаси билан таъсирлашади. (1 - расм). Тўйинган эритма буғ билан ишлов бериш устунининг юқорисига етказиб берилади, у ерда нордон компонентларни вакуумда ҳайдаш билан у регенерацияланади. Регенерацияланган эритма буғ билан ишлов бериш устунининг пастидан олинади, эритма совутгичи орқали ўтади ва абсорберга қайтиб келади. Буғ билан ишлов бериш устунининг юқорисидан чиқаётган газлар H_2S , CO_2 ва сув буғларидан иборат.



1.– расм. Газни вакуум – карбонатли тозалаш жараёни схемаси.

1-абсорбер; 2 – буғ билан ишлов бериш устуни, 3-конденсат йиғгичи, 4-вакуум-насос, 5-совутгич.

Тузларнинг сувдаги эрувчанлиги ҳарорат оширилганда ошади, шунинг учун тозалашда анча концентрланган эритмалар қўлланиши мумкин. Калий тузларининг сувдаги эрувчанлиги натрий тузларинг эрувчанлигига қараганда юқори бўлганлиги сабабли, поташ – жараён энг кенг тарқалган. Бу жараёнда ютувчи сифатида, газни H_2S , CO_2 , COS ва CS_2 дан тозалайдиган 25-35% ли K_2CO_3 аралашмасини қўллайдилар. Сорбция $110-115\text{ }^{\circ}C$ ҳароратда ва 2-8 МПа босимда ўтказилади. Тўйинган эритма регенерациясини деярли ўша ҳароратларда ($115-120\text{ }^{\circ}C$) аммо паст, атмосфера босимида яқин бўлган босимда амалга оширилади.

Иссиқ поташ билан тозалаш жараёнини CO_2 нинг миқдори юқори ва нордон газларнинг умумий концентрацияси 5-8% бўлган газлар учун қўллаш мақсадга мувофиқ.

Газларда мавжуд бўлган CO_2 олтингутуртдан тозалашда нохуш компонент бўлиб ҳисобланмайди, чунки у абсорбентни регенерациялашда жараён қайтарлигини яратиш учун зарур. Икинчи томондан жараён дастлабки газдаги карбонат кислотанинг парциал босими бўйича чекловга эга, у тозаланган газда водород сульфиднинг қолдиқ миқдорини аниқлайди [1].

Адабиётлар

1. Ахмедов В. Н., Обидов, Ҳ. О. Экспанзер газини CO_2 ва H_2S дан тозалаш жараёнидаги кимёвий реакцияларнинг йўналишини ҳисоблаш. Фан ва технологиялар тараққиёти журнали, 2022, № 7, 25-29 бет
2. Паноев, Э. Р., Обидов, Х. О., Мирзаев, Э. Э., & Дустов, Х. Б. (2021). Механизм сорбции кислых компонентов природного газа абсорбентами. *Science and Education*, 2(4), 221-226.

ЕКСПАНЗЕР ГАЗЛАРИНИ НОРДОН КОМПОНЕНТЛАРДАН ТОЗАЛАШДА АРАЛАШ КОМПОНЕНТЛАРНИНГ ТАНЛАНИШ ТЕРМОДИНАМИКАСИ.

¹Obidov H.O., ²Isayev B.N.

1. Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, mustaqil izlanuvchi
2. Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, talaba

Bugungi kunda dunyoda tabiiy gazni kislotali tarkiblardan (vodorod sulfid va karbonat anhidrid) tozalashning mavjud bo‘lgan usullari bir qator texnologik va texnik-iqtisodiy

ko'rsatkichlar bo'yicha ekspanzer gazini vodorod sulfiddan tozalash uchun tavsiya etilmaydi. Shuning uchun yo'ldosh gazni maqbul qo'llash muammosiga va uni tayyorlash texnologiyalariga yangi yondoshuvlarni ishlab chiqish dolzarb masala bo'lib hisoblanadi. Gazlarni oltingugurtsizlantirish uchun eng oddiylaridan bo'lgan suyuq yutuvchilar bilan bir qatorda qattiq yutuvchilarni ham qo'llash xemosorbsion jarayonlar guruhi hisoblanadi.

Kimyoviy termodinamika (yoki issiqlikning umumiy nazariyasi) jismlar va moddalardagi bir qator murakkab makroskopik jarayonlarni o'rganadi. Shu bilan bir qatorda termodinamik jarayonlar moddalardagi atom va molekulalar bilan bog'liq bo'lgan hodisalarni ham o'rganadi. Kimyoviy reaksiyalar yo'nalishini aniqlash uchun ularning ba'zi termodinamik ko'rsatkichlari (entalpiya, entropiya va Gibbs energiyasi) zaruriy hisoblanadi [2]. Ekspanzer gazlarini kislotali tarkiblardan tozalash uchun bugungi kunda 3 xil usuldan foydalaniladi. Ular adsorbsiya, absorbsiya va katalitik usullardir. Adsorbsiya va absorbsiya usullari bir qator fizik-kimyoviy jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Ekspanzer gazlari tarkibidagi kislotali gazlarni ajratish jarayonidagi kimyoviy reaksiyalarda ishtirok etuvchi moddalarning ba'zi termodinamik parametrlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Ekspanzer gazlarni kislotali komponentlardan tozalashda ishtirok etuvchi moddalarning standart termodinamik parametrlari


Moddalar va ularning tuzilishi	$\Delta H^{\circ}_{h.b., 298,15}$ kJ/mol	$\Delta G^{\circ}_{h.b., 298,15}$ kJ/mol	$S^{\circ}_{298,15}$ J/(mol·K)
NaHCO ₃ (kr.)	-949,08	-851,1	101,3
Na ₂ CO ₃ (kr.)	-1129,43	-1045,7	135,0
Na ₂ CO ₃ 10H ₂ O (kr.)	-4077	-3906	2172
Na ₂ S (kr.)	-374,47	-358,13	79,50
H ₂ S (g)	-20,9	-33,8	205,69
CaCO ₃ (kr.)	-1206,8	-1128,4	91,7
Ca(OH) ₂ (kr.)	-985,1	-897,1	83,4
CaS (kr.)	-476,98	-471,93	56,61
NaOH (kr.)	-495,93	-379,8	64,43
NaOH (erit.; 20H ₂ O)	-470,53	-	-
NaOH (erit.; 50H ₂ O)	-470,17	-	-
NaOH (erit.; 100H ₂ O)	-469,98	-	-

NaOH (erit.; 1000H ₂ O)	-470,10	-	-
NaOH (erit.)	-470,45	-419,44	48,0
CO ₂ (g)	-393,51	-394,38	213,67

Bugungi kunda ekspanser gazlarining kunlik chiqarilishi o'rtacha 200 m³ ni tashkil qiladi. Tarkibida 8-8,8% H₂S, 3-3,7% CO₂, 1-1,2% suv bug'i, 0,2% gacha MDEA, qolgani esa CH₄ gazi hisoblanadi[1]. Ekspanzer gazlarini tozalash jarayonida tanlangan absorbsion eritmalarida quyidagi kimyoviy reaksiyalar amalga oshadi:




Ushbu jarayonlar bilan bir qatorda CO₂ va H₂S bilan MDEA ning o'zaro reaksiyasi ham amalga oshadi. Biroq hosil bo'lgan tuzsimon birikmalar gidrolizga uchraydi:



Absorbsiya jarayonida bo'ladigan kimyoviy reaksiyalar asosida quyidagi natijalar olindi va tegishli xulosalar chiqarildi. CO₂ va H₂S ning Ca(OH)₂ bilan ta'sirlashishi natijasida cho'kma hosil bo'lishini bilgan holda, cho'kmalarning qaysi biri nisbatan ko'p hosil bo'lishi aniqlandi. Bunda cho'kmalarning eruvchanlik ko'paytmasidan foydalanildi. Cho'kmalarning eruvchanlik ko'paytmalari quyidagicha: $E_{\text{KCaCO}_3} = 3.8 \cdot 10^{-9}$, $E_{\text{KCaS}} = 1.3 \cdot 10^{-8}$. Eruvchanlik ko'paytmalaridan ko'rinib turibdiki, jarayonda yuqori unum bilan faqat CaCO₃ hosil bo'ladi.

$$E_{\text{KCaCO}_3} = [\text{Ca}^{2+}] \cdot [\text{CO}_3^{2-}] = 3.8 \cdot 10^{-9} \text{ mol}^2/\text{l}^2$$

Ushbu texnologik jarayonda parallel ravishda quyidagi reaksiya ham boradi:



Endi ushbu reaksiyaning Gibbs energiyasini hisoblab chiqamiz.

$$\Delta H = H_{\text{mah.}} - H_{\text{dast.}}$$

$$\Delta H = (H_{(\text{Na}_2\text{S})} + H_{(2 \cdot \text{H}_2\text{O})}) - (H_{(\text{H}_2\text{S})} + H_{(2 \cdot \text{NaOH})})$$

$$\Delta H = (-374.47 - 2 \cdot 285.83) - (-20.9 - 2 \cdot 470.45) = 15.67 \text{ kJ}$$

Kimyoviy reaksiyaning entalpiyasi hisoblangandan keyin uning entropiyasini hisoblaymiz:

$$\Delta S = S_{\text{mah.}} - S_{\text{dast.}}$$

$$\Delta S = (S_{(\text{Na}_2\text{S})} + S_{(2 \cdot \text{H}_2\text{O})}) - (S_{(\text{H}_2\text{S})} + S_{(2 \cdot \text{NaOH})})$$


$$\Delta S = (79.5 + 2 \cdot 69.91) - (205.69 + 2 \cdot 48) = -82.37 \text{ J} = -0.08237 \text{ kJ}$$

Entalpiya va entropiya qiymatlari hisoblangandan so'ng ular orqali Gibbs energiyasini hisoblab olamiz.

$$\Delta G = \Delta H - T \Delta S$$

$$\Delta G = 15.67 - 298 \cdot (-0.08237) = 40.21 \text{ kJ}$$

Natijada reaksiyaga kirishmagan vodorod sulfidi NaOH bilan Na₂S hosil qiladi. Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, Gibbs energiyasini hisoblaymiz va CaCO₃ ning reaksiya yo'nalishini aniqlaymiz.



$$\Delta H = H_{\text{mah.}} - H_{\text{dast.}}$$

$$\Delta H = (-1206.8 - 285.83) - (-985.1 - 393.51) =$$

$$= (-1492.63) + (1378.61) = -114.02 \text{ kJ}$$

$$\Delta S = S_{\text{mah.}} - S_{\text{dast.}}$$


$$\Delta S = (91.7 + 69.91) - (83.4 + 213.67) = -135.46 \text{ J}$$

Termodinamik parametrlardan entalpiya va entropiyalar hisoblangandan so'ng ular asosida CaCO₃ hosil bo'lishidagi Gibbs energiyasini hisoblab topamiz.

$$\Delta G = \Delta H - T\Delta S$$

$$\Delta G = -114.02 - 298 \cdot (-135.46 \cdot 10^{-3}) = -73.65 \text{ kJ}$$

Shunday qilib, Gibbs energiyasining qiymati -73.65 kJ tashkil etdi. Bu esa o'z-o'zidan boruvchi reaksiyalar sinfiga kirishini anglatadi.



Yuqoridagi hisoblashlar asosida CaS ning ham hosil bo'lishidagi Gibbs energiyasini aniqlab olamiz.

$$\Delta H = (-476.98 - 2 \cdot 285.83) - (-985.1 - 20.9) =$$

$$= (-1048.64) + (1006) = -42.64 \text{ kJ}$$

$$\Delta S = (56.61 + 2 \cdot 69.91) - (83.4 + 205.69) = -92.66 \text{ J}$$

$$\Delta G = -42.64 - 298 \cdot (-92.66 \cdot 10^{-3}) = -15.03 \text{ kJ}$$

CaCO₃ va CaS cho'kmalarining Gibbs energiyasini taqqoslab, CaS ning energiyasi yuqori ekanligini aniqlandi. Bu esa CaS cho'kmasiga nisbatan CaCO₃ hosil bo'lish tezligi va unumi yuqori ekanligini bildiradi[2].

Адабиётлар

1. Технологический регламент на эксплуатацию сероочистной установки Учкыр. ТР 20982991- 5: 2009

2. H.O.Obidov. Tabiiy gazni xemosorbsion usulda tozalash jarayonini takomillashtirish. Fan va texnologiyalar taraqqiyoti. Ilmiy-texnikaviy jurnal. 2021, № 6, 70-76 b.

BIOACTIVE SUBSTANCES AND THEIR BENEFICIAL PROPERTIES CONTAINED IN CONIFEROUS PLANTS EXTRACTS

Yodgorova Ma'mura Orifovna

Doctoral student, Bukhara Engineering Technological Institute

Bakhriddinova Shahzoda Umrzak's daughter

Bukhara Engineering Technological Institute, 118-22 MSM group student

Coniferous plants are characterized by the needle-like structure of their leaves, which are generally common in cold climates and dry regions. Types of conifers such as camellia, pine, cedar, spruce are widespread.

Coniferous plants are usually found in forests and mountainous areas. They are also preferred plants for landscaping and landscaping purposes, as they are popular for their low maintenance requirements, durability and aesthetic appearance.

One of the useful properties of conifers is that they release phytoncides and free the air from pathogens. It is this property that is the basis for studying the antimicrobial efficiency of various extracts from coniferous plants. Today, issues of public health protection and promotion have become a subject of great attention by the state and society. Because public health is the most important task of the state. Therefore, after the COVID-19 pandemic, the problem of prevention of infectious diseases and the development of all available antimicrobial drugs became more acute.

Coniferous plant extracts can be used in aromatherapy, traditional medicine, cosmetics, cleaning products and food industry. For example, pine oil has a soothing effect in aromatherapy and is used in many cosmetic products.

Coniferous in plants different different bioactive compounds there is . To these air oils , resins , tannins and another phytochemical substances enters This of compounds most of them antioxidant , inflammation against and to microbes against properties have and to health positive effect to show can

For this purpose, we carried out experimental work in order to study the chemical composition and field of application of coniferous plants growing in the territory of Uzbekistan.

Juniperus virginiana) , one of the coniferous plants resistant to our climate and perennial, was selected. Dry 20-30 cm coniferous branches of juniper were hydrodistilled for 3 hours in a glass flask and a Clevenger nozzle, and essential oil was extracted from it. The essential oil yield is 0.22%, The obtained essential oils are pale yellow in color and have a characteristic odor. The liquids were stored in ampoules at 4 °C with the mouth closed until the analysis process .

Extracts and essential oils obtained were analyzed on an Agilent 5975S inert MSD/7890A GC chromatography-mass spectrometer. Separation of components on an Agilent HP-INNOWax column (30 m ×250 µm ×0.25 µm) temperature: 60 °C (2 min) - 4 °C/min ut 220 °C (10 min) - 1 °C/min do 240 °C (10 min) . The volume of the current sample µwas 0.2 l, the flow rate of the phase (H₂) was 1.1 ml/min . The components were determined by comparing the characteristics of the mass spectra with the data of electronic libraries on chromato-mass spectrum.

According to the obtained results, essential oil contains a lot of chemical substances, which are used in the field of medicine and cosmetology.

[3-Carene](#) belongs to the monoterpene group and has a sweet and pungent smell. It is a colorless liquid that is insoluble in water, but miscible with oils and fats. [3-Carene](#) is used in the perfumery industry and as a chemical intermediate.

[Myrcene](#) is an acyclic natural monoterpene. It is an oily liquid with a pleasant fruity smell. [Myrcene](#) is soluble in ethanol and insoluble in water. It is easily oxidized in air. [Myrcene](#) is used in the synthesis of fragrances.

[α -Terpinene](#) it is a monoterpene alcohol naturally derived from pine oil, as well as a synthetic chemical. [α - Terpinene](#) Disinfectant is the main substance.

[d -Limonene](#) is a common terpene and is a major component of nearly all citrus and many other essential oils and orange peel oil. d -Limonene is multi-functional and is used not only for fragrance, but also for cleaning household cleaners. It is used as a solvent to remove nail polish and degrease the skin of the hands.

[cis -3-Hexenyl acetate](#) is a colorless liquid with a strong odor of fresh green grass. This product is used as a flavoring agent in food and beverages, especially in fruity or mint flavored varieties.

1-Hexanol is an organic alcohol. It is a colorless liquid, slightly soluble in water, but miscible with diethyl ether and ethanol. It is mainly used in the perfumery industry.

Linalool oxide is a chemical compound found in flowers and herbs that has a pleasant smell. It is used in the production of soaps, fragrances, food additives, household products and insecticides.

Camphor is a white crystalline substance, a terpenoid. Used as medicine - respiratory stimulant, analeptic. As a local irritant, it is included in ointments or used independently. Herbal medicine with antiseptic, local irritant, local analgesic and anti-inflammatory effects. By stimulating the sensitive nerve endings of the skin, it expands blood vessels and improves the trophism of organs and tissues.

According to the results of the study, the antibacterial properties of coniferous plants have been known to mankind for a very long time. Phytoncides secreted by coniferous plants are the initial components for the formation of biologically active substances - immunostimulants. In addition, plantations (plantations) of coniferous plants in recreation centers and sanatoriums have the ability to treat various diseases of the respiratory tract, cardiovascular system and musculoskeletal system in people due to their medicinal properties.

In particular, preparations with antibacterial properties based on plant raw materials are used for various anti-inflammatory, blood pressure lowering, smooth muscle relaxation and mouth rinses.

REFERENCES

1. Kafarov V V and Dorokhov IN 1976 *System analysis of the processes of chemical technology* (Moscow.: Nauka) p 500
2. Artikov A A , Mamatkulov A Kh and Khamidov NI 1994 Analysis and synthesis of bio-heat and mass transfer processes *Fan* (Tashkent) 155
3. Knyazeva, S.G. Variability of morphological characters of Siberian juniper species // *Lesovedenie*. - 2007. - But. 1. - pp. 65-69.
4. Djuraev , K., Yodgorova , M., Usmonov , A., & Mizomov , M. (2021, September). Experimental study of the extraction process of coniferous plants. In *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* (Vol. 839, No. 4, p. 042019). IOP Publishing .
5. Yodgorova M.O. (2022). DETERMINATION OF BIOLOGICALLY ACTIVE SUBSTANCES BY MODERN METHODS. *The American Journal of Engineering oath Technology* , 4 (02), 5-8.
6. Djurayev , K., Yadgarova , M., Khikmatov , D., & Rasulov , S. (2021, September). Mathematical modeling of the extraction process of coniferous plants. In *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* (Vol. 848, No. 1, p. 012013). IOP Publishing .

MAHSULOTLAR SIFATI VA RAQOBARDOSHLIGINI BAHOLASH

Shuxrat Xikmatilloevich Xaydarov

Buxoro muhandislik-texnologiya isntituti assistenti

Mohinur Ozodova Umarbekovna (120-23 MSM guruh talabasi)

Maqolada oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sifatini baholash hamda uning raqobatbardoshligi tahlil qilish usullari keltirilib o‘tilgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida

mahsulotlarning raqobatlash qobiliyati hamda iste’molchilar uchun sifat ko‘rsatkichlarining assosiy o‘rnatilgan talablari aks ettirilgan.

Mahsulot sifati uning maqsadi va belgilangan iste’mol sharoitlariga muvofiq muayyan ehtiyojlarni qondirish uchun ushbu mahsulotning yaroqlilik darajasini belgilovchi iste’mol xususiyatlarining yaxlit to‘plami sifatida tushuniladi. Sifat mahsulotning rivojlanish bosqichida shakllanadi va ishlab chiqarish jarayonida ta’minlanadi, ya’ni bevosita foydalanish shartlariga bog‘liq emas. Iste’mol xarajatlarining foydali o‘lchovi sifatida, sifat faqat ma’lum iste’mol sharoitida baholanishi mumkin.

Ishlab chiqarish, sinov va sertifikatlashtirish, sotib olish hamda iste’mol qilishda mahsulot sifatini baholashda sifat ko‘rsatkichlari qo‘llaniladi. Bunga quyidagi yagona ko‘rsatkichlar kiradi:

- mahsulotning xususiyatlarini tavsiflovchi talablar, uning asosiy funksiyalarini belgilovchi va bajarilishi uchun mo‘ljallangan qo‘llash sohasi;

- mahsulotning xususiyatlarini belgilaydigan ishonchlilik mahsulotning barcha parametrlarining belgilangan chegaralarida va muddatlarda saqlab qolinishi. Ishonchlilik, chidamlilik, ta’mirlash, saqlash ko‘rsatkichlari asosiy funksiyalarini bajarish qobiliyatini tavsiflaydi;

- xom-ashyo, materiallar, yoqilg‘i, energiya va mehnat resurslaridan foydalanish. Masalan, tartibga solinadigan sharoitlarda xom-ashyo va materiallarning o‘ziga xos iste’moli, samaradorlik, o‘ziga xos energiya sarfi va boshqalar;

- ergonomik, “inson-mahsulot-muhit” tizimini tavsiflovchi va maishiy sharoitlarda mahsulot bilan o‘zaro namoyon gigiena, antropometrik, fiziologik, psixologik xususiyatlari;

- kompozitsiyaning yaxlitligi, axborot ifodasi, shakllarning ratsionalligini, rangi, ishlatilishini, ishlab chiqarish samaradorligi va boshqalarni tavsiflovchi estetik talablar;

- mahsulotlarni ishlab chiqarish va ulardan foydalanishda texnologik tayyorlashdagi xarajatlar, materiallar, vositalar, mehnat, vaqtni optimal taqsimlashga olib keladigan mahsulotlarning xususiyatlarini belgilaydigan talablar. Ishlab chiqarishning asosiy ko‘rsatkichlari mahsulotlarning moddiy intensivligi va mehnat zichligini o‘z ichiga oladi;

- mahsulotlar va yetkazib beruvchilarning lentasini yanada aniqroq qurish, hamkorlikni mustahkamlash shuningdek, boshqa mahsulotlar bilan birlashma darajasi;

- ishlatilishi, iste’mol qilishda inson hayoti, sog‘ligiga zararli omillarni keltirib chiqaradigan mahsulotlarning xususiyatlarini tavsiflovchi xavfsizlik ko‘rsatkichi;

- mahsulotni ishlatish yoki iste’mol qilishda yuzaga keladigan atrof-muhitga zararli ta’sir darajasini belgilovchi xususiyatlarini tavsiflovchi ekologik xavfsizlik. Misol uchun zararli moddalar tarkibi, mahsulot operatsiyasi davomida atrof-muhitga chiqarilishi, radiatsiya va boshqalar;

- patent muhofazasi va patentning ishonchliligini tavsiflovchi patent-huquqi. Patent tozaligi mahsulotning xususiyatini tavsiflaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iste’molchi nafaqat mahsulot sifatiga, balki, ushbu mahsulot bilan bog‘liq yuqori sifatli qo‘shimcha xizmatlarni taqdim etishga ham qiziqadi.

Shu munosabat bilan iste’molchi uchun sifat quyidagi ifoda bilan aniqlanishi mumkin:

$$Q_c = f(Q_p; Q_{ctg}; Q_c),$$

Bu yerda Q_c – iste’molchi uchun sifat ;

Q_p – mahsulot sifati;

Q_{ctg} – tegishli tovarlar va xizmatlar sifati;

Q_c – xizmat ko'rsatish sifati.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning faoliyat ko'rsatishi va rivojlanish imkoniyatlarini belgilovchi eng muhim mezon, mahsulotning **raqobatbardoshligi**: ma'lum bir bozor sharoitida muayyan iste'molchining talablarini qondirish qobiliyati va iste'molchining ushbu mahsulotni sotib olish, undan foydalanish uchun sifat, xarajatlar ko'rsatkichlari bo'yicha vaqt davri.

Shunday qilib, raqobatbardoshlikning tarkibiy qismlarini sifati bilan bir qatorda, ushbu mahsulotni sotib olish va ishlatish uchun iste'molchining xarajatlari ham kiradi, bu esa ushbu mahsulotni iste'mol qilish bahosi sifatida belgilanadi. Tovarlarning raqobatbardoshligi mahsulotlarning raqobatbardoshligidan ko'ra, kengroq tushunchadir, chunki u bozorda tovarlarni sotish shartlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlarini ham o'z ichiga oladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan mahsulot sifatini ta'minlash masalasi muhim ahamiyatga ega. Mahsulot sifati uning raqobatbardoshligining eng muhim tarkibiy qismidir. Rivojlangan davlatlar mutaxassislarining fikricha, 70-80%da mahsulotlarning raqobatbardoshligi uning sifatiga bog'liq. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqobat kurashining tortishish markazi yuqori sifatli mahsulotlarga to'g'ri keldi.

Shunga ko'ra, raqobat usullari orasida eng yuqori darajadagi noan'anaviy usullar mavjud, ya'ni raqobat unda mahsulot sifati va uni sotish shartlarini o'zgarishsiz yoki o'zgaruvchan narxlarda yaxshilashga alohida e'tibor qaratiladi.

Korxonalarning ishlab chiqarish, iqtisodiy faoliyati uchun sifat va raqobatbardoshlikni baholash muhim ahamiyatga ega. Korxona tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifati va raqobatbardoshligi nafaqat tizimli baholanishi, balki korxonaning raqobatbardoshligi ham baholanishi kerak. Mahsulotning raqobatbardoshligini baholashda keng tarqalgan taqqoslash usulidan foydalanish mumkin. Mohiyati bo'yicha bu usulda har bir ko'rsatkichning amalda erishilgan darajasi aniq guruh parametrlar tarkibidagi ko'rsatkichning me'yoriy darajasi bilan (agar bunday me'yor o'rnatilgan bo'lsa) va raqobatchi tovarning o'xshash ko'rsatkichi bilan solishtiriladi. Bu usulni qo'llash an'anaviy ravishda tovarning sifatiga oid me'yoriy parametrlardan boshlanadi. Bu holat esa ayniqsa oziq - ovqat mahsulotlari uchun muhim. Agar bu parametrlarning loaqal bittasi amaldagi andozalar (standartlar) talablariga javob bermasa, mahsulot raqobatbardoshligini boshqa taraflarini o'rganish maqsadga muvofiq bo'lmaydi.

Guruhni tashkil etuvchi ko'rsatkichlarini tanlash ularning iste'molchi uchun ahamiyatga ega tomoniga bog'liq. Raqobat muhitining omillari, talab, taklif, bozor kon'yunkturasi, doimiy xaridorlar talablarini o'rganib chiqish natijasida mahsulotga bo'lgan talablar shakllanadi. Raqobatbardoshlikning eng zarur ko'rsatkichlari deb, aynan shu talablarni hisoblasa bo'ladi. Mahsulotning raqobat afzalliklarini ta'minlovchi strategiyasini ishlab chiqish uchun bu ko'rsatkichlar taqqoslash tahliliga kiritilishi kerak. Iste'molchining ehtiyoji bir talay o'zgaruvchan omillar kompleksi ta'sirida shakllanishini inobatga olinsa, bozordagi vaziyatni muntazam ravishda monitoring qilish (kuzatish) zaruriyati vujudga keladi.

Oziq - ovqat mahsulotlarining raqobatbardoshligini baholash usulini tanlash mezoni bu tadbirni o'tkazish maqsadidan iborat. Baholashdan maqsad quyidagicha:

- mahsulotning avvalgi sifatini saqlab yoki uni oshirgan holda tovar tannarxini kamaytirish;
- resurslarning avvalgi hajmidan chuqur qayta ishlab chiqarish darajasini oshirish evaziga avvalgi sifat saviyasidagi mahsulotning hajmini oshirish;
- yangi narxni belgilash va hokazo.

Taqqoslash usuli reyting tahlilini o‘tkazish, ya’ni raqobatbardoshlik ko‘rsatgichlari jamlamasi bo‘yicha ishlab chiqaruvchining o‘rnini (reytin- gini) aniqlash uchun yetarli. Lekin qishloq xo‘jalik mahsulotlari va ular asosida qayta ishlab chiqarilgan tovarlar ishlab chiqarishni rivojlantirish yo‘nalishlarini aniqlash uchun raqobatbardoshlikni turli usullar bilan baholash zarur. Bu usullarning eng muhimlari qatoridan indekslash usuli hisoblanadi. Bu usulda mahsulotning sifat (iste’mol qilish) ko‘rsatgichlari (integral sifat indeksi - 1kach) va iqtisodiy parametrlar (integral iqtisodiy indeks - 1e) solishtiriladi.

1.Baholashni indekslash usuli

Quyidagi formulalarda

$$Ikach(Ie) = \sum_{i=1}^n (Di, Qi)$$

Di -ko‘rsatgichning muhimlik koeffitsienti (ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar o‘rtasida so‘rovnomalar (anketalar) to‘ldirish natijalariga ko‘ra aniqlanadi);

Qi - ishlab chiqaruvchi mahsulotining sifat (iqtisodiy) parametrini uning raqobatchisi mahsulotining parametriga bo‘lgan nisbati.

Bu ko‘rsatkich quyidagicha aniqlanib:

$$Qi = \frac{Wi}{Wikkon}$$

Bu yerda **Wi** - ishlab chiqaruvchi mahsulot i - raqamli parametrining miqdori;

Wi raqobatchi mahsulotining **kkon**- raqamli parametrining miqdori.

Qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlarning sifat parametrlari quyigilardan iborat:

-davlat standartlarining sifat ko‘rsatkichlari;

-mahsulot tarkibida zararli moddalar hamda og‘ir metallar mavjudligi;

-mahsulotning oziqaviy, energetik qiymati;

-kaloriya miqdori, uning oziq -ovqat mahsulotlariga xos xususiyatlari, saqlanish muddati.

Iqtisodiy parametrlar qatoridan narxi, tan-narxi, sotuvlar hajmi, daromadlar tuzilmasidagi oziq - ovqatga (yoki uning ayrim turlariga) sar- flanadigan xarajatlar ulushi, iste’molning amaldagi hajmining tavsiya etiladigan va tibbiy me’yorlarga nisbati kabi ko‘rsatkichlar joy olgan.

Mahsulot sifati va raqobatbardoshligi muammosi keng qamrovli bo‘lib, uni hal qilish uchun tizimli yondashuvni talab qiladi. Mahsulotlarning sifat ko‘rsatkichlarining tahlili, sifat avvalambor ilmiy tadqiqot va konstruktorlik guruhlarida shakllana boshlaydi. Ishlab chiqarishning texnologik tayyorlanishida, mahsulotni tayyorlash jarayonida, mahsulotni muomalaga kiritish pog‘onasida, takomillashtirish va ishlatish jarayonida mahsulot sifati shakllanadi. Mahsulotni ishlab chiqarish uchun birlamchi hujjat texnik topshiriq (vazifa) hisoblanadi.

Texnik topshiriq (vazifa) – bu texnik shartlar va standartlar, konstruktorlik va texnologik hujjatlar bilan belgilanadi. Texnik topshiriq (vazifa) ishlab chiqaruvchi tashkilot buyurtma beruvchining talablariga asoslanib ishlab chiqadi. Bu jarayonda texnik ko‘rsatkichlarning kutilayotgan natijalari, yili va fan kashfiyotlarini hisobga olgan holda, patentlik hujjatlarini tahlil qilib mahsulot sifatini talabga javob beradigan darajaga erishiladi.

Davlatlararo mahsulotning sifat ko‘rsatkichi standartlar tizimiga asoslanib, quyidagi sifat ko‘rsatkichlarini sanab o‘tish mumkin.

Mahsulotlarning har xil turi uchun quyidagi sifat ko‘rsatkichlari o‘rinli bo‘ladi:

1. Tanlash ko‘rsatkichi - mahsulotni to‘g‘ri o‘z o‘rnida foydali ishlatishni xarakterlaydi.
2. Ishonchlilik va chidamlilik ko‘rsatkichi.
3. Texnologik ko‘rsatkichlar – mahsulotni ishlab chiqarishda yuqori mehnat samaradorligini ta‘minlaydi.
4. Estetik ko‘rsatkichlar – mahsulotni tashqi ko‘rinishi, sifati, butunligi va zamon talablariga javob berishini nazorat qiladi.
5. Standartlashtirish va unifikatsiyalash ko‘rsatkichlari - mahsulot qismlari va butunligicha ishlatish darajasini aniqlaydi.
6. Qonuniy – patentlik ko‘rsatkichi, mahsulotni o‘z mamlakati va chet elda himoya darajasini, hamda mahsulotning patentlik tozaligini bildiradi.
7. Iqtisodiy ko‘rsatkichlari – ishlab chiqarishdagi sarf-harajatlarni va ishlatishdagi iqtisodiy samarasini aniqlaydi.

Mahsulot sifatini tahlil qilish usullari maqsadlarga qarab, xarajatlar tahlili va uni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni olish imkoniyatlari, tahliliy usullari sezilarli darajada farq qiladi. Korxona faoliyatining ma‘lum bir bosqichida va uning ma‘lum bir nuqtasida xarajatlar zanjirini shakllantirish. Aynan, konstruktorlik bosqichlarda, texnologik rejalashtirish, ishlab chiqarishni tayyorlash, funksional va xarajatlar tahlilini qo‘llash tavsiya etiladi.

Bular alohida mahsulot yoki texnologiya, ishlab chiqarish, iqtisodiy jarayonning tarkibiy tuzilishi, ob‘ektning iste‘mol xususiyatlari va uni ishlab chiqarish, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish orqali resurslarning iste‘mol xususiyatlari va operatsiyalarida ko‘rinishi mumkin.

Mahsulot sifatini tahlil qilish usullari foydalanishning asosiy prinsiplari quyidagilar kiradi:

- tadqiqot ob‘ektiga funksional yondashuv;
- bajarilgan ob‘ektlar tahlili va funksiyalariga muntazam yondashuv;
- barcha bosqichlarda ob‘ekt va ularning moddiy tashuvchilarining funksiyalarini o‘rganish;
- mahsulotning hayotiy (sikl) aylanishi;
- xarajatlarning mahsulot funksiyalarining sifat va foydali xususiyatlariga mos kelishi;
- jamoaviy ijodkorlik.

Mahsulot raqobatining asosiy muhim va ta‘sirchan lekin yagona omili bu narx va sifattir. Bundan tashqari, bozor munosabatlari sharoitida iste‘molchini faqat yuqori sifat orqali yutish mumkin bo‘lganda, narxdan tashqari raqobatning roli kuchayadi. Sifat har doim talab qilingan va ta‘minlangan. Mahsulot sifati bozordagi raqobatning eng muhim vositalaridan biridir. Shu bois korxonada mahsulotlarning yuqori sifatini ta‘minlash, barcha bosqichlarda nazorat o‘rnatishga alohida e‘tibor qaratilishi muhim. Ishlab chiqarish jarayoni, sarflanadigan xom-ashyo sifatini nazorat qilishdan boshlab, tayyorlangan mahsulotning muvofiqligini baholash bilan yakunlanadi. Korxonada mahsulot sifatini boshqarish ishlab chiqarish jarayonining asosiy bosqichi sanalib uni ishlab chiqarish jarayonida sifatni nazorat qilishga qaratilgan bo‘lishi darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X. Саломов “Микробиология асослари”, Тош. “Меҳнат”, 2002й. 163 б.
2. Перегудов В., Саидов Х., Файзиев Р., Исмагуллаев Р., Абидов С. Управление качеством и конкурентоспособностью продукции. Таш. 2001.
2. Хайдаров, Ш. (2023). Мускатли шампан виноси учун ярим тайёр маҳсулотини тайёрлаш технологияси. Science and Education, 4(11), 161-167.

3.Rustamovna, B., & Djurayevna, T. (2024). Methodology of using didactic games in primary class mathematics lessons. Медицина, педагогика и технология: теория и практика, 2(2), 31-37.

4.Davlyatova, M., & Rashidova, G. (2022). Получение целебных национальных хлебобулочных изделий с добавками по стандарту. Science and innovation, 1(A5), 135-149.

5.Шадиев, С. (2015). Совершенствование процесса подготовки преподавателей технических дисциплин с учётом требований современной системы образования. Молодой ученый, (8), 1075-1078.

ZAMONAVIY YONDASHUV ASOSIDA DORIVOR O'SIMLIKLARNING HOMASHYOSINI STANDARTLASHTIRISH

Tosheva Gulnora Djuraevna - Buxoro muhandislik-texnologiya instituti “Metrologiya va standartlashtirish” kafedrasi dotsenti

Kodirova Shaxnoza Salomovna - Buxoro muhandislik-texnologiya talabasi

Farmatsevtika bozori, umuman jahon bozori singari ,turli xil etiologiyalarning oldini olish va davolash uchun ishlatiladigan dorivor preparatlar va o'simlik kelib chiqadigan biologik faol qo'shimchalarni iste'mol qilishning o'sish tendentsiyasi bilan ajralib turadi. Bunga bir qator sabablar sabab bo'ladi: sintetik dorilar bilan taqqoslaganda arzon narx, o'simliklardan kelib chiqqan ko'plab lekrarstlarning OTC ta'tillari, aholining keng qatlamlarining dorivor o'simliklar, dorilar va o'simlik kelib chiqadigan biologik faol qo'shimchalarning toksikligi pastligi haqidagi an'anaviy fikri va boshqalar. Shu bilan birga, ushbu dorilarning hajmi va ularning ichki farmatsevtika bozorining umumiy hajmidagi ulushi 11-12 million AQSh dollarini tashkil etadi (0,5–1,5%). Evropa Ittifoqi mamlakatlarida shunga o'xshash mahsulotlar dori bozorining umumiy hajmining 10 foizini egallaydi [1]. Yaponiya va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida bu ko'rsatkich 40% ni tashkil qiladi. Dorivor o'simlik xom ashyosi va o'simlik preparatlari uchun sifat standartlari deyarli barcha faol farmakopeyalarga, shu jumladan xalqaro farmakopeyalarga kiritilgan. O'zbekistonda o'simlik dori-darmonlarini standartlashtirish O'zbekiston sog'liqni saqlash vazirligining buyrug'i bilan tasdiqlangan "dori vositalari sifati standartlari" sanoat standarti talablari bilan tartibga solinadi. Dori vositalarini yaratish, ishlab chiqarish va muomala qilishning har bir bosqichida ushbu bosqich uchun o'ziga xos choralar ko'riladi, bu esa preparatning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ishda xato va og'ishlarning oldini olishga imkon beradi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatdiki, preparatni ishlab chiqishning barcha bosqichlarida sifat nazoratini ta'minlash, uni preparat yaratilgandan keyin amalga oshirishdan ko'ra ancha samaralidir. Bu standartlarni birlashtirishga imkon beradi, yangi dori-darmonlarni ishlab chiqish narxi va vaqtining pasayishiga olib keladi, bu hamma uchun foydalidir, lekin birinchi navbatda bemorlar uchun. Shunday qilib, sifatni ta'minlash zanjiri preparatni xom ashyodan fitopreparatgacha yaratishning butun tsiklini qamrab olishi kerak. Shu munosabat bilan,sintetik kelib chiqadigan dorilar bilan taqqoslaganda nojo'ya ta'sirlar va sezilarli kontrendikatsiyalar yo'qligi bilan birgalikda terapevtik ta'sirning yumshoqligi va kengligiga ega bo'lgan o'simlik preparatlari ayniqsa dolzarbdir.

O'simlik dori-darmonlaridagi biologik faol moddalarning tarkibi sezilarli darajada farq qilishi mumkin, shuning uchun standartlashtirishning eng muhim vazifalaridan biri ularni miqdoriy aniqlashning zamonaviy usullarini ishlab chiqish va joriy etishdir. biologik faol moddalar turli xil tarkibga ega va kimyoviy birikmalarning turli sinflariga tegishli – alkaloidlar,

flavonoidlar, kumarin hosilalari, antrasen hosilalari, vitaminlar, polisakkaridlar, ksantonlar, efir moylari, taninlar va boshqalar. Albatta, biologik faol moddalarning butun kompleksidan faqat bitta yoki ikki yoki uch guruh faol moddalar ma'lum bir dorivor o'simlikka xos bo'lgan farmakologik faollikning asosiy turlarini aniqlaydi. Biologik faol moddalarning turli guruhlari tarkibini aniqlash ham xususi, ham umumiy monografiyalar/maqolalar bilan normallashtiriladi.

Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish kerak: ko'p komponentli o'simlik tarkibining oqilona tarkibini ishlab chiqish va asoslash; o'simlik kolleksiya tarkibiy qismlarining tashqi va anatomik va diagnostik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish; o'simlik kolleksiyasining biologik faol moddalarning sifatli tarkibini aniqlash; kolleksiyani standartlashtirish usullarini ishlab chiqish uchun biologik faol moddalarning dominant guruhlari tarkibini aniqlash; ekstraksiya jarayoniga turli omillarning ta'sirini baholash va ekstraksiyaning biologik faol moddalarning eng maqbul parametrlarini aniqlash; o'rganilayotgan kolleksiya asosida quruq ekstrakt olishning texnologik sxemasini ishlab chiqishdan iborat.

Dori vositalari, shu jumladan o'simlik materiallari sifatining asosiy kafolati ularni standartlashtirishdir, bu esa fitopreparatlar ishlab chiqarishning resurslarni tejaydigan texnologiyasini ta'minlashga imkon beradi. Dorivor o'simlik xom ashyosini standartlashtirish-bu maxsus shartlar va xususiyatlarni ta'minlaydigan murakkab vazifa, ular: 1) oldindan belgilab qo'yilgan 2) ta'minlash 3) dorivor o'simlik xom ashyosining sifatini qo'llab-quvvatlash.

1-bosqich. Dorivor o'simlik materiallarining sifatini oldindan belgilaydigan shartlar. Ularning bajarilishi xom ashyoni yig'ish jarayonida majburiydir. Xom ashyoning yuqori sifatini ta'minlash uchun to'g'ri maydon va yig'im – terim joyini, madaniy turlar uchun esa madaniyat maydonini tanlash kerak. Yig'ish vaqti va texnikasi, xom ashyoni dastlabki qayta ishlash tabiati, quritish, saralash va qadoqlash shartlari tartibga solinadi. Ushbu shartlar barcha tayyorlovchilar uchun xom ashyoning har bir turi uchun yagona "yig'ish va quritish bo'yicha ko'rsatmalar" da tasvirlangan. Ular qonun kuchiga ega. Amaldagi to'plamga 121 turdagi dorivor xom ashyo bo'yicha ko'rsatmalar kiritilgan.

2-bosqich. Dori sifatini ta'minlaydigan shartlar o'simlik materiallari.

Bu xom ashyoning haqiqiyligini, tozaligini va benignligini aniqlashni ta'minlaydigan normalar. Ular standart bilan tartibga solinadi va ma'lum bir xom ashyo turini to'liq tovar tahlilini o'tkazishda aniqlanadi.

3-bosqich. Xom ashyo sifatini saqlash va saqlashni tartibga soluvchi shartlar.

Xom ashyoni saqlash shartlari (harorat rejimi, namlik, muddat va ba'zi xom ashyo turlari uchun saqlash ro'yxati), shuningdek qadoqlash talablari, tashish shartlari standartlashtiriladi.

Fizik-kimyoviy tahlil usullaridan spektrofotometrik tadqiqotni qo'llash. O'simlik xom ashyosidan fenolik moddalar tarkibini aniqlash, shuningdek yarim yumshoq moddalarning ajratilgan individual moddalarini tahlil qilish usuli bilan amalga oshirish. Mass-spektral tahlil. Mass-spektrlarini ro'yxatdan o'tkazish o'simlik mevalaridan ajratilgan birikmalarning molekulyar og'irligini aniqlash uchun ishlatiladi. O'simlik dori vositalarini standartlashtirish usullarini ishlab chiqish doirasida xom ashyoning morfologik va anatomik xususiyatlarini o'rganish kerak.

Flavonoidlar miqdorini tahlil qilish uchun sinov eritmasi quyidagicha tayyorlanadi: olingan 5 ml ekstrakt o'lchash stakaniga joylashtiriladi 25 ml lik kolbaga soling va eritma hajmini etilning 70% belgisiga keltiring. spirtli ichimliklar aralashtiriladi (sinov eritmasi). Taqqoslash yechimi 70% etil spirti. Optik zichlik analitik to'lqin uzunligida o'lchanadi 282 N M va berilgan

optik zichlik qiymati formulada ishlatiladi hisoblash. Optik zichlikni o'lchash 282 nm to'lqin uzunligida suyultirilgandan so'ng darhol amalga oshiriladi. Sanoat standarti dorivor o'simlik xom ashyosi va fitopreparatlarga nisbatan qo'llaniladi. Dori-darmonlarni tayyorlash uchun keyinchalik sanoat tomonidan qayta ishlanadigan mahsulotlarni tayyorlash uchun ishlatiladigan hayvonot xom ashyosiga taalluqli emas. Standart dori vositalari uchun normativ hujjatlarni taqdim etish, rasmiylashtirish, ekspertizadan o'tkazish, kelishish, tasdiqlash va belgilashni ishlab chiqishning toifalarini, shuningdek yagona tartibini belgilaydi-me'yoriy hujjatlar talablari idoraviy mansubligidan, yuridik maqomidan va mulkchilik shaklidan qat'i nazar, dori vositalari muomalasi sohasida ishlaydigan barcha korxona va tashkilotlar uchun majburiydir. Dori vositalarining sifatini nazorat qilish ham muhim vazifadir

ham hududiy, ham federal darajada xom ashyo va uning preparatlarini sertifikatlashtirish orqali amalga oshiriladigan mablag'lar.

Dori-darmonlarni, ayniqsa o'simliklarni sertifikatlashtirish zarurati bir necha sabablarga ko'ra yuzaga keladi: yetarli ish tajribasiga ega bo'lmagan va malakali ko'plab yangi farmatsevtika korxonalarining paydo bo'lishi; xodimlar; eskirgan me'yoriy hujjatlarning mavjudligi, ularning taxminan 60% ;qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish kerak; ichki farmatsevtika bozorida soxta mahsulotlarning paydo bo'lishi. Dorivor o'simlik xom ashyosining sifatini nazorat qilish farmatsevt mutaxassisining muhim vazifalaridan biridir. Dorivor o'simlik xom ashyosining to'g'ri sifatini ta'minlash ko'p jihatdan nazoratni to'g'ri tashkil etishga, uning samaradorligi va samaradorligiga, shuningdek me'yoriy hujjatlarga kiritilgan talablar darajasiga va ishlatilgan tahlil usullariga bog'liq. Tovar tahlili natijalari davlat yuridik kuchiga ega bo'lgan belgilangan namunadagi hujjatlar (protokol va sertifikat) bilan rasmiylashtiriladi.

Shuni ta'kidlashni kerakki, JPda "Genetik ma'lumotlardan foydalangan holda o'simlik dori vositalarining tozaligini aniqlash" umumiy monografiyasi mavjud. Usul molekulyar biologiya usullari sohasidagi zamonaviy taraqqiyot yutuqlarini, shuningdek, dorivor o'simliklar bo'yicha genetik ma'lumotlarni to'plashni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va ma'lum genotiplar asosida xom ashyodan dorivor mahsulotlarni tahlil qilish uchun mo'ljallangan texnikadir.

O'simlik preparatlari keng ommalashganiga qaramay, standartlashtirish masalalari to'liq hal qilinmagan. Xom ashyo va preparatlarni tahlil qilish usullari har doim ham birlashtirilmaydi va usullar bajarish uchun ko'p vaqt talab etadi va vaqt o'tishi bilan uzoq davom etadi.

Shunday qilib, birinchi navbatda O'zbekiston davlat farmakopeyasiga kiritish uchun mo'ljallangan dorivor o'simlik xomashyosi va o'simlik dori vositalari uchun mahalliy sifat standartlarini yaratishda ularning talablarini xorijiy farmakopeyalar bilan uyg'unlashtirish kerak. Bu, birinchi navbatda, "og'ir metallar" va "qoldiq pestitsidlar" kabi monografiyalarga taalluqlidir, bu esa mahalliy dori vositalarining sifatini va ularning jahon farmatsevtika bozorida raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. United States Pharmacopeia, 35th edition // United States Pharmacopoeial Convention: [сайт]: 2012. URL: <http://www.uspnf.com/uspnf/login>.
2. European Pharmacopoeia. Seventh Edition. Vol. 1, Vol. 2, Supplement 7.1–7.8// EDQM, 2011–2012.
3. British Pharmacopoeia. V. 1-4 // British Pharmacopoeia Commission, 2009. P. 10952.
4. The Japanese Pharmacopeia Sixteenth Edition// Pharmaceuticals and medical devices agency, 2011. P. 2320

5. Ayurvedic Pharmacopoeia of India. V. 1–6 // New Delhi: Department of Ayurveda, Yoga & Naturopathy, Unani, Siddha and Homoeopathy, 2008 (электронный ресурс)
6. Indian Pharmacopoeia. Sixth Edition (6.0). V. 1–3 // Ghaziabad: The Indian Pharmacopoeia Commission, 2010. P. 2829
7. Pharmacopoeia of the People’s Republic of China. V. 1, V. 2 // Beijing: China Medical Science Press, 2010. – 2970.
8. Гравель И. В., Иванова Е.А. Требования зарубежных фармакопей к качеству лекарственного растительного сырья по содержанию пестицидов. – Фарматсия, 2010. №7. С. 50–53.
9. Терешкина О.Н., Рудакова И.П., Гравель И.В., Самылина И.А. Проблемы нормирования тяжелых металлов в лекарственном растительном сырье // Фарматсия. 2010. №2. С. 7–11. 1
10. Ражабова, Г. Ж., Тошева, Г. Д., & Бокиева, Г. У. (2015). Использование технологического стенда при изучении дисциплин профессиональной направленности. *Молодой ученый*, (3), 215-217.
11. Ражабова, Г. Д., & Тошева, Г. Д. (2014). КОНСТРУКТИВНЫЙ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ СТЕНД ПРИ ИЗУЧЕНИИ ДИСЦИПЛИН ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ НАПРАВЛЕННОСТИ. In *Инноватсия в строительстве глазами молодых специалистов* (pp. 107-110).
12. Тошева, Г. Д. (2023). ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ. *Finland International Scientific Journal of Education. Social Science & Humanities*, 11(4), 828-839.
13. Tosheva, G. D., & Toirov, B. B. (2020). INNOVATION TECHNOLOGIYALAR TA’LIM TARAQQIYOTINING ASOSIY KUCHI VA TUTGAN O’RNI. *Science and Education*, 1(8), 222-228.

NEFT QUDUG’IDA CHUQURLIK NASOSLARINI ISHLATISH VA UNGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNI ANIQLAB ULARNI BARTARAFLASH

¹Toshev Sherzod Orziyevich, ²Qudratova Guliruxsora Mirshakar qizi

¹Buxoro muhandislik - texnologiya instituti “Neft-gaz ishi” kafedrasi dotsenti, ²Buxoro muhandislik - texnologiya instituti II-bosqich magistranti

Neft va gazni qazib chiqarish korxonalari faoliyatida qator ochiq neft-gaz konlarini ishga tushirish hamda noan’anaviy va qiyin chiqarib olinadigan zahiralarni qazib olish ishlari ustuvor ahamiyatga ega bo’lib, bu o’z navbatida konlar xususiyatlarini o’rganib chiqish, mahsuldor qatlamlarni ochish va uglevodorodlar oqimini jadallashtirish uchun eng samarali va maqbul texnologik vositalarni tanlab olishni talab qiladi.

Quduqlarni shtangali nasosli qurilmalarda ishlatishda, ko‘p turdagi murakkabliklar paydo bo‘ladi va ularga quyidagilar kiradi.

1. Quduqqa neft bilan birgalikda erkin gazlar miqdorini kirib kelish kattaligi.
2. Neft bilan birgalikda qum zarrachalarining quduqqa kirib kelishi.
3. Nasosda, nasos-kompressor quvurlarida va shtangalarda parafin yotqiziqalarining paydo bo‘lishi.
4. Quduq stvolining egrilanishi.


Shtangali qurilmaning ishida gazni nasosga zararli ta'sir etishi natijasida, nasosni to'lish koeffitsienti pasayib ketadi va murakkabliklar paydo bo'ladi.

Foydasiz faza kamayganda qabul qilish hajmi oshadi va nasosni to'lish koeffitsienti yuqori bo'ladi. Nasosda foydasiz fazani kichraytirishga erishish uchun, plunjerning pastki uchiga qo'shimcha haydovchi klapan o'rnatiladi hamda u nasosning silindriga plunjerni o'tqazish orqali amalga oshiriladi.

Plunjerning yurish yo'lining uzunligini uzaytirish va shu bilan birgalikda chuqurlik nasosi diametri kichraytirilganda, foydasiz faza hajmining ulushi kamayadi. Kon sharoitlarida nasos dinamik sathning ostiga chuqurroq botiriladi.

Nasos chuqurroq botirilganda, u yerda bosim to'yinish bosimiga teng bo'ladi, gazning zararli ta'sir etishi to'xtaydi hamda bunday chuqurlikda erkin gaz mavjud bo'lmaydi hamda gazli yakorlar qo'llaniladi.

Gazli yakorning ishi gaz pufakchalarini bir biri bilan suyuqlik oqimida to'qnashtirish hisobiga ajratish hamda sentrifugalash prinsipidan foydalanib, buralma oqim hosil qilinadi.



1-rasm. Bir korpusli gazli yakorni prinsipial sxemasi: 1-korpus; 2-quvur; 3-gaz pufagi; 4-qabul klapan; 5-teshik.

Bir korpusli yakorda (1-rasm) gaz suyuqlik aralashmasi (GSA) gaz yakori korpusi (1) halqa fazasiga va markaziy ko'taruvchi quvurga (2) kiradi, yuqori uchi qabul qiluvchi klapaniga (4) biriktiriladi. Oqimni yo'nalishi o'zgartiriladi, gaz pufakchalari sizilib chiqadi va quvurning orqasidagi oralig'ga ketadi. Gaz tarkibi kamaygan suyuqlik teshiklar (5) orqali markaziy quvurga kiradi. Undan keyin esa nasos silindridagi gaz pufakchalarining (3) suyuqlik oqimi bilan pastga qarab harakatlanish tezligi debitga hamda korpus (1) va quvurning oralig'idagi (2) halqa oralig'i kesim yuzasining kattaligiga bog'liq.

Gaz pufakchalarini sizib chiqish tezligi v Stoks formulasiga muvofiq, pufakcha diametri d ga, suyuqliklarni oralig'idagi zichlikning farqga, suyuqlik qovushqoqligiga bog'liq (μ).

Neftdan gazning yaxshi ajralib chiqishi, yakorning bir nechta burilish oqimida sodir bo'ladi. Bunga bog'liq holda gaz yakorlari ikki seksiyali, uch seksiyali va hakoza ishlab chiqariladi. Neft konlarida ko'p korpusli, quvurli, botma, soyabonli, gazli yakorlar qo'llaniladi.

Shtangali nasos qurilmalarida ishchi neft bilan birga chiqib keladigan qumlar murakkabliklarni tug'diradi. Nasosga qumning tushishi, plunjerni haydashini buzadi, natijada klapanlar orqali suyuqliklarning siriqishi ko'chayadi, ko'p marta plunjerning nasosga yopishib qolishi sodir bo'ladi, shtanga uziladi, quduqdan suyuqlikni uzatish to'xtaydi va quduqni ta'mirlashga to'g'ri keladi. Bunday quduqlarda ta'mirlash muddati oralig'i juda qisqadir.

Quvurli shtangalar plunjerga maxsus uzatmalar yordamida biriktiriladi.

Suyuqlik plunjerdan chiqadi va ichi bo‘sh shtangaga to‘planadi. Suyuqlik plunjer sirtiga va silindrning ichki sirtiga ishqalanmaydi, chunki qumning plunjerga yopishib qolishi mumkin emas. Bunday holatda suyuqlikning yer ustiga chiqish tezligi oshadi hamda qum ham yaxshi olib chiqariladi.

Nasos quvurlari va quvurli shtangalar oralig‘idagi halqa fazosi, suv yoki neft bilan to‘ldiriladi, plunjer pastga harakatlanganda muvozanatsizligini bartaraf etadi. Parafinli neftlarni qazib olishda, suyuqlik nasoslarining devorlariga, nasos-kompressor quvurlarining devoriga, shtangalarga va chuqurlik nasosida parafinlarni o‘tirib qolishi tufayli, murakkabliklar paydo bo‘ladi. NKQ-larning devorlariga ham o‘tiradi qolgan parafin ko‘ndalang kesim yuzasini qisqarishga olib keladi, shu bilan bir vaqtda parafin yotqiziqlari NKQ- devorlariga, shtanga devorlariga ham o‘tiradi, shtanga tizmasining siljishiga va suyuqlikning harakatiga to‘sqinlik qiladi. Bundan tashqari, parafin yotqiziqlarining ko‘payishi, tebratma-dastgohning muvozanatlagichini boshchasiga beriladigan yukni ham oshiradi, muvozanatlilik buziladi, nasosning uzatish koeffitsienti pasayadi. Parafin klapan tagiga tushadi va uning germetikligini buzadi, ya’ni suyuqlik uzatilishining tugallanishiga va quduqning to‘xtashigacha olib keladi.

Fodalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Akramov B.Sh. “Neft va gaz ishi asoslari”. Darslik. Toshkent, 2002y.
2. Yuldoshev T.R., Eshkabilov X.Q. Neft va gaz konlari mashina va mexanizmlari. O‘quv qo‘llanma, Qashqadaryo ko‘zgusi OAV -2015. 328 bet.
3. B.Sh. Akramov, N.N. Maxmudov. “Neft va gaz qazib olish texnologiyasi va texnikasi” fanidan o‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2003
4. A.V. Mavlanov, B.SH. Akramov “Qatlamlarning neft va gaz beraolishligini oshirish texnologiyasi va texnikasi” fanidan o‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2002.
5. Akramov B.Sh. “Neft va gaz quduqlarini ishlatish”. Darslik. Toshkent, 2002y.
6. T.R.Yuldashev. Neft va gaz konlari mashina va mexanizmlari. Darslik. Toshkent. 2013. 310 b.
7. Maxmudov N.N., Yuldashev T.R. Neft va gaz qazib olish texnologiyasi va texnikasi. Darslik, Toshkent, Fan va texnologiya nashriyoti-2015. 392 bet.
8. Akramov B.Sh., Hayitov O.G‘. “Quduqlarni kapital ta’mirlesh”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. Adolat. 2005y.
9. Akramov B.Sh., Hayitov O.G‘. “Neft va gaz konlari masina va jihozlari”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. O‘qituvchi. 2004y
10. Элияшевский И. В. Технология добычи нефти и газа/И.В. Элияшевский. — М.: «Недра», 1986.
11. Юрчук А. М., Истомин А. З. Расчеты в добыче нефти. Учебник для нефтяных техникумов /А.М. Юрчук, А.З. Истомин. — М.: «Недра», 1979.

NEFT QUDUG‘INI ISHLATISHDA NASOS QURILMASI ISHIGA SALBIY TA‘SIR QILUVCHI OMILLARNI KAMAYTIRISH UCHUN QUMLI YAKORDAN FOYDALANISH

¹Quadratova Guliruxsora Mirshakar qizi, ²Toshev Sherzod Orziyevich

¹Buxoro muhandislik - texnologiya instituti II-bosqich magistranti,

²Buxoro muhandislik - texnologiya instituti “Neft-gaz ishi” kafedراسи dotsenti

Quduqlarni ishlatish jarayonining asosi neft yoki gazni yer yuzasigacha ko‘tarib chiqish bilan bog‘liq. Neft yoki gazning quduqqa nisbatan oqimi qatlam va quduq tubi bosimi ayirmasi


orqali ta'minlanadi. Quduqdan mahsulot ko'tarilishi tabiiy energiya W_{tab} yoki tashqaridan beriladigan W_{tash} energiya ta'sirida bajariladi.

Suyuqlik-gaz aralashmasi quduqdan ko'tarilgach, mahsus ustki uskunalardan o'tib gaz ajratgichga, saqlagich-o'lchov moslamasiga va undan kon quvurlariga yo'naltiriladi.

Quduq tubi bosimi sharoitida har bir tonna neftda qanchadir erigan gaz mavjud va u gaz suyuqlikning quduq ustigacha harakati davomida aralashmadan ajrala boshlaydi.

Shtangali nasos qurilmalarida ishchi neft bilan birga chiqib keladigan qumlar murakkabliklarni tug'diradi. Nasosga qumning tushishi, plunjerni haydashini buzadi, natijada klapanlar orqali suyuqliklarning siriqishi ko'chayadi, ko'p marta plunjerning nasosga yopishib qolishi sodir bo'ladi, shtanga uziladi, quduqdan suyuqlikni uzatish to'xtaydi va quduqni ta'mirlashga to'g'ri keladi. Bunday quduqlarda ta'mirlash muddati oralig'i juda qisqadir.

Qumlarning zararli ta'sir qilishiga qarshi har xil turdagi filtrlar, moslamalar yordamida kurashiladi. Bu moslamalar shtangali nasosni qabul quvurchalariga o'rnatiladigan qumli yakorlar deb ataladi. umli yakorlarning konstruksiyalari har xil, lekin ularning ishlash prinsipi bir xildir. Qumli yakorda (2-rasm) qumlarni qisman ajratishda, oqim 180°C ga buriladi.



2-rasm. Qumli yakorni prinsipial sxemasi: a-qum; b-qumli suyuqlik

Qum ajraladi va yakorni pastki qismiga to'planadi. Quvurlar qum bilan to'lib qolgandan keyin yakor ko'tarib olinadi va tozalanadi.

Yakorning uzunligi hisoblanib, shunday tanlanadiki, uning to'lishi chuqurlik nasosining yeyilishi va almashtirish vaqtlariga mos kelishi kerak.

Qumlarning yaxshi chiqishini ta'minlash uchun, nasosga ichi bo'sh bo'lgan shtanga o'rnatiladi. Ichi bo'sh shtanga sifatida nasos-kompressor quvurlari qo'llaniladi. Quvurli shtangalar nasosning plunjeriga tebratma-dastgohdan keladigan harakatni uzatadi va bir vaqtning o'zida quduqdan haydab chiqariladigan suyuqlikni qabul qiladigan quvur uzatma hisoblanadi.

Parafinning katta yotqiziqlari tufayli shtanganing uzilib ketishi sodir bo'ladi. Agarda nasos-kompressor quvurlarni va shtangalarni parafindan tozalashda, o'z vaqtida chora tadbirlar-qo'llanilmaganda quvurlarni tamirlash uchun yer ostidan ko'tarib olishda jiddiy murakkabliklar paydo bo'ladi. Bunday holatda, quduqni to'xtatishni imkoniyati yuk, shtanga plunjerini ko'tarishda, parafin quvur devoridan qirilib pastga tushadi va butun parafin tiqinini

hosil qiladi. Quvurdan neftni siqib chiqaradi, natijada quduq atrofidagi territoriyani ifloslantiradi. Ba'zida shtangani ko'tarib olishda neft va parafinning otilishi bilan tugallanib, quduq ustiga yaqinlashganda neftning tarkibidan jadal gazni ajralib chiqishlarini sodir bo'lganligi kuzatilgan.

Ba'zida parafinli tiqin shunchalik darajada zichlanadiki, shtanga tizmasini ko'tarib olishning imkoniyati bo'lmaydi. Bunday sharoitda shtanga alohida seksiya holida burab olinadi yoki quvurlar bilan ko'tarib olinadi.

Parafin yotqiziqlari bilan kurashish jarayoni har xil usullarda olib boriladi:

1. Neft konlarida chuqurlik nasoslari ishlab turganda, quduqning quvur orqasi halqasi orqali quduqqa 100-150°C haroratda neftni haydash usuli keng qo'llanilmoqda.

Qizdirilgan neft quduq stvoli orqali harakatlanadi, nasos-kompressor quvurni qizdiradi va quduqda parafinning erish (parafin 27°C dan 70°C gacha eriydi) haroratdan yuqori harorat hosil qiladi. Parafin eriydi va neft oqimi bilan yer ustiga olib chiqiladi. Agarda bu ishlar to'xtatilgan quduqlarda olib borilsa, parafin pastga oqib tushadi va parafin tiqinini hosil qiladi, quduqda katta murakkabliklarni keltirib chiqaradi.

Quduqlarni parafansizlashtirishda qizdirilgan neftni haydashda, agregatlar (ADP-4-150) qo'llaniladi, avtomobil shossesiga to'g'ri oqimli qozon, neftni oluvchi idishlar to'plami va quduqqa issiq neftni haydovchi agregatlar montaj qilingan. Maksimal qizdirilgan neft 4 m³/sek sarfida uzatiladi.

Maksimal harorati 150°C va bosimi 20 MPa -ga teng.

2. Quduqning quvurlarining oralig'iga davriy juda issiq bug' (T=300°C) bug'li harakatlanuvchi qurilma yordamida haydaladi, nasos qurilmasi ishlayotganda bir soat ishlash vaqtida bir tonna bug' haydaladi. Qizdirilgan o'tkir bug' va bug'dan suyuqlikka aylangan suv NKQni qizdiradi. Parafin yotqiziqlarini eritadi va suyuqlik oqimi bilan birgalikda quduqning ustiga otirma tizimga olib chiqadi.

3. Quvur orqa fazasidagi parafin yotqiziqlariga ingibitorlarni haydash.

4. Quvur orqa fazasidagi parafinni eritish uchun har xil erituvchilar (kerosin, solyarka, nobarqaror benzin) haydaladi, u nasos quvurlari orqali tushib parafinni eritadi va yuvadi.

5. Nasos quduqlaridagi parafin yotqiziqlariga mexanik usulda kurashishda, shtangalarga maxsus metall plastinkali qirg'ichlar o'rnatiladi va qirish amalga oshiriladi.

Plastinkali qirg'ichlarning qalinligi 2,5-3,0 mm li listli po'latdan tayyorlanadi, uzunligi 150-250 mm li va uni kengligi 2-3 mm kattalikda, ko'taruvchi NKQning ichki diametridan kichik tayyorlanadi.

Qirg'ich va shtangani oralig'idagi masofa shunchalik yaqin, ya'ni salnikli shtokni kutiladigan yo'li uzunligidan kichik o'rnatiladi.

Shtangaga o'rnatiladigan qirg'ichlar shtangani aylantirgich yordamida aylantiriladi, osma arqonga mahkamlangan, pastga qarab shtanga tizmasining har bir yurishda aniq burchak ostida o'rnatiladi. Parafin yotqiziqlarni plastinkali qirg'ich bilan tozalashdagi kamchiligi, shtanganing osma nuqtasiga va butunlay tebratma dastgohga beriladigan og'irlikning qirg'ich hisobiga oshib ketishidir.

Plastinkali qirg'ich va NKQning (2-3mm) ichki diametri oralig'ida yoriq juda kichik bo'lganda, shtangani quduqqa tushirishda va ko'tarishda qiyinchiliklarni tug'diradi.

Ehtiyot chorasiga rioya qilmasdan qirg'ich ko'tarilganda, quvur sirtiga urilib murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Plastinkali qirg'ichlar kon dala sharoitida tayyorlanganda, shtangaga payvandlashda, qirg'ichni payvandlamay shtanganing metalli ko'ydiriladi va jiddiy

qiyinchiliklarni tug'diradi. So'nggi yillarda metall qirg'ichlar o'rnida, maxsus konstruksiyali, plastmassali, sirtiga yaxshi ishlov berilgan qirg'ichlar keng qo'llanilmoqda.

6. Konlarda parafin yotqiziqlariga qarshi kurashishda, oynalashtirilgan emalli NKQlari hamda epoksid qoplamali quvurlar qo'llaniladi.

Bunda oynalashtirilgan quvurlar ortishda, tashishda va tushirishda, qoplashda buzilishlar sodir bo'ladi, natijada oyna siniqchalarini plunjerga yopishib qolishiga olib keladi. Ichki yuza sirti epoksidli smola bilan qoplangan NKQ samarali ishlatilmoqda. Ular mexanik yuklarga qarshi mustahkam va NKQ-ga parafinni jadal yopishib qolishini pasaytiradi.

Fodalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Сидикхўжаев Р.К., Акрамов Б.Ш. Нефть ва газ қатлами физикаси. Дарслик. – Т.: «НУР», 1994, 203 бет.
2. Akramov B.Sh., Sidiqxo'jaev R.K. Neft va gaz ishi asoslari. Darslik. – Т.: 2003.
3. Akramov B.Sh. Neft va gaz quduqlarini ishlatish. Darslik. – Т.: TDTU, 2003, 127 bet.
4. Г.З. Ибрагимов, В.Н. Артемьев и др. «Техника и технология добычи и подготовки нефти и газа». М: Изд. МГОУ, 2005.
5. Howard B. Bradley "Petroleum Engineering Handbook" Third Printing Society of Petroleum Engineering Richardson, TX, USA. 1992.
6. Yormatov G'.Yo. Isomuhamedov Yo.U. Mehnatni muhofaza qilish. Darslik. O'zbekiston nashriyoti. Toshkent 2002.
7. Yormatov G'. Yo. Hayot faoliyati xavfsizligi. Ma'ruzalar matni, Toshkent 2000.
8. Казак А.С. Новые направления в технике и технологии добычи тяжелых углеводородов за рубежом/Тематический науч.-техн. обзор: Сер. Нефтепромысловое дело. – М.: ВНИИОЭНГ, 1989. – 47 с.
9. Уразаков К.Р., Сейтпагамбетов Ж.С., Давлетов М.Ш. Скважинный насос для подъема высоковязких нефтей // Совершенствование технологии добычи, бурения и подготовки нефти: Сб. науч. трудов. – 2000. – Вып. 103. – С. 57–67.
10. Антипин Ю.В., Валеев М.Д., Сыртланов А.Ш. Предупреждение осложнений при добыче обводненной нефти. – Уфа: Башкнигоиздат, 1987. – 167 с.

GORIZONTAL QUDUQLARNI BURG'ILASHDA RADIAL BURG'ILASH TEKNOLOGIYASINING AFZALLIKLARI

¹Amashova Aziza Garribayevna, ²Toshev Sherzod Orziyevich

¹Buxoro muhandislik - texnologiya instituti magistranti,

²Buxoro muhandislik - texnologiya instituti "Neft-gaz ishi" kafedrasi dotsenti

Qatlamni radial ochish texnologiyasi - bu mustahkamlangan va mustahkamlanmagan quduqlarning devoriga perpendikulyar holda mahsuldor qatlamga gidromonitor usulida kirishdir. Bunda tizmada diametri 25 mm.li teshikni egiluvchan jamlanmalarning vintli quduq dvigateli, egiluvchan val va parmalash burg'isi yordamida teshish orqali amalga oshiriladi.

Mahsuldor qatlamning o'ziga kirish egiluvchan quvurlarning jamlanmasi, Kevlar turidagi yuqori bosimli egiluvchan shlang va gidromonitor nasadkasi yordamida amalga oshiriladi.

Yuqori bosimning qiymatini oldi va orqa qismida o'rnatilgan teshikli gidromonitor nasadkasida bosimni hosil qilish uchun:

c) gidravlik ta'sir ostida va eroziyalı kuchlar bilan qatlamga kirish;

d) yuviladigan kanallar orqali asboblarni pastga tortishda, belgilangan uzunlik va gorizontallikka erishish uchun gidromonitor nasadkasida orqa teshik orqali gidravlik kuch ostida bosim bilan suyuqlik haydaladi.

Burchak ostida ta'sir qiluvchi kuch gidromonitorli kirishda qatlamning g'ovakligi va gidromonitor nasadkasidagi orqa teshikning diametrining chegaralanishi talab qilinadi hamda suyuqlik bilan to'ldirilgan stvol bo'ylab samarali ravishda qatlamga kiradi. Suyuqlikka to'ldirilgan muhitda gidravlik kuchni uzunlik bo'ylab harakatlanishi chegaralanadi.

Qatlam radial burg'ılab ochishda ta'sir qiluvchi kuchlar quyidagi omıllarga bog'liq bo'ladi:

Qatlamning qiyaligi. qatlamning qattiqligiga yoki g'ovaklıliga bog'liq holda nasadka qatlamning shıpga o'rnatiladi, oldinga qarab siljishi sezilarli bo'ladi yoki qatlamni yuvilishi natijasida to'xtatiladi.

Uyumning chegarasida quduq joylashuvini mos kelmasligi. Qatlamdagi tog' jinsining tuzilmasini materiali va qo'llaniladigan eritmaning tarkibi farq qilganda qatlamga kirish to'xtatiladi.

Minerallashganligi: Karbonatli yoki qumoq toshli, ohaktoshli yoki kremniyli minerallashganda g'ovaklıligi nolga teng bo'lganda qatlamni yuvishni mumkin emas hamda ijobiy natijaga erishib bo'lmaydi.

Amorf tog' jinslari. Konglomeratlardagi kremniy slanetsi, kremniy galechnikı, galechniklar va kristallangan qoldıqlar yoki kvarsli galechniklarda g'ovaklılikni mavjud emasligi tufayli, gidromonitor nasadkasining harakatlanishi to'xtatiladi.

Kovaklı tog' jinslari. Qumoqtoshlarni suv eroziyasi yoki karbonatlardagi kimyoviy ishqorlanish natijasida mahsuldor qatlamda yirik o'lchamlardagi kovaklıliklarni paydo bo'lishga olib keladi. Shuning uchun gidromonitor tizimining samarali qatlamga kirishi uchun aniq diametr kattaligi talab qilinadi. Diametring qiymatini gidravlik samaradorlik ko'rsatgichining belgilangan chegaraviy qiymatidan oshganda oldinga harakatlanish to'xtatiladi.

Sementlangan qatlamlar. Sementlanmagan qumlar kuchli eroziyalı shikastlanganda gidromonitor nasadkasining orqa teshik orqali haydaladigan suyuqlikni yuqori tezlikda ta'sir etishi natijasida tog' jinsi yuviladi va kovaklar paydo bo'ladi hamda harakat sekinlik bilan yoki birdaniga to'xtatiladi.


Qatlamning g'ovaklıligi juda kichik yoki umuman mavjud bo'lmaganda: Kristalli tog' jinslari, angidritlar, gips va boshqa tog' jinslari hech qanday g'ovaklılikka ega bo'lmaganda oldinga harakatlanishning imkoniyati bodmaydi.

Tuzli qatlamlarning mavjudligi. Qoldiq basseynlarda ko'pincha NaCl uyumlari uchraydi. Bunday tog' jinslari amorf hisoblanadi va gidromonitor kuchning ta'siri ostida qatlamga kirish mumkin bo'lmaydi. Qatlamga samarali kirish chuchuk suv orqali amalga oshiriladi.

Radial burg'ılab ochishning muvaffaqiyati quyidagılarga bog'liq:

Qatlamni radial burg'ılab ochishda namunalı quduqlarni to'g'ri tanlashga bog'lıqdir. Radial burg'ılashni boshlashdan oldin quduq bo'yicha ma'lumotlar to'planadi. Quduq to'g'risida ma'lumotlarni to'plamiga karotaj diagrammalari, quduq ishining tarixi, kollektorlarning tavsifi va o'tkazilgan ta'mirlash ishlari yoki berilgan kislotali ishlov to'g'risidagi ma'lumotlar kiradi.

Bunday ma’lumotlarga asoslanib, radial burg‘ilab ochishni o‘tkazgandan keyin qazib olishni ko‘tarish uchun quduqni shunday potentsialga ega ekanligi aniqlanadi.



1-rasm. Radial quduqni burg‘ilash jarayonini olib borish tartibi

Radial burg‘ilash texnologiyasi qo‘llanilganda neft va gaz quduqlarini debiti oshiriladi, olinadigan zahiraning hajmi o‘sadi.

Bu texnologiyani qodlash natijasida kam sarf xarajat qilinadi va quduqqa oqimni chaqirish jadallashadi, qisqa vaqt ichida eng yuqori ko‘rsatgichli ishlab chiqarish natijasiga erishiladi.

Radial burg‘ilash texnologiyasi qo‘llanilganda quduqlarni rentabellik darajasi oshadi va neft oqimini kuchaytirish hisobiga sarf xarajalar tez qoplanadi.

Radial burg‘ilash qo‘llanilganda, yo‘nalishi (tiklakdan 90° og‘ishi) butun kirib borish uzunligi bo‘yicha nazorat qilinadi. Shuning uchun kirib borish parchalanishlar chegaralangan holda o‘tiladi, lekin bunda to‘liq buzilishlarni nazorat qilishni imkoniyati yo‘q.

Qudug‘ ustunining shikastlangan qismi chegaradan chiqariladi.

Bu texnologiyani yuqori-mahsuldor neftli qatlamlarda va kam o‘tkazuvchan ko‘p qatlamli kollektorlarda qo‘llash mumkin.

Radial burg‘ilashda - neft va gaz quduqlarini ochishni optimallashtirish va qayta tiklashda tezkor usullardan biri bo‘lib, egiluvchan quvurlardan foydalaniladi. Radial burg‘ilash texnologiyasi dunyoda neft qazib oluvchi davlatlarning ko‘pchiligida qodlanilgan bo‘lib, ijobiy natijalar bilan birgalikda salbiy holatlar uchragan. Bunday salbiy holatlarga qatlamni ko‘p yil davomida ishlatilganligi sababli, bosimning pasayishi hisobiga boshlang‘ich davridagi debit ko‘rsatgichlarini ma’lum davr oralig‘ida ishlatilgandan keyin pasayib ketishi, quduqlarni sifatsiz sementlanishining ta’sirida yon stvolni ochishdagi murakkabliklar, mustahkamlanmagan quduqlarga kislotali ishlov berilishi natijasida quduq stvoli kengayganligi tufayli jamlanmalarni markazlashtirishda muammolar va hokazo. Bunday murakkabliklar Shimoliy O‘rtabuloq, Kruk va Janubiy Kemachi konlarida olib borilgan amaliyotda qandaydir darajada uchragan.

Radial burg‘ilashda 50 mm-li diametrdagi yon teshiklar teshiladi, chuqurligi 2500 metrga bo‘lgan quduqning stvolida radius bo‘ylab yuqori naporli suyuqliklar qodlanilib, burg‘ilash ishlari olib boriladi. Radial burg‘ilash jarayonida har xil balandlikda 4 ta gorizontall stvolni burg‘ilashni imkoniyati mavjuddir (1-rasm).

Radial burg‘ilashda asosan og‘dirgich tiklikdan 90° burchak ostida ushlab turiladi va qatlamga to‘g‘ri chiziqli holda kirib boriladi.

Birinchi bosqichda. Yon tomondagi teshik aylanuvchi burg‘ilash burg‘isi yordamida burg‘ilanadi.

Ikkinchi bosqichda. Yuqori bosimli suyuqlik oqimida qatlamga ishlov berish.

Oqimli injektor davriy ravishda egiluvchan shlang va yer usti nazorati yordamida orqaga tortiladi, buning uchun yon teshikda egiluvchan shlang tortib turilishi doimiy ushlab turiladi.

Bunday doimiy tortish kuchi mustahkamlash quvurida chiqishda mustahkamlash quvuridan yo‘nalishda to‘g‘ri chiziqli o‘tishni ta’minlaydi.

Bir nuqtada ushlab turishda:

- tezlashish kuchi qatlamni yuvadi va haddan tashqari katta diametrli teshik hosil qiladi;
- tezlashuvchi kuch o‘zining tayanchini yo‘qotadi va uni faqat keraksiz yo‘qotadi, injektorni yo‘nalishi almashishni boshlaydi.

Qatlamni radial ochishni olib borishni chegaralovchi mexanik ko‘rsatgichlar:

Qatlamni radial ochish (RVP yoki RDS) tizimining amaldagi konstruksiyasi va texnologiyasiga har xil mexanik ko‘rsatgichlarning ta’sir etishi burg‘ilash samaradorligini pasaytirib yuboradi yoki bu tizimni qo‘llanilishi chegaralaydi.

Fodalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. A.M. Aminov, A.M. Murtazayev, Z. Sunnatov. Burg‘ilash mashinalari va uskunalari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. Turon-Iqbol nashriyoti -2007. 112b.
2. Akramov B.Sh., Hayitov O.G‘. Neft va gaz konlarining mashina mexanizmlari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. O‘qituvchi. 2004
3. У.Д.Нурматов, А.М.Аминов. Нефть ва газ қудуқларини бурғилаш. Ўқув қўлланма. Тошкент, 2003
4. А.К.Рахимов, А.М.Аминов, А.А.Рахимов. Пармаловчи муҳандислар учун маълумотнома (Справочник). Ўқув қўлланма. Тошкент, 2008
5. Aminov A.M. «Neft va gaz quduqdarini qurish asoslari», Darslik- Toshkent, 2010 y.
6. Булатов А.И. «Технология бурения» Москва, Недра - 2003 г, 1003 ст.
7. П.А. Багпамов Буровые машины и механизмы. Москва, «Недра», 1989.
8. Ганджумян Р.А., Калинин А.Г., Сердюк Н.И. — «Расчеты в бурении» Справочное пособие. Под редакцией А.Г.Калинина, - М.: РГГРУ, 2007 г. 668 стр.

КОЛЛОИДНО-ХИМИЧЕСКИЕ И ФИЛЬТРАЦИОННЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ СУСПЕНЗИЙ НА ОСНОВЕ ОРГАНОБЕНТОНИТОВ С ДОБАВКАМИ ЭЛЕКТРОЛИТОВ

¹Косназаров К.Х., ²Салиханов А.С., ³Сейтназарова О.М., ⁴Абдикамалова А.Б., ⁵Б.З.Адизов

¹докторант Института Общей и неорганической химии Академии Наук Республики Узбекистан;

²соискатель кафедры «Физическая и коллоидная химия» Каракалпакского государственного университета;

³PhD, доценты кафедры «Физическая и коллоидная химия» Каракалпакского государственного университета;

⁴д.х.н., главный научный сотрудник Института Общей и неорганической химии Академии Наук Республики Узбекистан;

⁵д.т.н., проф. главный научный сотрудник Института Общей и неорганической химии Академии Наук Республики Узбекистан

Целью данного исследования является всесторонний анализ основных коллоидно-химических и фильтрационных характеристик глинистых суспензий в присутствии избранных полимерных реагентов и солей электролитов. Особое внимание уделяется исследованию зависимости вязкостных и текучих свойств от концентрации и типа добавляемых полимеров и солей, а также изучению механизмов, лежащих в основе наблюдаемых изменений.

Исследование влияния хлорида натрия (NaCl) на стабильность глинистых суспензий выявило ряд значимых закономерностей. На Рисунке 1 представлен график, который иллюстрирует влияние концентрации хлорида натрия (NaCl) на суточный отстой (СО) 5-процентных суспензий двух образцов глин: КР (1) и ГДТМА-КР (2). Было установлено, что с увеличением концентрации NaCl у образца КР (линия 1) происходит значительный рост суточного отстоя. Начиная с отметки около 5% NaCl, СО резко возрастает, достигая более чем 20% при концентрации 20% NaCl. Это указывает на то, что при добавлении NaCl выше определённой концентрации у данного типа глины повышается склонность к оседанию.

В случае с ГДТМА-КР (линия 2) увеличение концентрации NaCl также приводит к повышению суточного отстоя, однако изменения происходят менее интенсивно. Показатель СО у данного образца достигает лишь около 5% при концентрации 20% NaCl.

Исходя из этого, можно сделать вывод, что ГДТМА-КР демонстрирует лучшую стабильность в присутствии NaCl по сравнению с КР. Это может свидетельствовать о том, что модифицированный образец ГДТМА-КР более устойчив к действию электролитов, что делает его потенциально более пригодным для применения в условиях, где есть высокая концентрация солей.




Рис. 1. Влияние концентрации (%) NaCl на СО суспензий образцов глин.




Рис. 2. Влияние концентрации (%) CaCl_2 на СО суспензий образцов глин.

На представленном рис. 2 изображены две кривые, которые показывают влияние концентрации хлорида кальция (CaCl_2) на суточный отстой (СО) суспензий двух образцов глин: КР и ГДТМА-КР.

Линия образца ГДТМА-КР показывает более плавное увеличение СО с ростом концентрации CaCl_2 , в то время как линия КР демонстрирует более резкое увеличение СО, особенно после концентрации в 0,4%. Это указывает на то, что присутствие CaCl_2 в более высоких концентрациях более сильно влияет на стабильность суспензии образца КР, в сравнении с модифицированным образцом ГДТМА-КР.

График показывает, что суспензия ГДТМА-КР обладает лучшей стабильностью и меньше подвержена оседанию при увеличении концентрации CaCl_2 до уровня примерно 0,5%. После этой точки кривая для ГДТМА-КР начинает подниматься быстрее, что может указывать на наступление границы стабильности этой модифицированной суспензии.

Обе кривые демонстрируют, что увеличение концентрации CaCl_2 в суспензии приводит к увеличению СО, однако влияние на ГДТМА-КР наступает позже и менее резко, чем на КР, что может свидетельствовать о лучшей устойчивости модифицированной суспензии к ионам кальция.

В ходе экспериментальной работы было выявлено, что стабильность глинистых суспензий оказывает существенное влияние на их фильтрационные характеристики. Обнаружено, что нарушение устойчивости системы ведёт к ухудшению водоотдачи, то есть к увеличению количества воды, отделяемой от суспензии. Таким образом, чем менее устойчива система, тем хуже её фильтрационные свойства и, соответственно, выше индикаторы водоотдачи.

Для поддержания оптимальных фильтрационных характеристик в условиях наличия минерализации в суспензиях необходимо использование специальных химических реагентов, способных снизить фильтрацию. В данном контексте рассматривалось влияние полимерных соединений, которые могут выступать в роли понизителей фильтрации и вязкости. При адсорбции макромолекул этих полимеров на поверхности частиц глины происходят изменения в структуре суспензии, влияющие на её реологические и фильтрационные свойства.

КОЛЛОИДНО-ХИМИЧЕСКИЕ И ФИЛЬТРАЦИОННЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ СУСПЕНЗИЙ НА ОСНОВЕ ОРГАНОБЕНТОНИТОВ С ДОБАВКАМИ ЭЛЕКТРОЛИТОВ

¹Косназаров К.Х., ²Салиханов А.С., ³Сейтназарова О.М., ⁴Абдикамалова А.Б., ⁵Б.З.Адизов

¹докторант Института Общей и неорганической химии Академии Наук Республики Узбекистан;

²соискатель кафедры «Физическая и коллоидная химия» Каракалпакского государственного университета;

³PhD, доценты кафедры «Физическая и коллоидная химия» Каракалпакского государственного университета;

⁴д.х.н., главный научный сотрудник Института Общей и неорганической химии Академии Наук Республики Узбекистан;

⁵д.т.н., главный научный сотрудник Института Общей и неорганической химии Академии Наук Республики Узбекистан

